

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI

Qo'lyozma huquqida
UDK

MIRMAHMUDOV DILMUROD RAXMONALIYEVICH
O'zbekistonning tinchliksevar tashqi siyosati

5A220201 – O'zbekiston tarixi

Magistr akademik darajasini olish uchun yozilgan

D I S S E R T A T S I Y A

Ilmiy rahbar:siyosiy fanlar doktori, professor:

Fayzullayev Tursunboy

Namangan – 2012

MUNDARIJA:

KIRISH.....	3-10
I BOB. O`ZBEKISTONNING MUSTAQILLIKKA ERISHUVI VA MAMLAKATDA TASHQI SIYOSAT TAMOYILLARINI SHAKLLANTIRILISHI.....	11-38
1.1 O`zbekiston Respublikasi prezidenti Islom Karimovning asarlarida tashqi siyosatdagi tinchliksevar g`oyalari va tashabbuslari.....	11-26
1.2 Mamlakat tashqi siyosatining huquqiy asoslari va tamoyillari.....	27-38
II BOB. O`ZBEKISTON TINCHLIKSEVAR TASHQI SIYOSATI YO`LIDAGI HAMKORLIGI.....	39-74
2.1 O`zbekistonning halqaro tashkilotlar bilan hamkorligining asosiy yo`nalishlari.....	39-51
2.2 O`zbekistonning mintaqaviy tashkilotlar bilan tinchlik yo`lidagi hamkorligi.....	52-74
XULOSA.....	75-78
FOYDALANILGAN ADABIYOTLAT RO`YXATI.....	79-81

KIRISH

Mavzuning dolzarbligi. Mamlakatimizda huquqiy demokratik davlat, fuqarolik jamiyati barpo etish yo`lida avvalboshdanoq asosiy ustuvor yo`nalishlarga aylangan masalalar — tinchlik va barqarorlikni saqlash, millatlararo hamjihatlikni asrash, aholini ijtimoiy muhofaza qilish, iqtisodiyotni tubdan isloh etish, milliy armiyani shakllantirish, sud-huquq tizimini yangi asosda barpo etish, inson manfaati, huquq va erkinliklarini ta`minlash, ijtimoiy-siyosiy hayotni erkinlashtirish, aholi salomatligi, ilm-fan, ta`lim-tarbiya, madaniyat va sport jabhalariga e`tibor qaratish, jahon hamjamiyatidan munosib o`rin egallash kabi ko`pdan-ko`p dolzarb vazifalar mustaqildigimizning poydevori qo`yilayotgan davrdan Yurtboshimizning chiqishlarida har tomonlama o`z ifodasini topa boshlagan edi.

Eng muhimi, Prezident Islom Karimov 1991 yil 31 avgust kuni O`zbekiston SSR Oliy Kengashining oltinchi sessiyasidagi nutqida “Mustaqil O`zbekiston davlatining siyosati insoniylik va ezgulik tamoyillariga asoslanadi” degan dasturiy g`oyani butun dunyoga bayon qildi va mana, yigirma yildirki, davlatimiz ana shu siyosiy printsipga og`ishmasdan, qat`iy amal qilib kelmoqda¹.

Mustaqillik yillari yangi mustaqil O`zbekistonning milliy davlatchiligi poydyevorini barpo etish sohasida puxta va jiddiy ish olib borilgan davr bo`ldi. Ma`lumki, davlatchiligimizning ming yillik tarixi Rossiya imperiyasiga zo`rlik bilan qo`shib olinishimiz natijasida uzilib qolgan edi. Faqat mustaqillikka erishilgandan keyingina xalqaro munosabatlarning teng huquqli sub`ektiga aylangan suveren O`zbekiston yangi davlatchiligini qurish va rivojlantirishga kirishdi.

¹ Каримов И.А. Ўзбекистон мустақилликка эришиш оstonасида. – Т.: Ўзбекистон, 2011. – Б. 26.

Bugungi kunda, ya'ni deyarli yigirma yillik tarixiy rivojlanish davrini tahlil etish O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimov ta'kidlaganidek: «Davlatlar mustaqil rivojlanish va ijtimoiy munosabatlarni yangilash yo`liga qadam qo`ydi. Ular dunyodagi boshqa mamlakatlar orasida o`z mavqeni mustahkamlashga intilmoqda. Tenglar orsida teng bo`lishga, jahon maydoning tarkibiy qismiga aylanishga xarakat qilmoqda².

Binobarin, ayni shunday bir sharoitda sayyoramizning juda katta maydonida kuchlar nisbati jihatdan Markaziy Osiyodagi yangi mustaqil davlatlar qaysi yo`ldan borishlariga bog`liq. Hozirgi kunda xalqaro munosabatlarning sifat jihatidan yangicha tarkibini shakllantirish jarayonida vujudga kelayotgan geosiyosiy muammolarning ko`pchiligi aynan O'zbekistonning Yevroosiyoda va umuman butun dunyoda olib borayotgan tashqi va ichki siyosatiga ko`p narsalar bog`liq bo`lib qolmoqda. Prezidentimiz Islom Karimov mamlakatimizda olib borilayotgan siyosiy islohotlar strategiyasini quyidagi fikr-mulohazalar orqali ko`rsatib o`tadi: «.....zamon talab qiladigan demokratik tamoyillar va milliy xususiyatlarimiz –qadriyatlarimizni o`zaro uyg'un tarzda birlashtirishdek o`ta muhim va strategik ahamiyatga ega bo`lgan vazifani ro`yobga chiqarish, qat`iyat va izchillik bilan hayotimizning barcha jabhalarida joriy etish – bular biz tanlagan yo`lni belgilab berayotgan asosiy omillari va sharti, desak, ayni haqiqatni aytgan bo`lamiz»³. Negaki, Markaziy Osiyo mintaqasida turli siyosiy, iqtisodiy, harbiy, transportga va ekologiyaga oid muammolar to`planib qolgan. Shuni nazarda tutadigan bo`lsak, bugun ya'ni mustaqillik sharoitida O'zbekistonning Markaziy Osiyo mamlakatlari tashqi siyosatidagi o`ziga xos o`rnini tahlil etish eng dolzarb vazifalardan biridir. Uning dolzarbligi fikrimizcha:

Birinchidan, bugungi kunda xalqaro siyosat maydonida muhim omilni tashkil etuvchi tashqi siyosat tushunchasining o`zini qayta baholash va milliy taraqqiyotimizda uning o`rnini aniqlab olish bilan bog`liqdir;

Ikkinchidan, xalqaro siyosiy, harbiy, iqtisodiy, ekologik munosabatlardagi ziddiyatlar va ularni bartaraf etishda Yevroosiyoda mamlakatlari ayniqsa, O'zbekiston tashqi siyosatidagi umuminsoniylik tamoyillarining ustuvorligini ta'minlash hayotning o`zi taqozo etayotganligidan kelib chiqmoqda. Shuningdek, Yevroosiyoda yaxlitligi shakllanishi jarayonining O'zbekiston manfaatlari tizimidagi salmog`ini siyosatshunoslik fani kategoriyalari asosida ilmiy tahlil qilish muhim ahamiyatga egadir;

Uchinchidan, Markaziy Osiyoda jug`rofiy-siyosiy jihatdan asosiy o`rin tutgan O'zbekiston butun dunyoda kuchlar tengligi va muvozanatini ta'minlash, strategik muhim bo`lgan ushbu mintaqada hamkorlikka mustahkam zamin yaratish jarayonining tashqi siyosat bilan bog`liqligini ko`rsatish muhim ahamiyatga egadir;

To`rtinchidan, Markaziy Osiyo mamlakatlari xududidagi geosiyosiy va geoiqtisodiy omillarning barchasi, ayniqsa, dunyoda siyosiy-iqtisodiy va xalqaro munosabatlardagi yangi tartib tez sur`atlar bilan shakllanib borayotgan bir sharoitda, O'zbekistonning noyob jug`rofiy o`rni jahon hamjamiyatida juda katta jug`rofiy-siyosiy (geopolitik) va jug`rofiy-strategik qiziqish uyg`otmoqda. Shunday ekan bugungi kunda O'zbekistonning Markaziy Osiyo siyosiy va iqtisodiy geografiyasida o`ziga xos tutgan o`rnini aniqlashni taqozo qiladi;

Beshinchidan, Markaziy Osiyodagi siyosiy muammolarga oid bo`lgan ilmiy mavzularni o`rganish dolzarbligi mintaqadagi ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan eng rivojlangan mamlakat, katta ma`naviy va madaniy kuch-qudratga ega bo`lgan O'zbekiston bugungi kunda qo`shni davlatlar Qozog`iston, Qirg`iziston, Tojikiston, Turkmaniston va Afg`oniston o`rtasida bog`lovchi xalqa vazifasini o`tayotganligidan ham kelib chiqmoqda. Bu esa dunyoning barcha katta-kichik

² Каримов И.А. Хавфсизлик ва барқарор тараққиёт йўлида. Т.6. – Т.: Ўзбекистон, 1998. – Б. 31.

³ Каримов И.А. Инсон манфаатларини таъминлаш, ижтимоий ҳимоя тизимини такомиллаштириш – устувор вазирамиздир. – Т.: Ўзбекистон, 2007. – Б. 3.

davlatlari uchun O`zbekiston bilan faol hamkorlik qilish orqali Yevroosiyo mintaqasida manfaatli munosabatlar o`rnatish imkoniyatini ochadi;

Oltinchidan, mamlakatimiz mustaqil taraqqiyotining tarixiy tajribasi shuni ko`rsatmoqdaki, nafaqat xalqaro siyosiy munosabatlarda balki, xalqaro iqtisodiy integratsiya jarayonidagi tashqi siyosatning ilmiy-nazariy asoslarini ishlab chiqish ham bevosita siyosat bilan bog`liq ekanligidandir.

Yuqorida ko`rsatilgan muammolarni tarixiy jihatdan ilmiy-nazariy tahlil etish va bu borada ma`lum bir tavsiyalarni taqdim etish har qachongidan ham dolzarb bo`lib qolmoqda. Buni bir tomondan, hozirgi kunda dunyoda Yuzaga kelayotgan jug`rofiy-siyosiy (geopolitik) vaziyat, ikkinchi tomondan, Markaziy Osiyo davlatlarning Yevroosiyo hamjamiyatidagi hamkorligi va uning ahamiyati nafaqat sho`ro zamonlari, balki hatto mintaqa respublikalarining mustaqilligi qaror topgan yillarga qaraganda ham sezilarli darajada oshishi bilan belgilanadi.

Bugungi kunda zamonaviy tarix fani oldida turgan dolzarb vazifalardan biri – mustaqil rivojlanish jarayoni, mamlakat ichki va tashqi siyosiy faoliyatini chuqur tadqiq etish va har tomonlama xolis yoritishdan iborat. Shuning uchun ham respublika tashqi siyosatining shakllanishi, asosiy tamoyillari, jahon mamlakatlari bilan ikki tomonlama hamkorlik aloqalari tarixi va tadrijini o`rganish muhim ahamiyatga ega. O`zbekistonning tinchliksevar tashqi siyosatini ilmiy jihatdan chuqur o`rganish zamonaviy tarix fanida alohida ahamiyat kasb etgani holda, O`zbekistonning yangi tarixini yaratishda respublikaning jahon hamjamiyati bilan aloqalari masalalarini har tomonlama qamrab olishga yordam beradi.

Mavzuning o`rganilganlik darajasi: O`zbekistonning mustaqil tashqi siyosati va xalqaro munosabatlardagi ishtiroki masalasi mamlakat tarixini o`rganishdagi yangi yo`nalishlardan biri hisoblanadi. O`zbekiston tashqi siyosati masalasi bo`yicha ilmiy-amaliy ishlar mustaqillikka erishganidan so`ng, kengroq o`rganila boshlandi. O`zbekistonning jahon hamjamiyatiga kirib borishi, tashqi siyosatning huquqiy, iqtisodiy, ma`naviy asoslarning vujudga kelishi, mustaqil tashqi siyosat institutlarining shakllanishi kabi masalalarni o`rganishda E.Z.Nuriddinovning tadqiqotlari muhim ahamiyat kasb etadi⁴. Ayniqsa, “O`zbekiston Respublikasining Yevropa mamlakatlari bilan xalqaro hamkorligi” nomli monografiyasida respublikaning Yevropa mamlakatlari bilan ko`p tomonlama hamkorligini keng ko`lamli ravishda yoritilishi bilan birga O`zbekiston tashqi siyosiy faoliyatining tarixiy ildizlari, sovet davridagi xalqaro aloqalar, istiqloq davrida tashqi siyosat huquqiy asoslarining shakllanishi, mustaqil tashqi siyosatni amalga oshiruvchi muassasalarning shakllanishi jarayoni batafsil yoritib berilgan.

A.K.Qirg`izboyevning “O`zbekiston Respublikasining Osiyo mamlakatlari bilan xalqaro hamkorligi” nomli monografiyasida O`zbekistonning Buyuk Ipak yo`lini tiklash borasida Osiyo mamlakatlari bilan hamkorligi, zamonaviy integratsion jarayonlarning asosiy xususiyatlari, bu hamkorlikning huquqiy asoslari, O`zbekistonning Markaziy Osiyo mintaqasi mamlakatlari, Osiyodagi xalqaro tashkilotlar va yetakchi davlatlar bilan aloqalari chuqur tahlil qilib berilgan⁵.

O`zbekistonning tashqi siyosatidagi ilmiy-nazariy va metodologik muammolari O`zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimov asarlari va ma`ruzalarida bayon etilgan. Ushbu muammoni A.A.Azizxo`jayev, R.M.Alimov, A.Begmatov, R.Z.Jumayev, N.Jo`rayev, T.A.Jo`rayev, B.Iminov, P.Makkamboev, Sh.Paxrutdinov, F.Tolipov, U.Ubaydullayev, N.Umarova, S.S.Safoyev, A.O.Fayzullayev, T.Fayzullayev, I.Ergashev, B.Xo`janov,

⁴ Нуриддинов Э. З. Становления нового типа экономических отношений Узбекистана с ведущими государствами Западной Европы // Общественные науки в Узбекистане. – Ташкент, 1998. – №1.; Ўзбекистон ва Германия // Фан ва турмуш. – Тошкент, 1998. – №2.; Узбекистан – Чехия: плодотворное сотрудничество // Экономика и статистика. – Ташкент, 1998. – №8.; Международное сотрудничество Республики Узбекистан со странами Европы. – Ташкент: Чулпан, 2002. – 216 с.

⁵ Қирғизбоев А. К. Ўзбекистон Республикасининг Осиё мамлакатлари билан халқаро ҳамкорлиги. – Тошкент: Фан, 2004. – 280 б.

S.Sharapovalar⁶, O'zbekistonning Markaziy Osiyo mamlakatlari geosiyosatidagi o'ziga xos tutgan o'rnini ijtimoiy-siyosiy boshqaruv hamda xavfsizlik nuqtai-nazardan tahlil qilganlar. O'zbekistonning Yevroosiyo mamlakatlari geosiyosatidagi o'ziga xos o'rnini mintaqaviy xavfsizlik nuqtai-nazardan o'rganishga bag'ishlangan ilmiy tadqiqotlar Sh.M.Abdullayev, S.T.A`zamxo`jayev, D.S.Azimova, R.M.Alimov, G.I.Karimova, B.R.Karimov, A.M.Qosimov, N.A.Qosimova, A.A.Xaydarov, A.Xo`jayev, U.A.Ubaydullayev, R.Sh.Sayfulina, A.Xoshimov, Sh.J.Ermatov, K.Axmedov, R.Parmonov, E.Oripov va boshqa olimlar tomonidan olib borilgan. Ushbu mavzu bo'yicha Markaziy Osiyoning o'zaro geosiyosiy muammolarining iqtisodiy yo`nalishlari Sh.J.Ermatovning nomzodlik dissertatsiya ishida, S.T.A`zamxo`jayevning nomzodlik dissertatsiyasida uning siyosiy yo`nalishlari tadqiq etilgan.

Yuqoridagi tadqiqotchilarning ilmiy ishlarida kuproq O'zbekistonning harbiy, iqtisodiy, geosiyosiy holatiga ko'ra tashqi siyosati yoritilgan. Biz ulardan farqli ravishda, mamlakatimizning barcha dunyo davlatlari bilan tinchlik tamoyillariga asoslangan tashqi siyosatini ilmiy asoslarda yoritib beramiz.

Tadqiqotning manba'lari. Magistrlik dissertatsiyasiga asosiy manba bo'lib mustaqillik yillarida Ozbekiston Respublikasining ichki va tashqi siyosatiga bag'ishlab yaratilgan asarlar, ilmiy tadqiqotlar, Oliy Majlisning qonunlari, hukumatning farmonlari xizmat qildi. Shuningdek, Nodira nomidagi Namangan Markaziy kutubxonasi va Namangan Davlat universiteti asosiy kutubxonasida saqlanayotgan nodir asarlar, gazeta va jurnallar, turli hajmdagi ilmiy to'plamlar dissertatsiyaning manbaviy asosini boyitishga xizmat qildi.

Tadqiqotning maqsadi va vazifalari. O'zbekistonning tinchliksevar tashqi siyosatini xalqaro maydonda o'z ahamiyatiga ega ekanligi va bu borada qo'lga kiritilgan yutuqlarni o'rganish va tahlil qilish. Shu maqsaddan kelib chiqqan holda, quyidagi asosiy vazifalarni hal etish nazarda tutiladi:

- Markaziy Osiyo mintaqasida O'zbekistonning tashqi siyosatida tutgan o'ziga xos o'rnini o'rganish va uni geosiyosiy sub`ekt sifatidagi rolini yoritish;
- Markaziy Osiyo mintaqasidagi siyosiy va iqtisodiy integratsiya yo`nalishlarini tahlil qilish hamda ushbu jarayondagi O'zbekistonning strategik rolini aniqlash;
- O'zbekistonning tashqi siyosatini belgilashda amaliy tavsiyalar ishlab chiqish;
- Markaziy Osiyoda doimiy ravishda jahondagi yirik davlatlarning geostrategik manfaatlarining mavjudligi ba`zi hollarda esa ular bir-birlari bilan kelishmasligining tub sabablarini ilmiy-nazariy jihatdan tahlil etish;
- Xalqaro siyosiy munosabatlardagi ayrim yirik davlatlarning demokratiya niqobi ostidagi zo`ravonlik siyosati natijasida kelib chiqayotgan ba`zi bir ziddiyatlar va ularni bartaraf etishda Yevroosiyo mamlakatlari geosiyosatidagi umumiylik va o'ziga xosligini alohida ajratib ko`rsatish.

Tadqiqotning ob`yekti. O'zbekistonning tinchliksevar tashqi siyosati faoliyatini samarali tashkil etish va mamlakatda insonparvarlik g'oyalarni shakllanishi, xalqaro maydonda mamlakat tashqi siyosati tinchlik tamoyillariga asoslanganligi hisoblanadi.

⁶Азизхўжаев А. А. Мустақиллик: курашлар, изтироблар ва қувончлар. -Т.: Академия, 2001.; Алимов Р.М. Центральная Азия: Общность интересов. – Т.: Шарқ, 2005. – 464 б.; Бегматов А. Маънавият фалсафаси. – Т., 2006; Жўраев Н. Тарих фалсафаси: тушунча, моҳият ва сиёсат. – Т.: Маънавият, 1999; Жўраев Т. Бузувчи ва тузувчи тизимлар // Тафаккур – 2000. – №2. – Б.24-29.; Толипов Ф.Ф. Большая стратегия Узбекистана в контексте геополитической идеологической трансформации Центральной Азии. – Т.: Фан, 2005; Иминов Б. Манфаатлар ва сиёсат. – Т.: Ўзбекистон, 1993; Жумаев Р. Политическая система Республики Узбекистан: становление и развитие. – Т.: Фан, 1996; Пахрутдинов Ш.И. Таҳдид халокатли куч (мақола ва маърузалар тўплами). – Т.:Академия, 2001; Сафоев С. С. Марказий Осиёдаги геосиёсат. – Т.: ЖИДУ, 2005. –160 б. Файзуллаев А. Инсон,сиёсат, бошқарув. Человек, политика, управление. – Т.: Ўзбекистон, 1995; Холбеков А. Ж. Шарқ ва Ғарбмутафаккирларининг социологик таълимоти. – Т.: Университет, 1996. – 154 б; Халқаро муносабатлар (геосиёсат, дипломатия, хавфсизлик). – Т.:Академия, 2006. – 240 б.

Tadqiqotning uslubi. Mavjud tarixiy ma'lumotlarni tanqidiy-qiyosiy o'rganish, voqea va jarayonlarni o'zaro bog'liqlikda, uzluksiz tarzda tarixiy va xolislik nuqtai nazaridan tahlil qilishga asoslanadi.

Tadqiqotning nazariy asosi. Magistrlik dissertatsiyani tayyorlashda O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, I.A.Karimovning asarlaridagi tashqi siyosatning huquqiy asoslarini shakllantirilganligi, nazariy qoidalar va ilmiy-amaliy tavsiyalari, Oliy Majlisning qonunlari, hukumatning farmonlari tadqiqotning nazariy asosini tashkil etadi.

Tadqiqotning davriy chegarasi. 1991-yildan 2011-yilgacha bo'lgan davrni qamrab olgan. Shu yillar mobaynida mamlakat Tashqi ishlar vazirligini tashkil etilishi, dunyo davlatlari bilan aloqalarning o'rnatishi. O'zbekistonning halqaro tashkilotlarga a'zo bo'lishi va ular bilan do'stona aloqalari hamkorligi 20 yillik davr mobaynida amalga oshirilgan isloxotlar izohlab beriladi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagi holatlar bilan izohlanadi:

- O'zbekiston Respublikasining tashqi siyosatida tinchlik, xavfsizlik va barqarorlik tamoyillariga asoslanib davlatlar o'rtasidagi munosabatlar, ularning rivojlanish jarayonlari, muammolari tarixiy nuqtai nazardan o'rganilayotganligi;

- O'zbekiston tarix fanida ilk bor zamonaviy sharoitda Markaziy Osiyo mintaqasida xavfsizlik va barqarorlikni taminlashda O'zbekistonning o'rnini, globallashtirish sharoitida qaror topgan xalqaro munosabatlar yangi modelining bir qismi sifatida ko'p tomonlama keng qamrovli yondashuv asosida ilmiy nuqtai nazardan o'rganib chiqildi;

- davlat tashqi siyosatida yaratilgan tinchliksevar tamoyilini tahlil etilishi;

- O'zbekistonni jahon hamjamiyatida integratsiyalashuv jarayoni aniqlandi.

Tadqiqotning ilmiy-amaliy ahamiyati. Magistrlik dissertatsiyada bayon etilgan mulohazalar, nazariy xulosalar va amaliy takliflar jamiyat taraqqiyotida Yevroosiyo mintaqasida O'zbekistonning o'rnini aniqlash, uning ma'naviy-iqtisodiy, siyosiy hayotda tutgan mavqeini o'rganish uchun asos qilib olish mumkin. Jahondagi mamlakatlar bilan integratsiyalashuvga yo'l ochgan tashqi siyosat tamoyillarining hayotiylikini ochib berishga, respublikaning xalqaro maydondagi obro'-e'tiborini mustahkamlashga ko'maklashadi.

Tadqiqot natijalarini e'lon qilganligi. Dissertatsiyaning asosiy mazmuni va xulosalari muallif tomonidan e'lon qilingan ilmiy maqolada o'z aksini topgan.

Tadqiqotning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, ikki bob, to'rtta paragraf, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatini o'z ichiga olgan.

I BOB. O'ZBEKISTONNING MUSTAQILLIKKA ERISHUVI VA MAMLAKATDA TASHQI SIYOSAT TAMOYILLARINI SHAKLLANTIRILISHI

1.1 O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning asarlarida tashqi siyosatdagi tinchliksevar g'oyalari

O'zbekiston Respublikasi davlat mustaqilligini qo'lga kiritgan dastlabki kunlardan oq jahon hamjamiyatiga qo'shilish, xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlik qilish yo'lini tanladi va og'ishmay shu yo'ldan bormoqda. Mamlakatimizning jahon xalqlari tinchligi va xavfsizligiga

mos bo`lib tuzilgan tinchlikparvar tashqi siyosati, uni jahonda mustaqil davlat sifatida tezda tan olinishini ta`minladi. O`zbekiston 120 ta davlat bilan diplomatik, siyosiy, iqtisodiy, ilmiy-texnikaviy va madaniy aloqalar o`rnatdi. O`zbekiston o`z tashqi siyosatiga tinchlik, barqarorlik va hamkorlik yo`lini asos qilib olgan.

O`zbekiston Prezidenti Islom Karimov dunyo muammolarini hal qilishining eng insonparvar, eng adolatparvar tamoyillarini o`rtaga tashlar ekan, u mintaqaviy mojarolarni va qo`shni mamlakatlarni o`zaro kelishmovchilik muammolardan tortib butun yer shari va insoniyat taqdiriga daxldor bo`lgan juda ulkan masalalarni o`rtaga tashlamoqda. Bu ayniqsa, xalqaro terrorizm va narkobiznes, diniy aqidaparastlik va ekstremizm bilan bog`liq bo`lgan muammolardir. Ayni ana shu muammolar bugun dunyo ahli hayotiga tahdid solayotgan eng og`ir fojia ekanligini, u bilan murosqa qilib bo`lmasligini, bu illatlarni barbod qilishda juda katta qat`iyat, siyosiy iroda va ichki qudrat kerakligini O`zbekiston o`z timsolida ko`rsatdi⁷.

O`zbekiston Prezidenti I.A.Karimovning “O`zbekistonning o`z istiqloq va taraqqiyot yo`li” va boshqa asarlarida, shuningdek, O`zbekiston Konstitutsiyasida tashqi siyosat yuritish qoidalari nazariy va amaliy jihatdan puxta asoslab berilgan. Davlat mustaqilligiga erishish, BMTga va boshqa xalqaro tashkilotlarga a`zo bo`lib kirish O`zbekistonga o`zining tashqi siyosatini mustaqil ravishda o`tkazish, jahon hamjamiyatiga kirishning o`z yo`llarini ishlab chiqish, davlatlararo munosabatlarning yo`nalishlari va ustuvorligini belgilash imkonini berdi. O`zbekistonning milliy manfaatlariga mos keladigan ko`p tomonlama faol tashqi siyosatni amalga oshirish – davlatchiligimizning mustaqilligini mustahkamlash, iqtisodiy qiyinchiliklarni bartaraf etish va xalq turmushini yaxshilashning zarur sharti va g`oyat muhim vositasidir⁸. O`zining xalqaro obro`-e`tiborini qozonish va mustahkamlash, xalqaro huquqning teng huquqli sub`yekti sifatida o`zini qaror toptirish uchun ko`p ishlarni qilish, ba`zida esa umuman boshidan boshlashga to`g`ri keladi.

Quyidagi asosiy prinsiplar O`zbekiston Respublikasi I.A.Karimov tomonidan O`zbekistonning tashqi siyosatiga, uni amalga oshirish yo`llarini belgilashga negiz qilib olingan:

Birinchisi, o`zining milliy-davlat manfaatlari ustun bo`lgani holda o`zaro manfaatlarni har tomonlama hisobga olish. Bizning mustaqil davlatimiz biron-bir buyuk davlatning ta`sir doirasiga tushib qolish niyatida emas. O`zbekiston yana kimgadir bo`ysunish uchun mustaqil bo`lgani yo`q.

Ikkinchisi, Respublika odamlar va davlatlar o`rtasidagi o`zaro munosabatlarda umumbashariy qadriyatlarni ustun qo`yib, xalqaro maydonda tinchlik va xavfsizlikni mustahkamlash uchun, mojarolarni tinch yo`l bilan hal etish uchun kurashadi. O`zbekiston yadrosiz mintaqaga bo`lib qoladi, tajovuzkor harbiy bloklar va uyushmalarga kirish niyati yo`q. Inson huquqlari to`g`risidagi, hujum qilmaslik haqidagi, nizoli masalalarni hal etishda kuch ishlatish bilan tahdid qilishdan voz kechish to`g`risidagi Xalqaro hujjatlarni tan oladi va ularga og`ishmay rioya qiladi.

Uchinchisi, Respublikaning tashqi siyosati teng huquqlilik va o`zaro manfaatdorlik, boshqa mamlakatlarning ichki ishlariga aralashmaslik qoidalari asosida quriladi. Musaqil Davlatlar Hamdo`stligida, butun tashqi siyosatda ham bizning shiorimiz – tenglar orasida teng bo`lish, “katta og`a”ning qosh-qovog`iga qarab ish tutishdan uzil kesil va abadul-abad xalos bo`lishdir.

⁷ Fayzullaev T., Jo`raev N. Mustaqil O`zbekiston tarixi. - T.:G`G`ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2009. - B .585.

⁸ Каримов И.А.Ўзбекистоннинг ўз истиклол ва тарикқиёт йўли. – Т.: Ўзбекистон,1998. – Б. 22.

To`rtinchisi, mafkuraviy qarashlardan qat`i nazar tashqi siyosatda ochiq-oydinlik printsiplarini ro`yobga chiqarishga va barcha tinchliksevar davlatlar bilan keng tashqi aloqalarni o`rnatishga intiladi.

Beshinchisi, o`zining milliy-huquqiy tizimini vujudga keltirayotgan yosh mustaqil O`zbekiston ichki milliy qonunlaridan xalqaro huquq normalarining ustuvorligini tan oladi. Bizning mustaqil davlatimiz o`z qiyofasini yo`qotmay, jahon hamjamiyatiga kirar ekan, xalqaro talablarga rioya qilishga tayyordir.

Oltinchisi, O`zbekiston to`la ishonch printsiplari asosida ham ikki tomonlama, ham ko`p tomonlama tashqi aloqalarni o`rnatish va rivojlantirish uchun, xalqaro tashkilotlar doirasida hamkorlikni chuqurlashtirish uchun harakat qiladi⁹.

O`zbekiston o`zining tashqi siyosatini ishlab chiqish va amalga oshirishda yuqorida aytib o`tilgan printsiplariga qat`iy rioya qiladi, tashqi siyosatni asosiy yo`nalishlarini qat`iyat va izchillik bilan turmushga tatbiq etilishi O`zbekiston Respublikasi Prezident I.A.Karimov tomonidan amalga oshirilib bormoqda.

O`zbekiston tomonidan yadrosiz hudud barpo etish tashabbusi ham Markaziy Osiyo mamlakatlari mintaqa aholisining kelajagi uchun nihoyatda muhim. Ilk bor u Prezident Islom Karimov tomonidan 1993 yili BMT minbaridan e`lon qilingan edi. O`z fikr-muloxazalarini davom ettirib, 2000 yil sentyabr` BMT Bosh Assambleyasida so`zlangan nutqida O`zbekiston Respublikasi Prezidenti shunday dedi: «O`zbekiston yadro qurolini tarqatmaslik va qurolsizlanishga doir xalqaro tartibga barcha davlatlar qat`iy va so`zsiz rioya qilishi tarafdoridir. Busiz global miqyosda ham, mintaqaviy miqyosda ham strategik barqarorlikka erishib bo`lmaydi. Bularning barchasi O`zbekistonning Markaziy Osiyoda yadro qurolidan xoli hudud barpo etish to`g`risidagi tashabbusi ahamiyatini yanada oshiradi va uni tezda xalqaro-huquqiy jihatdan qonunlashtirish zaruratini ilgari suradi»¹⁰.

Mamlakatimiz Prezidenti I.A.Karimovning BMT Bosh Assambleyasining 1993 yilda bo`lgan 48-sessiyasida ishtirok etishi va unda 27 sentyabrda qilgan ma`ruzasi O`zbekistonni jahonga ko`hna va yosh navqiron davlat sifatida namoyon etdi. O`zbekiston Respublikasi nomidan Markaziy Osiyoda xavfsizlik, barqarorlik va hamkorlik masalalari bo`yicha BMTning Toshkentda doimiy ishlovchi seminarini chaqirish, narkobiznesga qarshi kurashni kuchaytirish, Orol muammosini hal etish va boshqa masalalar bo`yicha bir qator takliflarni o`rtaga qo`ydi:

– O`rta Osiyoda xavfsizlik, barqarorlik va hamkorlik masalalari bo`yicha Toshkentda BMTning doimiy ishlovchi seminarini chaqirish;

– BMT Xavfsizlik Kengashi huzurida yuzaga kelayotgan xalqaro mojarolarni tahlil qilish va istiqbolini belgilash bo`yicha maxsus guruh tashkil qilish;

– O`rta Osiyo mintaqasini yadrosiz zona deb e`lon qilish;

– O`rta Osiyo mintaqasida kimyoviy va bakteriologik qurolni tarqatmaslik ustidan xalqaro nazorat o`rnatish;

– Narkobiznesga qarshi kurashni kuchaytirish.

O`zbekiston Prezidenti I.A. Karimov YEXHT ning Xel`sinki (1992), Budapesht (1994), Lissabon (1996), Istambul (1999) sammitida qatnashdi va nutqlarda qator taklif va tashabbuslarni ilgari surdi. Bular jumlasiga, Markaziy Osiyoda barqarorlikni mustahkamlash, mojarolarni bartaraf etish, qurol-yaroq kontrabandasiga qarshi kurashda YEXHT ning ishtirokini kengaytirish, xalqaro terrorizmga qarshi kurash markazini tashkil etish kabi masalalar kiradi.

Yevropada Xavfsizlik va hamkorlik kengashiga a`zo mamlakatlar davlat boshliqlarining 1994 yil dekabrda Budepeshtda bo`lib o`tgan konferentsiyasida Prezident I.Karimov ishtirok etib, YEXHKning mintaqamizdagi ahamiyati va nufuzining yanada mustahkamlanishi, “Tinchlik

⁹ Каримов И.А. Ўзбекистоннинг ўз истиклол ва тарикқиёт йўли. – Т.: Ўзбекистон, 1998. – Б. 24.

¹⁰ Каримов И.А. БМТ Бош Ассамблеясида сўзлаган нутқ, 2000 йил сентябрь // Ватан равнаки учун хар биримиз масъулмиз. Т.3. – Т.: Ўзбекистон, – Б. 326.

yo`lidagi hamkorlik” dasturida faol ishtrok etish-hodisalar nomaqbul yo`nalishining oldini olish hamda tiklanish jarayonlarini demokratik islohotlarning amaliy o`zani sari yo`naltirish uchun zarur imkoniyat yaratishga aminmiz.

YEXHK faoliyatida mintaqaviy hamkorlikni muvofiqlashtirish va rivojlantirish masalalari tobora ko`proq egallamog`i lozim. Tarix taqozosi bilan yonma-yon yashashga mahkum bo`lgan davlatlar va millatlar o`rtasidagi hamkorlik ular o`rtasidagi o`zaro ishonchni mustahkamlashning, hozirgi zamonda tobora avj olib ketayotgan millatlararo va mintaqaviy kurashlar va urushlar xavfni bartaraf etishning eng muhim omil va vositasidir.

Biz YEXHKning bugungi kunda qon to`kilayotgan mintaqalarda tinchlik o`rnatishdagi yetakchi o`rnini yanada mustahkamlash tarafdorimiz. Gap YEXHKning tinchlikparvarlik vazifasini amalga oshirishdagi xalqaro me`yorlarga muvofiq tarzda mojarolarning oldini olish va ularni boshqarishdagi ahamiyatini kuchaytirish, shu maqsadlarda YEXHK doirasida zarur tuzilmalar barpo etish lozim. Bizningcha, mojarolar bo`layotgan joylardagi barcha tinchlikparvar ishlari faqatgina YEXHK mandati bo`yicha amalga oshirilmog`i kerakligini O`zbekiston Prezidenti I.Karimov ta`kidlaganlar¹¹.

Bundan buyon ham O`zbekistonning Yevropada Xavfsizlik va hamkorlik tashkiloti tuzilmalaridagi ishtrokini kengaytirish zarur. Mintaqaviy xavfsizlikni ta`minlashda bu tashkilot imkoniyatlaridan, uning Shimoliy Atlantika hamkorlik kengashi, Yevropa Ittifoqi, Yevropa Kengashi, NATO va boshqa tashkilotlar bilan aloqalaridan keng foydalanish zarur.

O`zbekiston Qo`shilmaslik harakatiga a`zo bo`lgani sabali hech qaysi blokka qo`shilmaydi. Biz buni milliy xavfsizlikning muhim kafolati deb bilamiz. Shu bilan birgalikda, harbiy bloklar bilan hamkorligimiz tinchlik ishiga, mamlakatlar va xalqlarning xavfsizligi maqsadlariga, demakki, O`zbekistonning milliy xavfsizligi mustahkamlanishiga xizmat qilsa, biz hamisha muloqotga tayyormiz. Shu o`rinda O`zbekiston 1994 yilning iyulida NATOning kollektiv xavfsizlikni ta`minlashga qaratilgan “Tinchlik yo`lida hamkorlik” loyihasini imzolagan Prezidentimiz fikrlarining isbotidir.

Tashqi siyosatni mafkuradan to`la xoli etish xavfsizlikni ta`minlashning muhim kafolatidir. O`zbekiston shu paytgacha dunyoning barcha mamlakatlari, qit`alari va mintaqalari bilan o`z munosabatlarini, bu mamlakatlarning ustqurmasi qanday bo`lishidan qat`i nazar, faqat xalqaro huquqning barcha tan olgan qoida va mezonlari asosida qurilib keldi va bundan keyin ham shu yo`ldan boradi.

Prezident I.Karimov “O`zbekiston XXI asr bo`lag`asida-xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari” asarida XXI asr, shubhasiz, xalqaro munosabatlarda butun dunyo qamrab olinadigan asr bo`ldi. Bunday sharoitda integratsiya jarayonini, xalqaro institutlar va tashkilotlarda suveren davlatlarning ishtrok etishini kengaytirish jarayonini faqat tarix taqozosi deb emas, balki ayrim mintaqalar ko`lamida ham, shuningdek, umuman-butun sayyoramiz ko`lamida ham sobitqadamlik, barqarorlikning qudratli omili deb hisoblamoq zarur. O`zbekiston bir vaqtning o`zida turli darajalarda dunyo miqyosida va mintaq ko`lamida integratsiya jarayonlarida qatnashsada, ammo bir muhim qoidaga: bir davlat bilan yaqinlashish hisobiga boshqasidan uzoqlashmaslikka amal qiladi. Biz bir sub`yekt bilan sherikchilikning mustahkamlanishi boshqalar bilan sherikchilik munosabatlarning zaiflashuviga olib kelishiga qarshimiz. Shu sababli O`zbekistonning jahon hamjamiyatidagi integratsiyalashuvi serqirra jarayondir.

Biz jahon hamjamiyatidagi integratsiyalashuv haqida gapirganimizda, eng avvalo, Birlashgan Millatlar Tashkiloti faoliyatida ishtrok etishimizni nazarda tutamiz. Biz o`zimizning bunday obro`li xalqaro tashkilot ishidagi ishtrokimizni Markaziy Osiyo mintaqasida xavfsizlik, tinchlik va totuvlikni ta`minlashning keskin muammolariga jahon jamoatchiligi e`tiborini qaratish mikoiniyati deb bilamiz. Hozirgi paytda umumiy xavfsizlik muammosiga aloqador

¹¹ Каримов И.А. Ватан саждагоҳ каби муқаддасдир.– Т.: Ўзбекистон, 1995. – Б. 123.

bo'lgan halqaro tashkilotlar g'oyat xilma-xil bo'lishiga qaramay, faqat BMTgina xavfsizlikni saqlash va ta'minlashga xizmat qiladigan oldini olishga qaratilgan diplomatiyadan tortib to tinchlik o'rnatishga qaratilgan operatsiyalarda qatnashishgacha bo'lgan vositalarning hammasiga ega.

O'zbekistonning tashabbusi bilan va BMT rahnamoligida 1995 yili Toshkentda Markaziy Osiyoda mintaqaviy xavfsizlik muammolariga bag'ishlangan xalqaro seminar muvaffaqiyatli o'tdi. Unda 20 ta xalqaro tashkilot va jahonning 30 ortiq mamlakati, shu jumladan AQSh, GFR, Frantsiya, Buyuk Britaniya, Rossiya, Yaponiya, Xitoy, Hindiston, Pokiston, eron va boshqa davlatlarning diplomatiya hamda hukumat vakillari ishtrok etishdi¹².

Bizning BMT bilan munosabatimiz xalqaro jamoatchilikdan yordam va madad olish istagimzdan ko'ra, ko'proq BMT sa'y-harakatlari muvaffaqiyatli amalga oshirilishiga, uning faoliyati yangi mazmun bilan boyishiga ko'maklashishga intilishga asoslanadi. Jahondagi jo'g'rofiy-siyosiy vaziyatning o'zgarishi yangi ming yillikda BMT tarkibiy tuzilishi va BMT faoliyatini takomillashtirishni ham talab qilmoqda. Shu o'rinda BMTning integratsiya sohasidagi imkoniyatlari g'oyat ulkanligi va uning ixtisoslashtirilgan tashkilotlari bu imkoniyatlarning tashkil etuvchilari hisoblanishini alohida ta'kidlash lozim. O'zbekiston mazkur tashkilotlar bilan bugungi kunning o'zidayoq samarali hamkorlikni rivojlantirmoqda. BMT doirasida jahon hamjamiyatidagi integratsiyalashuvni BMTning ixtisoslashgan muassasalari YUNESKO, Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti, Xalqaro mehnat tashkiloti, YUNKTAD, YUNISEF va boshqalar bilan keng hamkorlik qilish ma'nosida tushunamiz.

Jahon hamjamiyatiga integratsiyalashuvning tarkibiy qismi davlatlarning turli mintaqaviy birlashmalari bilan aloqalarni rivojlantirishdan iborat. O'zbekiston mintaqaviy xalqaro tashkilotlar, chunonchi, Yevropa Ittifoqi, YEXHT, NATO, EKO, OIK, Qo'shilmaslik harakati va boshqalar bilan ham samarali hamkorlik qilmoqda¹³.

O'zbekiston tashqi siyosatining Yevropa yo'nalishi ancha kengaydi – ushbu yo'nalish Yevropadagi ayrim mamlakatlar bilan hamkorlik qilishni ham, shuningdek, butun Yevropa qit'asini ham o'z ichiga oladi. Bu qit'aning o'z, mintaqaviy, Yevropaga xos integratsiyasi muvaffaqiyatli amalga oshirilmoqda. Yevropa Ittifoqi bilan sherikchilik va hamkorlikni biz O'zbekistonning xavfsizligi va taraqqiyotini ta'minlashga qo'shilgan yana bir hissa deb hisoblaymiz.

Hozir bizning mamlakatimiz bilan NATO dek xalqaro tashkilot o'rtasida o'zaro tushinish va hamkorlik mavjud deb aytish mumkin. Bizningcha, o'z tarkibida demokratik davlatlarni birlashtirib turgan NATO faqat Yevropa qit'asidagina emas, balki o'zining siyosiy ustqurmasini mustahkamlash va “Tinchlik yo'lida hamkorlik” dasturi hisobiga juda katta Yevroosiyo mintaqasida tinchlik o'rnatuvchi omil bo'lishi mumkin. O'zbekiston “Tinchlik yo'lida hamkorlik” dasturiga 1995 yil iyul' oyida qo'shilgan bo'lib, bu dasturdagi ishtrokimizga o'z mustaqilligimiz va suverenitetimizni mustahkamlash, hozirgi zamon harbiy-texnikaviy Yutuqlardan bahramand bo'lish, harbiy kadrlar tayyorlashda imkoniyatlarimizni kengaytirish nuqtai nazaridan qaraymiz deb, fikr bildirgan Prezident I.A.Karimov NATO harbiy bloki haqida¹⁴.

NATO Bosh kotibi X.Solana va Amerika Qo'shma Shtatining NATOdagi doimiy vakili R.Xanterni O'zbekistonga tashriflari butun dunyo miqyosidagi va mintaqadagi xavfsizlik muammolari borasidagi qarashlarimiz mos kelishini yana bir bor namoyish qildi. Bularning barchasi XXI asrga xavfsizligi ta'minlangan va barqaror rivojlanayotgan, Yuksak darajada

¹² Каримов И.А. Ўзбекистон XXI аср бўсағасида:хавфсизликка таҳдид,барқарорлик шартлари ва тараққиёт кафолатлари. – Т.: Ўзбекистон, 1997. – Б.301.

¹³ Каримов И.А. Ўзбекистон XXI аср бўсағасида:хавфсизликка таҳдид,барқарорлик шартлари ва тараққиёт кафолатлари. – Т.: Ўзбекистон, 1997. – Б.303.

¹⁴ Каримов И.А. Ўзбекистон XXI аср бўсағасида:хавфсизликка таҳдид,барқарорлик шартлари ва тараққиёт кафолатлари. – Т.: Ўзбекистон, 1997. – Б.307.

taraqqiy etgan va zamonaviy demokratik davlat bo`lib kirish maqsadida yangilanish va taraqqiyotni o`zining strategik vazifasi qilib olgan yosh O`zbekiston davlati uchun hayotiy zarurdir.

Mintaqaviy barqarorlik, mintaqa ko`lamida integratsiya jarayonlarini rivojlantirish masalalarini hal qilishda ilgari Sovet Ittifoqi tarkibiga kirgan mamlakatlar o`rtasida vujudga kelayotgan munosabatlar alohida o`rin tutadi. Bu munosabat 1991 yil dekabrda Mustaqil Davlatlar Hamdo`stligini tashkil etilishi bilan o`rnatildi. MDH mamlakatlari ikki tomonlama va ko`p tomonlama shartnoma munosabatlari doirasida teng huquqli sherikchilik asosida o`zaro foydali hamkorlik qilishlari uchun keng imkoniyatlar mavjudligini tasdiqladi. Mamlakatlarimiz xalqlarining yaqinlashuvi tabiiy kechayotgan jarayon. Bu yaqinlik, Sovet Ittifoqi mavjud bo`lganidan qat`i nazar, hamma vaqt bo`lib kelgan. Bu xalq integratsiyasi bo`lib, sun`iy ravishda joriy etiladigan siyosiy integratsiyadan farqli o`laroq, haqiqiy integratsiyadir.

O`zbekiston Hamdo`stlik doirasida boshqa mustaqil mamlakatlar bilan faol hamkorlik qilayotganligi tufayli quyidagilar ta`minlamoqda deb ta`kidlaydi Prezident I.A.Karimov:

- birlashgan Qurolli Kuchlar orqali milliy mudofaani muvofiqlashtirish, milliy hudud yaxlitligini va davlat chegarasini ximoya qilish;

- transport tarmog`idan foydalanish, dengiz portlari chiqish, xorrijiy mamlakatlarga mollarni tranzit yuli bilan yetkazib berishda imkoniyatning kengligi;

- keskin ekologiya muammolarini hal etish chora-tadbirlarini birgalikda amalga oshirish, tabiiy ofatlar va falokatlarning oqibatlarini tugatishda o`zaro yordam berish.

Yangi mustaqil respublikalar ilgari yagona davlatning tarkibiy qismlari edi. Ular ham hududiy, ham jahon miqyosidagi siyosiy, ham tashkiliy jihatdan bir butun edilar. Ko`p yillar mobaynida ular o`rtasida tarkib topgan munosabatlar va aloqalarning keskin uzilishi respublikalarning o`zidagina emas, shu bilan birga xalqaro maydonda ham vaziyatni chigallashtirishga olib kelgan bo`lar edi.

1997 yil 15 sentyabrda Toshkentda bo`lib o`tgan “Markaziy Osiyo – yadro qurolidan xoli zona” xalqaro konferentsiyasida Prezident I.A.Karimov konferentsiya haqida shunday fikr bildirgan edi. Mazkur konferentsiya – Markaziy Osiyoni yadro qurolidan xoli zona deb e`lon qilish tashabbusi – Markaziy Osiyo davlatlarining xavfsizlik, barqarorlikni hamda bu mintaqada istiqomat qilayotgan kishilarning tinchligini ta`minlash, aytish mumkinki, mintaqani barqaror rivojlantirish va gullab-yashnatish borasidagi manfaat va maqsadlari mushtarakligining yangi bir ko`rinishidir.

Anjuman ishida BMT Xavfsizlik Kengashining doimiy a`zolari – yadro davlatlari hisoblanmish besh davlat vakillarining ishtrok etayotgani, Markaziy Osiyoni yadro qurolidan xoli zona deb e`lon qilish tashabbusini qo`llab quvvatlashni o`z vazifasi deb bilgan Markaziy Osiyo bilan chegaradosh mamlakatlarning rasmiy vakillari ishtroki Yevropa Ittifoqi mamlakatlari delegatsiyalari ishtroki, integratsiya hamda xavfsizlik va tinchlik o`rnatish borasidagi tajribasi Markaziy Osiyodagi yosh davlatlar uchun alohida qadrlidir. Uchrashuvimiz yadro qurolini tarqatmaslik bo`yicha yirik halqaro ekspertlarning ishtroki tufayli yanada yuksak ilmiy daraja kasb etishini ham ta`kidlash joizligini Prezident I.Karimov aytib o`tgan¹⁵.

Mintaqamizni yadro qurolidan xoli zona deb e`lon qilishning yana bir muhim va dolzarb jihati shundaki, hali sayyoramizdagi barcha davlatlar ham yadro qurolini tarqatmaslik haqidagi shartnoma qo`shilgan emas. Xuddi mana shuning uchun ham, jahon hamjamiyati bugungi kunda ana shu xavfdan ogoh qilish, uning oldini olish borasidagi tashabbus va chora-tadbirlarga jiddiy e`tibor bilan qarashi va ularni har tomonlama qo`llab-quvvatlashi lozim.

Biz Markaziy Osiyo – dunyodagi aholi eng zich joylashgan mintaqalardan biri ekanini, aholi har tomonlama nochor, tabiiy halokatlar tez-tez sodir bo`lib turadigan sharoitda istiqomat qilishini hech qachon unutmasligimiz kerak. Bu yerda dunyodagi ko`pgina yirik davlatlarning

¹⁵ Каримов И.А. Хавфсизлик ва барқарор тараккиёт йўлида. – Т.: Ўзбекистон, 1998. – Б.354.

geopolitik va strategik manfatlari to`qnashadi. Shuning uchun ham tobora ulkan ahamiyat kasb etayotgan bu mintaqaning ustunlik va ta`sir doiralari uchun yangi kurash maydoniga aylanib qolishiga yo`l qo`yib bo`lmaydi.

Markaziy Osiyoning dunyo miqyosida tobora ulkan ahamiyat kasb etayotgani, shuningdek, umumiyevropa xavfsizligi tizimini yangicha idrok etishni ham taqozo qiladi. Markaziy Osiyodagi – Yevropada Xavfsizlik va Hamkorlik Tashkiloti a`zolari bo`lmish beshta davlatni o`z ichiga olgan mintaqada yadro xavfidan xoli zonaning barpo etilishi YEXHTning umummaydonida ham tinchlik va barqarorlik poydevorini yanada mustahkamlaydi.

Markaziy Osiyoda yadro qurolidan xoli zonani barpo etishning haqiqatan ham maqsadga muvofiqligi va zarurligini ta`kidlanilar ekan, O`zbekiston BMT Bosh Assambleyasining 48-sessiyasida olg`a surilgan bu tashabbus qo`shnilarimiz – Qozog`iston, Qirg`iziston, Tojikiston, Turkmaniston tomonidan ham qo`llab-quvvatlanganini 1997 yil fevralida qabul qilingan Almati deklaratsiyasida o`z ifodasini topgan. Bu hujjat yadro qurolini tarqatmaslik sohasida siyosiy ishonch muhitini yaratdi¹⁶. Deklaratsiyaning Birlashgan Millatlar Tashkiloti, boshqa xalqaro tuzilmalardagi taqdimoti hamda unga xalqaro hamjamiyat rahbarlari va a`zolari bergan baho Prezident I.A.Karimovning tinchlikparvar tashqi siyosatini amalda tatbiq etilayotganini ko`rsatadi.

Markaziy Osiyo tashabbusining yuzaga kelishiga yadro qurolini tarqatmaslik sohasidagi xalqaro tajriba diqqat bilan o`rganilgani hamda dunyo miqyosida xavfsizlikni mustahkamlashda o`zimizning o`rnimizni aniqlab olish tufayli imkon yaratildi. Buni Konferentsiyaning ekspert bosqichi ham tasdiqladi. Mazkur bosqich davomida mintaqadagi davlatlarning sayyoramizning yadro quroli, yadroviiy portlash uskunalari butunlay taqiqlab qo`yiladigan hududlarni kengaytirishga qaratilgan sa`y-harakatlariga ijobiy baho berildi.

Konferentsiya kun tartibiga qo`yilgan masalalarga O`zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimov quyidagi o`z fikrlarini bildirgan:

Birinch, yadro xavfsizligiga umumiy, keng qamrovli xavfsizlik, omon qolish muammosining tarkibiy qismi sifatida qaralishi kerak. Yadro quroliga ega va ega bo`lmagan davlatlarning majburiyatlari o`rtasidagi muvozanat – yadro qurolidan xoli zonaning samarali faoliyat ko`rsatishi asosidir.

Ikkinchi, yadro qurolidan xoli zonani barpo etish texnologiyasi o`z- o`zidan mintaqa xavfsizligini ta`minlash masalasini hal qilmasligini e`tirof etish zarur. Zonaning barcha faoliyat imkoniyatlarini yadro quroli tarqalishi xavfining oldini olishga safarbar eta oladigan mexanizmi ishlab chiqilishi lozim. Shu maqsadda ishtrokchi davlatlar xalqaro miqyosda to`plangan tajribaga hamda bir qancha asosiy tamoyillarga, xususan:

- zona yadro qurolidan to`la ravishda xoli bo`lishi ta`minlanishi lozim;
- uning faoliyat kursatishi bo`yicha ishtrokchi davlatlarga emas, barcha manfaatdor mammlkatlar ham o`z zimmlariga majburiyat olishi mumkin;
- yadro qurolidan xoli zonaning barpo etilishi haqidagi bitimlar kelishilgan majburiyatlarga rioya qilishni ta`minlovchi samarali nazorat tizimini o`z ichiga olishi lozim;
- nazorat MAGATE va BMTning Xavfsizlik Kengashi kafolati ostida olib borilishi lozim, degan tamoyillarga suyanishi kerak.

Uchinchi, Markaziy Osiyoda yadro qurolidan xoli zonaning barpo etilishi va uning faoliyat ko`rsatishi – yadro qurolini tarqatmaslik haqidagi shartnoma doirasida belgilab berilgan dunyo miqyosidagi yadro xavfsizligi tizimining ajralmas qismidir. Bu amalda Markaziy Osiyo mintaqasi davlatlari yadro qurolini tarqatmaslik va qurolsizlanishning umumiy tartibiga faollik bilan qo`shilajagini bildiradi.

¹⁶ Каримов И.А. Хавфсизлик ва барқарор тараққиёт йўлида. – Т.: Ўзбекистон, 1998. – Б.356.

To`rtinchi, har qanday siyosiy qaror, har qanday davlatlararo hujjat ijtimoiy muammolar bilan mustahkam bog`liq bo`lganidagina, inson va jamiyatning munosib turmushi ta`minlanganidagina biron-bir kuchga ega bo`ladi.

Beshinchi, Konferentsiyani tayyorlashning ekspert bosqichi ko`rsatganidek, Markaziy Osiyo yadro qurolidan xoli zonani barpo etish g`oyasi mintaqaviy xavfsizlikni ta`minlash bo`yicha amalga oshirilayotgan tadbirlarga to`la mos keladi. Bu mazkur muammo bo`yicha ilgari qilingan sa`yxaraaktlarning mantiqiy davomidir¹⁷.

Biz yadro qurolidan xoli Markaziy Osiyo zonasining barpo etilishi ramziy tadbirga aylanib ketmasligini yaxshi bilamiz. Uni barpo etish bo`yicha tadbirlar qurolsizlanish va qurollanishni nazorat qilish sohasidagi xalqaro huquq me`yorlari asosida, yadro qurolini tarqatmaslik bo`yicha shartnoma doirasida amalga oshirilishi lozim. Yadro qurolidan xoli zonaning faoliyat ko`rsatishiga odatdagi, an`anaviy ma`nodagidan ko`ra kengroq qaralishi lozim. Eng avvalo, mintaqadagi davlatlar va chegaradosh mamlakatlar ixtiyorida mavjud bo`lgan parchalanuvchi materiallardan odamlarni himoyalashning aniq va amal qiladigan mexnizmi ishlab chiqilishi kerak.

Va, nihoyat, yadro qurolidan xoli zona yadro qurolini tarqatmaslik, qurolsizlanish, nazorat qilish va atrof-muxitni muhofaza etish borasidagi faoliyatini amalga oshirishdan tashqari, Markaziy Osiyo davlatlarining tinchlikka xizmat qiladigan atomni tadqiq qilish sohasidagi hamkorligiga ko`maklashuvi lozim. Buning uchun mintaqada barcha zarur imkoniyatlar mavjud¹⁸. Biz Markaziy Osiyodan tashqarida yuz berayotgan voqealardan uzilib qolganiimiz yo`q. Biz – insoniyatning bir qismimiz, dunyo esa yaxlitdir. Biz boshqa davlatlar bilan bir qatorda sayyoramizning barcha burchaklarida insonlarning kafolatlangan tinch hayot kechiradigan vaqtini tezroq yaqinlashtirish uchun tinchlik o`rnatish yo`lidagi bunyodkorlik jarayonida ishtirok etishni istaymiz deb o`z ma`ruzasini yakunlagan.

O`zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimovning bevosita taklifi bilan Afg`onistonga chegaradosh olti mamlakat (O`zbekiston, Turkmaniston, Tojikiston, Eron, Pokiston, Xitoy) va AQSH hamda Rossiya ishtirokida “6+2” muloqot guruhi tuzildi. Guruhning birinchi uchrashuvi 1997 yil 16 oktyabrda N`yu-Yorkda o`tkazildi.

1999 yil 19-20 iyul` kunlari Toshkentda BMT shafeligida “6+2” guruhining navbatdagi uchrashuvi bo`lib o`tdi. Bunda Afg`onistondagi ikki qarama-qarshi guruh “Tolibon” harakati hamda Afg`oniston Birlashgan fronti vakillari ilk bor bir stol atrofiga yig`ildi. Uchrashuv nihoyasida “Afg`onistondagi mojonroni tinch yo`l bilan bartaraf etishning asosiy tamoyillari to`g`risida” gi Toshkent Deklaratsiyasi qabul qilindi. Qabul qilingan Toshkent deklaratsiyasi BMT hujjati maqomini oldi.

Afg`oniston bo`yicha “6+2” guruhining Toshkent uchrashuvini ochish marosimida so`zga chiqib, Prezident I.A.Karimov quyudagi fikrlarni bildirdi: “Fuqoralar urushi tufayli vujudga kelgan beqaror vaziyat allaqachon Afg`oniston chegaralaridan oshib o`tib, mintaqadan ancha narida ham o`zining salbiy ta`sirini ko`rsatmoqda¹⁹.”

Bugun Afg`oniston va uning atrofida yuz berayotgan xalqaro terrorizm va ekstremizm muammolari ham, narkotik moddalarni tarqatish va qurol-yarog` savdosi muammolari ham, tobora tahdidli tus olayotgan islomni radikallashtirish jarayonlari ham jahon jamoatchiligini tashvishga solmay qo`ymaydi.

Bugungi kunda Afg`onistonda yuz berayotgan voqealarni kuzatib turgan har bir kishini bu mamlakat aholisining, uni vayrongarchilik va muhtojlikka mahkum etgan, iqtisodiyot va kishilar hayotini o`nglab yillar orqaga uloqtirib tashlagan urush va qarama-qarshilik tufayli Vatandan judo bo`lgan barcha millat elat vakillarining taqdiri tashvishga solmay qo`ymaydi”.

¹⁷ Каримов И.А. Хавфсизлик ва барқарор тараққиёт йўлида. – Т.: Ўзбекистон, 1998. – Б.359.

¹⁸ Каримов И.А. Хавфсизлик ва барқарор тараққиёт йўлида. – Т.: Ўзбекистон, 1998. – Б.360.

¹⁹ Гафарли М. С., Касаев А.Ч..Ривожланишнинг ўзбек модели:тинчлик ва барқарорлик – тараққиёт асоси. – Т.: Ўзбекистон, 2001. – Б.87.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti "ba'zi davlatlarning Afg'onistondan jug'rofiy uzoqlik o'zlarining xavfsizligiga ta'sir qilmaydi degan umidlari asosiz ekanini vaqt ko'rsatdi", deb alohida ta'kidladi. So'ngra I.A.Karimov quyidagicha fikr bildirdi: "Hozir ... bizning eng ezgu va eng katta istagimiz tinch, barqaror va xavfsiz Afg'onistonni ko'rishdir. Biz Qobulda milliy totuvlik va ichki barqarorlikni ta'minlashga qodir bo'lgan, xalqaro huquq me'yorlarini hurmat qiladigan va chegaradosh mamlakatlar bilan yaxshi qo'shnichilik munosabatlarini ta'minlashga kafolat beradigan barcha tomonlar vakillaridan iborat nufuzli va kuchli hukumatni ko'rishni istaymiz"²⁰.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimov, Afg'oniston muammosini tezroq hal etish mintaqaviy hamkorlikni yo'lga qo'yish uchun, birinchi navbatda O'rta Osiyoni qo'shni hududlar va mamlakatlar bilan bog'laydigan transport kommunikatsiyalariga doir uzoq muddatga mo'ljallangan loyihalarni amalga oshirish bo'yicha zarur shart-sharoit yaratish ishiga chinakam omil bag'ishlagan bo'lar edi, deb hisoblaydi. O'zbekistonning mintaqada xavfsizlik va barqarorlikni mustahkamlash, xususan BMT shafeligida "6+2" guruhini tuzish bo'yicha say-harakatlari va tashabbuslari ana shu yondashuvlarga asoslanadi. Bu guruh nisbatan qisqa vaqt ichida afg'on muammosini hal etish yo'llarini birgalikda izlashda tajriba orttirdi. Hozirgi vaqtda Afg'oniston mojarosining ko'pgina ishtirokchilari, shuningdek, ularning orqasida turgan kuchlar Afg'oniston mojarosini xarbiy yo'l bilan hal qilib bo'lmasligini tushinib etmoqa. Afg'onistondagi kuchlar o'rtasidagi urush harakatlarini to'xtatish va muzokaralarni qaytadan boshlash zarurligi o'zaro kurashayotgan tomonlar o'rtasida muzokaralar jarayonini boshlash uchun ana shu noyob imkoniyatni tushunib etish va anglashni taqozo qilmoqda.

Shu sababli Toshkent uchrashuvi mazkur mojaroni afg'on tomonlari o'rtasida to'g'ridan-to'g'ri tinch siyosiy muzokaralar vositasida, mamlakatning ichki ishlariga tashqaridan aralashuvsiz hal qilish zaruriyatiga qaratildi. "Afg'on xalqi va uning rahbarlari o'z mamlakatlari taraqqiyotining qaysi yo'lidan borishini va tinch hayot qanday hukumat boshchiligida tiklanishini o'zlari mustaqil ravishda tanlab olishlari kerak", – deb ko'rsatdi Islom Karimov²¹.

Afg'oniston yaxlit davlat, – deb hisoblaydi Prezident I.A.Karimov. Bu yerda qarama-qarshi tomonlarni ajratib tashlash faqat davlatning parlanishi va barbod bo'lishiga olib kelishi mumkin. Afg'oniston bo'yicha sulh rejasining eng muhim qismi esa mamlakatni qayta tiklashdan iborat bo'lishi kerak. Bu maqsadga erishish oson emas. Buyuk davlatlar bilan mintaqa davlatlarining birgalikdagi xarakatlari, Afg'oniston rahbarlarining siyosiy irodasi kerak.

Afg'oniston muammosini xalq etish orkali mintaqaga barqarorligi va iqtisodiy taraqqiyotiga erishish, mintaqa xalqlarining tinch va osuda xayotini ta'minlash O'zbekiston tashqi siyosatining ustuvor yunalishlaridan biridir. Shu boisdan ham Prezidentimiz ayni masala yechimi bilan shug'ullangan "6+2" muloqot guruxini "6+3" guruhiga aylantirish, uning tarkibidagi Afg'onistonga qo'shni bo'lgan davlatlar hamda AQSH va Rossiya safiga NATO tashkiloti vakillarini ham kiritish taklifini kiritdi. Bu bejizga emas. Chunki, ushbu mamlakatda yuzaga kelgan vaziyatni barqarorlashtirish, muammoni siyosiy, ya'ni diplomatik yo'llar bilan hal etish yagona to'g'ri va maqbul yo'ldir.

Markaziy Osiyodagilar Afg'onistonda urush davom etar ekan, mintaqaning barqarorligi xavf ostida bo'lishini juda yaxshi tushunadi. Bunday sharoitda hozir demokratiya va islohotlarning rivojlanishini sekinlashtirib qo'yimoqda, butun mintaqaning ijtimoiy-iqtisodiy imkoniyatlarini qisqartirmoqda. Islom Karimov xalqning "Qo'shning tinch – sen tinch" degan dono maqolini qayta-qayta takrorlaydi. Shuning uchun ham O'zbekiston ekstremizm, terrorizm, diniy mutaassiblik va fundamentalizmning har qanday ko'rinishini qat'iy qoralamoqda, mojaroni siyosiy vositalar bilan tinch hal qilishni, o'zaro kurashayotgan tomonlar o'rtasida

²⁰ Гафарли М.С., Касаев А.Ч. Ривожланишнинг ўзбек модели:тинчлик ва барқарорлик – таракқиёт асоси. –Т.: Ўзбекистон, 2001. – Б.88.

²¹ Гафарли М. С., Касаев А.Ч. Ривожланишнинг ўзбек модели:тинчлик ва барқарорлик – таракқиёт асоси.... – Б. 88.

muzokaralar olib borishni, suveren davlatlarning ichki ishlariga aralashmaslikni yoqlab chiqmoqda²².

“Bugungi kunda mintaqalar xavfsizligini ta`minlamay turib, umumiy xalqaro xavfsizlikka erishib bo`lmisligi hammaga ravshan” degan fikrni o`rtaga tashladi.

O`zbekiston Respublika Prezident I.A.Karimov 2000 yil sentyabr` oyida bo`lib o`tgan BMT Bosh Assambleyasining “Ming yillik sammiti”da ham xalqaro terrorchilik va giyohvand moddalarning noqonuniy savdosiga qarshi kurashga, mintaqaviy xavfsizlikni mustahkamlashga, BMT faoliyati va uning tarkibiy tizimini isloh qilishga doir ko`plab takliflarni bildirdi²³. ”Bugungi kunda mintaqalar xavfsizligini ta`minlamay turib, umumiy xalqaro xavfsizlikka erishib bo`lmisligi hammaga ravshan” degan fikrni o`rtaga tashladi. Mana shu takliflarning amaliy natijasi sifatida 2001 yil 28 sentyabrda BMT xavfsizlik kengashi doirasida terrorchilikka qarshi kurash qo`mitasi tashkil etildi.

Afg`oniston tinchlikka erishmaguncha, butun mintaqqa bo`yicha xavfsizlikni va barqarorlikni ta`minlash to`g`risida gapirishga erta. Chunki bu mamlakat yaqin paytgacha nafaqat mintaqaviy, balki xalqaro xavfsizlikka tahdid soluvchi o`choqlardan biri edi²⁴. Shu davlat hududi xalqaro terrorizm va diniy ekstrimizmga bog`liq kuchlarning poligoniga, shu mamlakat giyohvand moddalarning butun jahon miqyosdagi manbaiga aylandi. Mintaqaviy xavfsizlikning nozik jihatlaridan biri shunda ediki, turli davlatlar goh pinhon, gohida esa ochiqdan ochiq Afg`onistonga o`z ta`sirini o`tkazgan holda butun Markaziy Osiyo mamlakatlariga mafkuraviy ta`sir o`tkazishga urinib keldilar.

Shunday qilib, O`zbekiston tarixan qisqa bir davrda jahon hamjamiyatiga qo`shildi, xalqaro va mintaqaviy muammolarni hal qilishda, umumiy va mintaqaviy xavfsizlikni mustahkamlashda faol qatnashayotgan nufuzli davlat darajasiga ko`tarildi.

1.2 . Mamlakat tashqi siyosatining huquqiy asoslari va tamoyillari

Suverenitet har bir davlat uchun mustaqil tashqi siyosat olib borishining asosiy shartidir. Tashqi siyosat, diplomatiya – yuksak talab, mahorat, zo`r aql-zakovat, kuchli iroda, yuqori malaka talab qiladigan davlat faoliyat turidir. Jahon hamjamiyatida faol ishtrok etish va O`zbekistonning milliy manfaatlariga mos keladigan ko`p tomonlama tashqi siyosat yuritish – davlat suverenitetini mustahkamlashning muhim shartidir.

O`zbekistonning tashqi siyosiy hamkorligi yangilanish va taraqqiyot yo`nalishlarining bir butunligini aks ettiradi. Dunyoning har qanday mamlakati bilan davlatlararo munosabatlarning mezonlari orasida bizning mustaqilligimizni tan olish va amalda tasdiqlash birinchi o`rinda turadi. Bizning o`z taraqqiyot yo`limizning xususiyatlarini boshqa davlatlar tomonidan tushinilishi muhim ahamiyatga egadir.

XXI asr bo`sag`asida O`zbekiston davlat mustaqilligini qo`lga kiritib jahon hamjamiyatiga kirish, integratsiyalashish tomon yuz tutdi. Mamlakatimizning jahon xalqlari tinchligi va xavfsizligiga mos bo`lib tushgan tinchliksevar tashqi siyosati, uni jahonda mustaqil davlat sifatida tezda tan olinishini ta`minladi. O`zbekiston Respublikasining davlat mustaqilligini dunyoda 165 davlat tan oldi, ularning 120 tasi bilan diplomatik, siyosiy, iqtisodiy, ilmiy-texnikaviy va madaniy aloqalar o`rnatildi. Toshkentda 35 mamlakatning elchixonasi ochildi. Bular jumlasiga AQSh, Germaniya, Frantsiya, Buyuk Britaniya, Xitoy, Hindiston, Pokiston va boshqalarni kiritish mumkin. Shuningdek, O`zbekiston 88 xorijiy mamlakatlar va xalqaro tashkilotlarning, 24 hukumatlararo va 13 ta nohukumat tashkilotlarning vakolotxonolari faoliyat

²² Гафарли М.С., Касаев А.Ч. Ривожланишнинг ўзбек модели:тинчлик ва барқарорлик – тараққиёт асоси...– Б.75.

²³ Каримов И.А. БМТ Бош Ассамблеясида сўзлаган нутқ, 2000 йил сентябрь // Ватан равнақи учун ҳарбиримиз масъулмиз. Т.3. – Т.: Ўзбекистон, -Б. 326.

²⁴ Каримов И.А. Шанхай Ҳамкорлиги Ташкилоти бошлиқларнинг саммитдаги нутқи, 2001 йил, июн. Ватан равнақи учун – ҳаммамиз жавобгар. Т-9. – Т.:Ўзбекистон, 2001. – Б. 375-386.

ko`rsatmoqda²⁵. Dunyodagi 20 dan davlatda – AQSh, Turkiya, Germaniya, Fransiya, Xitoy, Pokiston va boshqalarda O`zbekistonning elchixonalari ishlab turibdi.

Bu ko`rsatkichlar esa O`zbekistonning jahon davlatlari bilan yaxshi munosabatda ekanligi va o`zining ahamiyatli o`rniga egaligini ko`rsatib turibdi.

Yangi tashkil topgan mustaqil davlat uchun, o`z milliy manfaatlariga mos keladigan puxta tashqi siyosiy yo`lni belgilash, jahon hamjamiyatiga qo`shilish, xorijiy mamlakatlar bilan siyosiy, diplomatik, iqtisodiy, ilmiy-texnikaviy, madaniy aloqalar o`rnatish masalalari dolzarb vazifadir. Chunki, mustaqillikni mustahkamlash, mamlakat xavfsizligi, barqarorligi va taraqqiyoti ko`p jihatdan ana shu vazifalarning oqilona hal etishiga bog`liqdir. Albatta, bu amalga oshirish murakkab bo`lgan vazifa bo`lib, ko`p yillar davomida tashqi siyosat yuritish, tashqi dunyo bilan bog`lanish, davlatlar bilan tashqi savdoni tashkil etish kabi vazifalarni bajarilishini talab etadi.

Sho`ro tizimi davrida O`zbekistonga bevosita tegishli xalqaro munosabatlarga oid ishlar ham markaziy hokimiyat tomonidan amalga oshirilgan, o`zi esa tashqi olamdan ajratilgan edi. Buning natijasida esa O`zbekiston tashqi siyosat yuritish tajribasiga ham jahon diplomatiyasi va tashqi iqtisodiy faoliyatini biladigan kadrlariga ham ega emas edi. Kadrlarni tayyorlovchi o`quv yurti ham yo`q edi.

“Tashqi siyosat” tushunchasi davlatning xalqaro ishlarida tutgan umumiy yo`lni qamrab oladi. Tashqi siyosat davlatning boshqa davlatlar va xalqlar hamda xalqaro tashkilotlar bilan o`zaro munosabatlari sohasidagi faoliyatning maqsadlari va vazifalarini o`z ichiga oladi²⁶.

Diplomatiya tashqi siyosatning muhim vositasi hisoblanadi. Aynan tashqi siyosat diplomatiyaning maqsad va vazifasini belgilab beradi. Diplomatiya amaliy tadbirlar, shuningdek, tashqi siyosatni amalga oshirishda foydalaniladigan shakl, vosita va usullar majmuini ifodalaydi. Diplomatiya bilan bir qatorda, davlatning iqtisodiy, madaniy va boshqa muhim aloqalari ham uning tashqi siyosiy vositalari hisoblanadi.

Xalqaro huquq normalarining ichki qonunlardan ustunligi respublika qonunchilik faoliyatida o`z ifodasini topmoqda. Birinchidan, respublika qonunlari xalqaro huquq normalariga doimo muvofiqlashtirilmoqda va yaqinlashtirilmoqda. Ikkinchidan, mamlakatimiz xalqaro normalarning bajarilishini kafolatlaydigan hamda majburiyatlarni o`z zimmasiga oldi. O`zbekiston tashqi siyosatida ochiq-oydinlik, teng huquqlilik va o`zaro manfaatdorlik tarafdori.

O`zbekiston tashqi siyosatining bosh maqsadi davlat suverenitetini himoya qilish, ijtimoiy yo`naltirilgan bozor iqtisodiyotini qurish uchun xalqaro zamin yaratish, tinchlikni va siyosiy barqarorlikni ta`minlash, xalqaro va mintaqaviy xavfsizlikni ta`minlash maqsadida barcha davlatlar bilan teng huquqli hamkorlik qilishdan iborat.

Tashqi siyosiy faolnyatining me`yoriy-huquqiy bazasini shakllantirish, Osiyo mamlakatlari bilan hamkorlik qilish ishlari suveren O`zbekistonda tashqi siyosiy faoliyatga doir Qonunlar qabul qilish yo`li bilan amalga oshiriladigan bo`ldi. Bunday aloqalarning o`rnatilishida davlat rahbarlarining rasmiy tashriflari chog`ida tuziladigan shartnomalar, bitimlar, memorandumlarning, shuningdek, vazirliklar, mahkamalar, hukumatlararo komissiyalar, komissiya bo`ganlarining tashqi siyosiy faoliyat tamoyillarini, shartnoma va bitimlarni amalga oshirishga yo`naltirilgan institutsion aloqalar jarayonlarida qabul qilinadigan qarorlarning ham ahamiyati katta²⁷.

O`zbekiston Respublikasi o`z tashqi siyosatini yuritishda quyidagi asosiy omillardan kelib chiqadi:

Birinchidan, o`z milliy manfaatlari ustunligini inkor etmasdan, o`zaro manfaatlarni har tomonlama hisobga olish;

²⁵ Саидов А. Халқаро ҳуқуқ. –Т.: Адолат, 2001. – Б. 83.

²⁶ Саидов А., Таджиханов У., Одилқориёв Х. Давлат ва ҳуқуқ асослари. – Т.: Шарқ, 2002. – Б.163.

²⁷ Қирғизбоев А. Ўзбекистон Республикасининг Осиё мамлакатлари билан халқаро ҳамкорлиги. – Т.: Фан, 2004. – Б.29.

Ikkinchidan, inson va davlat o`rtasidagi o`zaro munosabatlarda umuminsoniy qadriyatlarga ustunlik berib, O`zbekiston xalqaro maydonda tinchlik va xavfsizlikni mustahkamlash, mojarolarni tinchlik yo`li bilan hal qilishni yoqlaydi; O`zbekiston yadro qurolidan xoli hudud hisoblanadi, agressiv xarbiy bloklar, ittifoqlarga qo`shilmaydi, inson huquqlari to`g`risidagi, hujum qilmaslik to`g`risidagi, nizoli masalalarni hal qilishda kuch ishlatmaslik va kuch bilan tahdid qilmaslik haqidagi xalqaro hujjatlarni e`tirof etadi va ularga qat`iy rioya qiladi;

Uchinchidan, O`zbekistonning tashqi siyosati teng huquqlilik va o`zaro manfaatdorlik printsiplari, boshqa davlatlarning ichki ishlariga aralashmaslik, mustaqillik va suverenitetni cheklash mumkin bo`lgan imkoniyatlarni bartaraf qiladigan printsiplar, davlatlararo munosabatlarni mafkuradan xoli qilish printsiplari asosida quriladi;

To`rtinchidan, O`zbekiston tashqi siyosatida ochiq mafkuraviy qarashlardan xolilik printsiplarini amalga oshirish, barcha tinchliksevar davlatlar bilan keng tashqi aloqalar o`rnatishga intiladi;

Beshinchidan, O`zbekiston davlatining ichki huquqi oldida xalqaro huquq normalarining ustunligini tan oladi, xalqaro-huquq standartlarga rioya qiladi;

Oltinchidan, O`zbekiston o`zaro ishonch printsipti bo`yicha ikki tomonlama va ko`p tomonlama tashqi aloqalarni o`rnatish va rivojlantirish, xalqaro tashkilotlar doirasida hamkorlikni rivojlantirishni yoqlaydi²⁸.

O`zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 17-moddasi O`zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi O`zbekiston tashqi siyosatining asosiy yo`nalishlari hamda strategik dasturlarini belgilaydi va tasdiqlaydi. Oliy Majlis, shuningdek, O`zbekiston Respublikasi nomidan tuzilgan xalqaro shartnomalar va bitimlarni ratifikatsiya yoki denonsatsiya qiladi. O`zbekiston Respublikasi Prezidenti, Konstitutsiyaga binoan, davlat suvereniteti, xavfsizligi va hududiy yaxlitligining kafolati hisoblanib, O`zbekiston Respublikasi nomidan gapiradi va qarorlar qabul qiladi.

– Shu maqsadda Prezident muzokaralar olib boradi va shartnoma hamda bitimlarni imzolaydi;

– Respublika tomonidan tuzilgan shartnomalar, bitimlar va ularning majburiyatlariga rioya etilishini ta`minlaydi;

– Akkreditatsiyadan o`tgan diplomatik va boshqa vakillarning ishonch va chaqiruv yorliqlarini qabul qiladi;

– O`zbekiston Respublikasining chet davlatlardagi diplomatik va boshqa vakillarini tayinlaydi hamda lavozimlaridan ozod qiladi;

– Oliy Majlisga har yili xalqaro ahvol xususida ma`lumotnoma taqdim etadi.

O`zbekiston tashqi siyosatining hozirgi zamon talablari darajasida kamol topa borishida O`zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1992 yili 25 may kuni «O`zbekiston Respublikasi Tashqi ishlar vazirligi faoliyatini tashkil etish masalalari to`g`risida» qarori va boshqa xujjatlar alohida ahamiyat kasb etdi. Ushbu hujjatda quyidagilarga alohida e`tibor berilgan edi: O`zbekiston mustaqillikka erishgandan keyin uning rahbariyati oldida hal etish zarur bo`lgan o`ta murakkab vazifalar turgan edi. Uning Markaziy Osiyoning o`rtasida joylashganligi unga bir qator muammolarini keltirib chiqaradi. O`zbekiston o`zining geosiyosiy joylashishi bo`yicha dunyodagi dengizga chiqish imkoniyati bo`lmagan 30 ta davlatdan biri hisoblanadi²⁹. Undagi davlat chegaralarining umumiy uzunligi 6221 kilometrni tashkil etadi, shundan: Qozog`iston bilan-2003 kilometr, Qirg`iziston bilan-1099 kilometr, Tojikiston bilan-1161, Turkmaniston bilan-1621 kilometr va Afg`oniston bilan-137 kilometrni tashkil etadi³⁰.

²⁸ Саидов А., Таджиханов У., Одилқориев Х. Давлат ва ҳуқуқ асослари. – Т.: Шарқ, 2002. – Б.164.

²⁹ Аҳмедов Э., Сайдаминов З. Ўзбекистон Республикаси: қисқача маълумотнома. – Т.: Ўзбекистон, 1998. – Б. 116.

³⁰ Ўзбекистон Республикаси. Энциклопедия. – Т.: Комуслар Бош таҳририяти, 1997. – Б. 656.

O`zbekiston Respublikasi o`z tashqi siyosatini Tashqi ishlar vazirligi va uning horijdagi vakolatxonalari orqali amalga oshiradi. Tashqi iqtisodiy aloqalar vazirligi, mamlakatdagi ayrim xalqaro tashkilotlar, kengashlar va jamiyatlar O`zbekiston tashqi siyosatini amalga oshirishga ko`maklashadi. O`zbekiston Respublikasi Tashqi ishlar vazirligi o`z faoliyatida O`zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, qonunlari, Prezident farmonlari, Vazirlar Mahkamasi qarorlari va o`z Nizomiga asoslanadi.

O`zbekiston Respublikasi Tashqi ishlar vazirligining asosiy vazifasi O`zbekiston Respublikasi suverenitetining mustahkamligini ta`minlash, mamlakat Prezidentining tashqi siyosat sohasidagi yo`lini hayotga tadbiiq etish, horijiy davlatlar bilan munosabatda, shuningdek, xalqaro va mintaqaviy tashkilotlarda O`zbekistonning manfaatlari va uning fuqarolari huquqlarini himoya qilishdan iborat. Bundan tashqari, O`zbekiston Respublikasi tashqi ishlar vazirligi O`zbekiston Respublikasi Prezidentining topshiriqlariga binoan tashqi siyosiy faoliyatga aloqador qonun loyihalarini tayyorlaydi. Respublikada diplomatik va konsullik muassasalarini rivojlantirish respublika jamg`armasi tashkil etilgan. Tashqi ishlar vazirligi huzurida “Jahon” axborot agentligi ta`sis etilgan, u tashqi siyosat va xalqaro munosabatlarga oid yangiliklarni tarqatadi.

O`zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi tomonidan 1996 yil 26 dekabrda “O`zbekiston Respublikasi tashqi siyosiy faoliyatining asosiy printsiplari to`g`risida” gi Qonuni qabul qilindi (7 moddadan iborat).

Mazkur Qonunda O`zbekiston Respublikasi tashqi siyosiy faoliyatining quyidagi asosiy tamoyillari belgilab berilgan:

- ittifoqlar tuzish, hamdo`stliklarga va boshqa davlatlararo tashkilotlarga kirish, shuningdek, davlatning oliy manfaatlari, xalq manfaatlaridan kelib chiqib, farovonlik va xavfsizlikni ko`zlab ulardan chiqish;

- barcha davlatlar bilan ichki ishlarga aralashishga, mustaqillikka va suverenitetga rahna solishga va davlatlararo munosabatlarni yomonlashtirishga mutlaqo yo`l qo`ymaydigan teng huquqli va o`zaro foydali munosabatlar o`rnatish;

- Birlashgan Millatlar Tashkiloti, Yevropada xavfsizlik va ham-korlik tashkiloti va boshqa xalqaro tashkilotlarning ishida faol ishtirok etish, xavfsizlikning Yevropa, Osiyo va Jaqon tuzilmalariga integratsiyalashuv;

- xalqaro tashkilotlarga, jumladan, mamlakatning barqarorligini, izchil taraqqiyotini va milliy xavfsizligini ta`minlovchi iqtisodiy tashkilotlarga katta ahamiyat berish, O`zbekiston Respublikasining dunyoviy aloqalar xo`jaligiga informatsion, texnologik va kommunikatsiyalar jihatidan kirib borishiga ko`maklashish;

- harbiy-siyosiy bloklarda qatnashmaslik;

- mintaqadagi va undan tashqaridagi mojarolarning oldini olish va ularni hal etish maqsadlarida hukumatlararo va nohukumat tashkilotlarining faoliyatida faol ishtirok etish³¹.

Ushbu qonunning 1-moddasida: “O`zbekiston Respublikasining tashqi siyosati va xalqaro faoliyati O`zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining normalari va printsiplariga, “O`zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalari to`g`risida”gi qonuniga, “Mudofaa to`g`risida”gi O`zbekiston Respublikasining qonuniga, O`zbekiston Respublikasining Harbiy doktrinasiga, boshqa qonunlarga, Birlashgan Millatlar Tashkilotining hamda Yevropada Xavfsizlik va Hamkorlik Tashkilotining printsiplari va maqsadlariga, shuningdek, O`zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi tomonidan ratifikatsiya qilingan O`zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalari va bitimlaridan kelib chiqadigan majburiyatlarga asoslanadi”³²,deyilgan.

³¹ “Ўзбекистон Республикаси ташқи сиёсий фаолиятининг асосий тамойиллари” тўғрисидаги Қонун. – Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлисининг Ахборотномаси, 1997 й., 2-сон, 35-модда Т.

³² Саидов А., Таджиханов У., Одилқориев Х. Давлат ва ҳуқуқ асослари. – Т.: Шарк, 2002. – Б.163.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga muvofiq O'zbekiston Respublikasi davlatning, xalqning oliy manfaatlari, farovonligi va xavfsizligini ta'minlash maqsadida ittifoqlar tuzishi, hamdo'stliklarga va boshqa davlatlararo tuzilmalarga kirishi va ulardan ajralib chiqishi mumkin.

O'zbekiston Respublikasi ichki ishlarga aralashish, mustaqillikni va suverenitetni kamsitish hamda davlatlararo munosabatlarni mafkuralashtirishning har qanday ehtimolini istisno etuvchi teng huquqli va o'zaro foydali munosabatlarni barcha davlatlar bilan yo'lga qo'yadi.

Birlashgan Millatlar Tashkiloti, Yevropada Xavfsizlik va Hamkorlik Tashkiloti hamda boshqa xalqaro tashkilotlar ishida faol ishtirok etish, Yevropa, Osiyo va jahon xavfsizlik tuzilmalariga integratsiyalashuv O'zbekiston Respublikasi tegishli tuzilmalarining tashqi siyosiy faoliyatidagi eng muhim vazifadir.

O'zbekiston Respublikasi mamlakatning barqarorligini, sobitqadam rivojlanishi va milliy xavfsizligini ta'minlash imkonini beradigan, O'zbekiston Respublikasining jahon xo'jalik aloqalariga axborot, texnologiya va kommunikatsiya jihatidan kirib borishiga ko'maklashadigan davlatlararo tuzilmalarga, shu jumladan iqtisodiy tuzilmalarga ustuvor ahamiyat beradi.

7-modda: O'zbekiston Respublikasi "O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalari to'g'risida"gi Qonunga va O'zbekiston Respublikasining Harbiy doktrinasiga muvofiq harbiy-siyosiy bloklarda ishtirok etmaydi³³.

Konstitutsiya asosida O'zbekiston Respublikasini xalqaro munosabatlarning teng huquqli sub'ekti sifatida belgilovchi huquqiy asos yaratilgan. Quyidagilar tashqi siyosat sohasida eng ahamiyatli hisoblanadi:

1991 yil 14 iyunda O'zbekiston Respublikasining "Tashqi iqtisodiy faoliyat to'g'risida"gi qonuni qabul qilingan edi. Mazkur qonun 2000 yil 26 mayda o'zgartirish va qo'shimchalar bilan yangi tahrirda qabul qilindi (31 moddadan iborat).

1991 yil 14 iyunda Respublikaning "Chet el investitsiyalari to'g'risida"gi qonuni qabul qilingan edi. 1998 yil 25 dekabrda ushbu qonun o'zgartirish va qo'shimchalar bilan yangi tahrirda qabul qilindi.

1991 yil 7 sentyabrda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasi Tashqi iqtisodiy aloqalar Milliy bankini tashkil etish to'g'risida" Farmoni chiqqan.

1992 yil 3 iyulda O'zbekiston Respublikasining "Mudofaa to'g'risida"gi qonuni qabul qilindi.

1992 yilda "Xalqaro shartnomalar to'g'risidagi" Qonun qabul qilindi.

1994 yil 5 mayda "Chet ellik investorlar huquqlarining kafolatlari va ularni himoya qilish choralari to'g'risida"gi qonun qabul qilingan edi, 1998 yil 30 aprelda mazkur qonun yangi tahrirda qabul qilindi.

1995 yil 30 avgustda Harbiy doktrina qabul qilindi.

1995 yil 22 dekabrda O'zbekiston Respublikasining "Xalqaro shartnomalar to'g'risida"gi qonuni qabul qilindi.

1996 yil O'zbekiston Respublikasini tashqi siyosatining asosiy tamoyillari to'g'risida qonun qabul qilindi.

1996 yil 29 avgustda O'zbekiston Respublikasining "Konsullik ustavini tasdiqlash to'g'risida"gi qonun qabul qilindi va bu qonun 1998 yil dekabrda qo'shimcha va o'zgartirishlar bilan yangi tahrirda qabul qilindi.

O'zbekiston Respublikasi tashqi siyosatining asosiy tamoyillari va yo'nalishlari "O'zbekiston Respublikasi tashqi siyosiy faoliyatining asosiy printsiplari to'g'risida"gi Qonuni

³³ Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлисининг Ахборотномаси. 1997. –№ 2. 35-модда.

hamda Respublika Konstitutsiyasining 17-moddasida mamlakatimiz tashqi siyosat qoidalari qonuniylashtirildi va u jahondagi ko'plab mamlakatlar bilan hamkorlik jarayonlari ortga qaytmasligining huquqiy kafolati bo'lib xizmat qilmoqda. O'zbekiston Respublika Konstitutsiyasining 17- moddasi: "O'zbekiston respublikasi xalqaro munosabatlarning to'la huquqli sub'ektidir. Uning tashqi siyosati davlatlarning suveren tengligi, kuch ishlatmaslik yoki kuch bilan tahdid qilmaslik, chegaralarning daxlsizligi, nizolarni tinch yo'l bilan hal etish, boshqa davlatlarning ichki ishlariga aralashmaslik qoidalarga va xalqaro huquqning umum e'tirof etilgan boshqa qoidalari va normalariga asoslanadi.

Respublika davlatning, xalqning oliy manfaatlari, farovonligi va xavfsizligini ta'minlash maqsadida ittifoqlar tuzishi, hamdo'stliklarga va boshqa davlatlararo tuzilmalarga kirishi va ulardan ajralib chiqishi mumkin³⁴.

Bu quyidagi tamoyillarda o'z aksini topadi:

Birinchidan, o'zaro manfaatlarni har tomonlama hisobga olgan holda davlat milliy manfaatlarining ustunligi;

Ikkinchidan, teng huquqlilik va o'zaro manfaatdorlik, boshqa davlatlarning ichki ishlariga aralashmaslik;

Uchinchidan, mafkuraviy qarashlardan qat'iy nazar hamkorlik uchun ochiqlik, umuminsoniy qadriyatlarga, tinchlik va xavfsizlikni saqlashga sodiqlik;

To'rtinchidan, xalqaro huquq normalarining davlat ichki normalaridan ustuvorligi;

Beshinchidan, tashqi aloqalarni ham ikki tomonlama, ham ko'p tomonlama kelishuvlar asosida rivojlantirish.

O'zbekistonning tashqi siyosat borasidagi strategiyasi, avvalo, mamlakatning dunyo hamjamiyatiga integratsiyalashuvini ta'minlashga yo'naltirilishi kerak. Prezident I.A.Karimov mana shu strategiyani amaliy faoliyatga aylantirish uchun quyidagi ustuvor tamoyil va chora-tadbirlarni taklif etadi:

– xavfsizlik bo'yicha kollektiv bitimlar tuzish, Markaziy Osiyoda yadroviy quroldan xoli hududni yaratishni ko'zda tutadigan munosabatlar tizimini barpo etish;

– MDH mamlakatlari o'rtasidagi ular mustaqillikka erishgan kungacha bo'lgan chegaralarni mutlaqo o'zgarmasligini e'tirof etish;

– Markaziy Osiyoda etnik ziddiyatlar, Tojikiston va Afg'onistondagi mojarolarni tinch yo'l bilan hal etish;

– ashaddiy aqidaparastlik oqimlarining kuchayishi natijasida yuzaga kelishi ehtimoli bo'lgan to'qnashuvlarning oldini olish maqsadida musulmon dunyosi bilan muloqot o'rnatish, turli tsivilizatsiyalar o'rtasidagi bahslarni boshqarish ishida hamkorlikni yo'lga qo'yish;

– Rossiya bilan o'zaro teng hamkorlik va manfaatdorlikka asoslangan keng qamrovli strategik muloqotni mustahkamlash;

– Markaziy Osiyo davlatlari o'rtasida ekologik muammolarni hal etish borasidagi hamkorlikni mustahkamlash;

– xorijiy sarmoyalarni qo'llab-quvvatlash va himoya etish borasidagi chora-tadbirlar majmuini ishlab chiqish va qabul qilish.

Prezident I.A.Karimov "Bizning bosh maqsadimiz – jamiyatni demokratlashtirish va yangilash, mamlakatni modernizatsiya va isloh etishdir" nomli asarida: "Davlatimiz tashqi siyosatining mahno-mazmuni va maqsadi bitta – u ham bo'lsa, O'zbekiston manfaati va yana bir bor O'zbekiston manfaatidir", - deb takidlagan va O'zbekiston tashqi siyosatining ustuvor yo'nalishlarini quyidagicha belgilab bergan:

– Markaziy Osiyoda tinchlik va barqarorlikni saqlash;

– "Qo'shning tinch – sen tinch" degan hayotiy naqlga amal qilish;

³⁴ O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. – T.:O'zbekiston, 2008. – B.6.

– O`zbekiston tashqi siyosat sohasidagi vazifalarni hal etishda BMT doirasidagi hamkorlikni rivojlantirishga alohida ehtibor qaratish;

– YEXHT, Yevropa Ittifoqi va NATO kabi muhim tuzilmalar bilan mintaqada xavfsizlik va barqarorlikni ta`minlash borasida hamkorlikni mustahkamlash;

– Jahondagi yirik, xalqaro maydonda etakchi o`rin tutgan davlatlar bilan hamkorlik munosabatlarini rivojlantirish va mustahkamlashga alohida e`tibor berish.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, O`zbekiston Respublikasi tashqi siyosatining asosiy maqsadi davlat suverenitetini himoya qilish, ijtimoiy yo`nalgan bozor iqtisodiyotini qaror toptirish uchun xalqaro sharoitlarni yaratish, tinchlik, xalqaro va mintaqaviy xavfsizlikni tahminlash uchun barcha davlatlar bilan teng huquqli hamkorlikni yo`lga qo`yishdan iborat. Bundan tashqari, Respublika tashqi siyosatining vazifasi – ichki iqtisodiy islohotlar jarayoniga ijobiy ta`sir ko`rsatishi zarur.

II BOB. O`ZBEKISTON TINCHLIKSEVAR TASHQI SIYOSATI YO`LIDAGI HAMKORLIGI

2.1 O`zbekistonning xalqaro tashkilotlar bilan hamkorligining asosiy yo`nalishlari

O`zbekiston mustaqil davlat maqomiga ega bo`lishi bilanoq xalqaro hamjamiyat bilan teng huquqli, suveren hamkorlik qilish yo`lini tutdi. Bu borada hamkorlikning xalqaro e`tirof etilgan konstitutsiyaviy hamda huquqiy asoslari shakllantirildi. Bugun O`zbekiston jahon hamjamiyatida o`z o`rni va so`ziga ega bo`lgan davlatga aylandi. O`zbekiston jahonning qator mamlakatlari va xalqaro tashkilotlari bilan turli sohalarida hamkorlik qilmoqda, ko`plab yirik tashkilotlarning teng huquqli a`zosi.

O`zbekiston Respublikasi poytaxti Toshkent bugungi kunda xalqaro nufuzli tashkilotlar ishtirokidagi xavfsizlik, barqarorlik, tinchlik va hamkorlik masalalari bo`yicha muhim xalqaro anjumanlar markaziga aylandi. Ayniqsa, xalqaro tashkilotlar – YEXHT, Iqtisodiy hamkorlik tashkiloti (EKO) bilan teng huquqli a`zo sifatida, Yevropa Ittifoqi, NATO bilan “Tinchlik yo`lida hamkorlik” dasturi doirasidagi aloqalari rivojlandi.

Hozirgi zamon xalqaro aloqalarida xalqaro tashkilotlar davlatlar hamkorligining shakllaridan biri sifatida muhim rol o`ynaydi. Xalqaro tashkilotlar tiziminining murakkablashib borishi va vakolatlarining kengayirishi tabiiy tus olmoqda. XXI asr boshida faoliyat ko`rsatayotgan xalqaro tashkilotlarning soni 4 mingdan ortiq bo`lib, 300 tasi hukumatlararo tashkilotlardir.

“Xalqaro tashkilotlar” atamasi odatda davlatlararo (hukumatlararo) va nohukumat tashkilotlarga nisbatan qo`llaniladi. Davlatlararo (hukumatlararo) tashkilot uchun quyidagi belgilar xarakterlidir:

Birinchidan, davlatlarning a`zoligi;

Ikkinchidan, xalqaro ta`sis shartnomasining mavjudligi;

Uchinchidan, doimiy organlarning mavjud bo`lishi;

To`rtinchidan, davlatlar suverenitetining hurmat qilinishi.

Xalqaro tashkilotlar xalqaro huquqning sub`ektlari hisoblanadilar³⁵.

O`zbekistonning tashqi siyosiy yo`li barcha xalqaro tashkilotlar bilan har tomonlama hamkorlik qilishga yo`naltirilgan. O`zbekiston Respublikasi bugungi kunda 40 dan ortiq xalqaro tashkilotlar bilan aloqa o`rnatgan³⁶.

³⁵ Саидов А. Халқаро ҳуқуқ. – Т.: Адолат, 2001. – Б. 164.

O`zbekiston Respublikasining xalqaro tashkilotlar bilan hamkorligi keng quloch yozib borayotganligiga uning xalqaro maydonda obro`si oshayotganligidan dalolat beradi. Bunday xayrli holatning vujudga kelishida asosiy omillar O`zbekistonning o`z hududida huquqiy-demokratik davlat va fuqarolik jamiyati qurishga jiddiy kirishganligi, bozor iqtisodiga o`tishda sezilarli natijalarni qo`lga kiritganligi, mamlakatda millatlararo totuvlikni va barqarorlikni ta`minlaganligidir³⁷.

O`zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimov yozganidek, – “O`zbekiston Konstitutsiyasida mamlakatimiz xalqaro munosabatlarning mustaqil sub`yekti tarzida tashqi siyosatani o`z manfaatlarini ko`zlab belgilashi, xalqaro tashkilotlarga, yalpi xavfsizlik tizimlariga, davlatlararo tuzilmalarga kirish huquqiga ega ekanligi mustahkamlab qo`yilgan. Bu respublikamiz haqiqiy suverenitetini huquqiy jihatdan ta`minlash yo`lidaga muhim qadamlardan biri bo`lganligi tasodifiy hol emas”³⁸.

Mustaqillik davridagi tashqi siyosatimizda YEXHT ning boy tajribasi, imkoniyatlaridan foydalanishga ham alohida ahamiyat berildi. Xalqaro tashkilotlar orasida birinchilardan bo`lib YEXHT xavfsizlik uchun hamkorlik kontsepsiyasini ham strategik siyosat darajasiga ko`tardi. O`zbekiston YEXHT ning 1975 yilgi Xelsinki yakunlovchi akti, shuningdek, ya`ni Yevropaning Parij Hartiyasi va boshqa muhim xalqaro hujjatlarga qo`shilgan. O`zbekiston bilan YEXHT o`rtasidagi hamkorlik samarali ravnaq topmoqda.

O`zbekiston EXHT ning asosiy tamoyillaridan biri bo`lgan xavfsizlik yaxlitligini to`la qo`llab-quvvatlamogda. O`zbekiston Prezidenti I.A. Karimov YEXHTning Xel`sinki (1992 yil), Budapesht (1994 yil), Lissabon (1996 yil), Istanbul (1999 yil) sammitlarida qatnashdi va o`z nutqlarida taklif va tashabbuslarni ilgari surdi. Bularga Markaziy Osiyoda tinchlik va barqarorlikni saqlash, mojarolarni bartaraf etish, narkotrafik va qurol-yarog` kontrabandasiga qarshi kurashda YEXHT ning ishtrokini kengaytirish, xalqaro terrorizmga qarshi kurash markazini tashkil etish masalalari kiradi³⁹.

1992 yilning fyevralida bo`lib o`tgan a`zolik to`g`risidagi hujjatni imzolash marosimida O`zbekiston Prezidenti alohida ta`kidlab o`tganidek, Yevropa bilan teng huquqiy aloqalar o`rnatilishi O`zbekiston va uning mustaqilligi uchun muhim hayotiy ahamiyat kasb etadi. O`zbekiston YEXHT ning asosiy tamoyillaridan biri bo`lgan xavfsizlik yaxlitligini to`la qo`llab-quvvatlamogda.

1994 yilning dekabrda Prezident I.A. Karimov YEXHT ning Budapeshtda bo`lib o`tgan forumida ishtirok etib, Yevroosiyo mintaqasida xavfsizlikni mustahkamlashga doir yangi takliflari bilan chiqdi. Ya`ni, turli siyosiy tuzumlarga ega mamlakatlarning gullab-yashnashi uchun yagona yo`l tinchlik va barqarorlikni saqlash, xalqaro hamkorlikni kengaytirishdangina iborat ekanligiga e`tibor qaratdi.

«Biz Markaziy Osiyo mintaqasining jug`rofiy-strategik holatini, uning salohiyatini, ulkan xom ashyo va insoniy resurslarini, shuningdek tez rivojlanayotgan bu mintaqada sodir bo`layotgan xavfsizlik uchun xavf-xatarlarni hisobga olgan holda YEXHT bu yerda o`z faoliyatini yanada kuchaytirishi tarafdorimiz»,⁴⁰ – dedi O`zbekiston Prezidenti I.A.Karimov YEXHTga a`zo davlatlar boshliqlarining 1996 yil dekabrda Lissabonda bo`lgan uchrashuvida so`zlagan nutqida. 1999 yil 29 sentyabrda O`zbekiston Prezidenti I.A. Karimov mamlakatimizga tashrif buyurgan YEXHT ning amaldagi raisi, Norvegiya tashqi ishlar vaziri Knut Vollebek

³⁶ Қирғизбоев А. Ўзбекистон Республикасининг Осиё мамлакатлари билан халқаро ҳамкорлиги. – Т.: Фан, 2004. – Б.68.

³⁷ Қирғизбоев А. Ўзбекистон Республикасининг Осиё мамлакатлари билан халқаро ҳамкорлиги. ... – Б. 68.

³⁸ Каримов И.А. Ватан саждагоҳ каби мукаддасдир. Т. 3. – Т.; 1996. – Б. 248.

³⁹ Абдуллаев О. Ўзбекистон – Европада Хавфсизлик ва Ҳамкорлик Ташкилоти. // Илм сарчашмалари. – Урганч, 2004. – №1. – Б..36.

⁴⁰ Каримов И. А. Европада хавфсизлик ва ҳамкорлик ташкилотига аъзо давлатлар бoshлиқлари учрашувида сўзланган нутқ // Янгича фикрлаш ва ишлаш - давр талаби. 5-жилд – Тошкент: Ўзбекистон., 1997. – Б. 291.

rahbaridagi delegatsiya a`zolarini qabul qildi. Qabul marosimida O`zbekistonning ushbu nufuzli tashkilot bilan aloqalarni yanada kengaytirishi to`g`risida fikr bildirildi.

1999 yil 25 oktyabrda O`zbekiston Prezidenti I.A. Karimov YEXHT ning ko`p sonli millatlar ishi bo`yicha oliy komissari Maks Van Der Stul bilan uchrashdi. Uchrashuvda O`zbekistonning YEXHT bilan aloqalarini yanada rivojlantirish bilan bog`liq masalalar yuzasidan fikr almashildi. O`zbekiston Prezidenti I.A. Karimov 1999 yil 18–19 noyabrda Istanbulda bo`lib o`tgan YEXHT ning sammitida dunyo hamjamiyatining e`tiborini yana bir bor Markaziy Osiyo xavfsizligi va barqarorligiga tahdid solayotgan aqidaparastlik, ekstremizm, terrorizm va giyohvandlik moddalarini noqonuniy aylanishi kabi masalalarga qaratdi hamda xalqaro terrorizmga qarshi kurashish markazini tuzish taklifi bilan chiqdi⁴¹.

Prezident I.A. Karimov tomonidan bildirilgan fikr mulohazalar va taklif sammit ishtirokchilari tomonidan to`la qo`llab-quvvatlandi hamda Istanbul uchrashuvi deklaratsiyasida alohida ta`kidlandi. Jumladan, unda shunday deyiladi: «Biz Markaziy Osiyodagi qatnashchi davlatlar tomonidan xalqaro terrorizmga, tajovuzkor ekstremizmga, uyushgan jinoyatchilik hamda giyohvandlik moddalari va qurol-yarog`larning noqonuniy muomalasiga doir bildirilgan tashvishlarga sherikmiz. Biz bu xurujlarga, shu jumladan, ishtirok etuvchi davlatlarga qo`shni bo`lgan hududlardan chiqayotgan hurujlarga qarshi turish uchun milliy va mintaqaviy darajalarda chora-tadbirlar ko`rish, shuningdek, butun xalqaro hamjamiyatning birgalikda sa`i-harakatlari zarurligiga qo`shilamiz. Biz mintaqaviy hamkorlikni mustahkamlash Markaziy Osiyoda barqarorlik va xavfsizlikka ko`maklashishiga aminmiz»⁴².

2000 yil oktyabrda YEXHT ning Toshkentda bo`lib o`tgan «Markaziy Osiyoda xavfsizlik va barqarorlikni mustahkamlash: narkotik moddalar, uyushgan jinoyatchilik va terrorizmga qarshi kurashda integratsiyalashgan yondashuv» mavzuidagi anjumanda Prezident I.A. Karimov tomonidan 1999 yil tashkilotning Istanbul Sammitidagi “BMT tarkibida terrorizmga qarshi kurash bo`yicha xalqaro markaz tashkil etish” taklifi yana mustahkamlandi.

Hozirgi kunda Yevropada Xavfsizlik va Hamkorlik tashkiloti xalqaro mintaqaviy tashkilotdir. Bu tashkilot tarkibiga jug`rofiy jixatdan Vankuverdan Vladivostokkacha bo`lgan hududda joylashgan 55 mamlakat a`zo bo`lgan xavfsizlik masalalari bilan shug`ullanuvchi umumyevropa tashkilotidir⁴³.

Yevropada Xavfsizlik va Hamkorlik tashkiloti tinchlik va xavfsizlik masalalariga har tomonlama yondashadi. Uning organlari va institutlari hamkorlik asosida tinchlikni mustahkamlash, qurollanish ustidan nazorat olib borish, preventiv diplomatiya, ishonch va tinchlikni mustahkamlash, inson huquqlari, saylovlarda kuzatuvchilikni amalga oshirish, iqtisodiy va ekologik xavfsizlik kabi keng masalalar doirasida faoliyat ko`rsatadi.

O`zbekistonning boshqa mamlakatlar bilan hamkorligida, u 1992 yil 30 yanvarda a`zo bo`lib kirgan Yevropada Xavfsizlik va Hamkorlik tashkiloti (YEXHT) muhim ahamiyat kasb etadi⁴⁴. Yevropada Xavfsizlik va hamkorlik tashkiloti aslida Yevropa davlatlarining tashkilotidir. Ammo, O`zbekiston u bilan hamkorlik qilgan ekan, Markaziy Osiyo mintaqasidagi xavfsizlikni ta`minlash, davlatlarning sa`y-harakatlari, kuch va imkoniyatlarini terrorizm, aqidaparastlik, diniy ekstremizmga qarshn kurashtsa birlashtirishga boshliq muammolarni ko`tarish va hal qilishga asosiy e`tiborini qaratdi.

⁴¹ Каримов И. А. Европада хавфсизлик ва ҳамкорлик ташкilotининг Истамбул саммитида сўзланган нутқ.// Озод ва обод Ватан, эркин ва фаровон ҳаёт – пировард мақсадимиз, 8-жилд . – Тошкент: Ўзбекистон, 1999. – Б. 85

⁴² ЕХХТ нинг инсонийлик мезонлари бўйича ҳужжатлари. Иккинчи нашри. Маъсул муҳаррир, ю.ф.д. А. Саидов, – Тошкент, 2005. – Б. 159.

⁴³ Саидов А. Халқаро ҳуқуқ. – Т.: Адолат, 2001. – Б. 181.

⁴⁴ Халқ сўзи. 1999 йил 18 ноябрь.

O'zbekistonning Yevropada xavfsizlik va hamkorlik tashkiloti bilan hamkorligi jarayonida mazkur tashkilotning Istanbul shahrida 1999-yil noyabrda bo'lib o'tgan sammiti nihoyatda katta ahamiyat kasb etadi. Mazkur sammit ishida Tashkilotga a'zo bo'lgan 54 davlatning rahbarlari, jumladan, bizning mamlakatimizdan respublikamiz prezidenti I.A.Karimov rahbarligidagi delegatsiya ham ishtirok etdi.

O'zbekistonning Yevropada xavfsizlik va hamkorlik tashkiloti bilan hamkorlig'i zamonamizning bir qator dolzarb masalalarini o'z ichiga qamrab oladi. Bu haqida Prezident I.A.Karimov ham o'z nutqida alohida to'xtalib o'tdi. Bu muammolar sirasiga quyidagilarni kiritish mumkin:

- tajovuzkor millatchshshk va separatizm, diniy ekstremizm va xalqaro terrorizmga qarshi kurash;

- xalqaro xavfsizlik va barqarorlikni ta'minlash;

- Afg'onistondagi mojaralarni bartaraf etish. Bu yerda urush davom etar ekan, Markaziy Osiyodagi qo'shni mampakatlarning tinchligiga va xavfsizligiga taxdid, demokratik o'zgarishlar va islohotlarning amalga oshirilishiga taxdid va xavf-xatar saklanib qolishini inobatta olish lozim;

- Mintaqaviy xavfsizlik, jumladan, Markaziy Osiyo mintaqasidagi xavfsizlikni ta'minlashda YEXHTning rolini oshirish;

- Markaziy Osiyo mamlakatlari, YEXHTning institutlari va tarkibiy qismlari o'rtasidagi integratsiyani YEXHT tomonidan qabul kdlingan umumiy xavfsizlikni ta'minlash kontsepsiyasining rivojlanishi nuqtai nazaridan amalga oshirish;

- Mintaqadagi boy tabiiy resurslardan foydalanish. Birinchi o'rinda energetika, suvdan foydalanish, transport kommunikatsiyalari, gaz va neft' tarmoqlarini qurish sohasqdaga hamda ekologik muammolarni hal etish borasidagi aniq loyihalarni YEXHT shafeligi ostida ishlab chiqish va amalga oshirish.

Prezident I.A.Karimov I.A.Karimov o'z nutqida terrorizmga qarshi kurashuvchn xalqaro markaz tashkil qilish maqsadga muvofiq ekanligi va mazkur markazning asosiy vazifasi terrorizmning ko'rinishlariga qarshi kurashishgina emas, ayni paytda, xalqaro terrorizmni moliyaviy ta'minlaydigan, qo'llab-quvvatlaydigan, uni boshqaradigan manbalarga qarshi kurashishdaya iborat bo'lmog'i kerakligini ta'kidladi. O'zbekiston Prezidentining ushbu taklifi 2001 yilning 11 sentyabrda N'yu-York shahrida yuz bergan terroristik hurujdan so'ng yanada dolzarblik kasb etadi.

2003 yil YEXHT ning Toshkentdagi vakolatxonasi tomonidan engil va o'qotar qurollar bo'yicha hamda Afg'oniston bojxona xizmati xodimlari ishtirokida Xayraton-Termiz nazorat o'tish punkti chegara va bojxona xizmat vakillari uchun o'quv seminarlari va boshqa qator tadbirlar o'tkazildi⁴⁵.

2003 yil 21 noyabrda YEXHT ning amaldagi raisining Markaziy Osiyo bo'yicha shaxsiy vakili Marti Axtisaari O'zbekistonda bo'lib, Prezident I.A. Karimov bilan uchrashdi. Uchrashuvda O'zbekiston – YEXHT hamkorligini yanada rivojlantirish masalalari hamda tomonlarni qiziqtirgan dolzarb xalqaro va mintaqaviy muammolar yuzasidan fikr almashildi.

O'zbekiston YEXHT doirasida unga a'zo bo'lgan mamlakatlar bilan tinchlik, barqarorlik va xavfsizlikni mustahkamlash maqsadida amaliy hamkorlikni rivojlantirmokda. Terrorchilik, ekstremizm, narkotik moddalar va qurol-yarog' kontrabandasi bilan shug'ullanuvchi uyushgan jinoyatchilik kabi illatlar tahdidiga qarshi birgalikda kurashmoqda.

O'zbekiston bilan YEXHT hamkorligi ekologiya, narkotik moddalar va qurol-yarog' kontrabandasi, xalqaro terrorizmga qarshi kurash va boshqa ko'plab sohalarni qamrab olgan.

YEXHT Markaziy Osiyodagi barcha mamlakatlar bilan hamkorlik aloqalarini o'ratgan. Bu haqda 1999 yil 19 noyabrdagi oliy darajadagi Istanbul uchrashuvi deklaratsiyasida alohida

⁴⁵ Халқ сўзи. 2004 йил 6 апрель.

ta'kidlanib, "Keyingi yillarda Markaziy Osiyodagi beshta ishtirok etuvchi davlat bilan hamkorligimiz sezilarli darajada kuchaydi. Markaziy Osiyo davlatlari vakillarining YEXHTga hamda YEXHT vakillarining Markaziy Osiyoga tobora ko'proq yuksak darajadagi tashriflari siyosiy muloqotning rivojlanishiga xizmat qiladi. Markaziy Osiyodagi sheriklarimizning doimiy qo'llab-quvvatlashi natijasida YEXHT bu yerdagi barcha beshta davlatda o'zining byurolarini ochdi. Chunonchi, bu YEXHTning barcha mezonlari doirasida o'zaro hamkorlikka asoslangan muloqotlarimiz kengayishiga ko'maklashadi. YEXHTning butun mintaqasida keng qamrovli xavfsizlikka erishish borasida o'z maqsadimizni yana bir bor bayon etgan holda, biz mana shu ijobiy siljishlarni qizg'in qo'llab-quvvatlaymiz. Biz aminmizki, hamkorlik va umumiy majburiyatlarimiz asosida sa'y-harakatlarni avj oldirish bu qiyin va murakkab o'tish jarayonida zarur bo'lgan olg'a siljish uchun turtki bo'ladi.", deyiladi⁴⁶.

O'zbekistonga 2011 yil mart oyida tashrif buyurgan YEXHT ning kamsonli millatlar ishlari bo'yicha Oliy komissari, elchi Knut Vollebek rahbarligidagi delegatsiya O'zbekiston Respublikasi Oliy majlisining Inson huquqlari bo'yicha vakili (Ombudsman) Sayyora Rashidova bilan uchrashdi. Muloqot chog'ida O'zbekiston bilan YEXHT o'rtasidagi aloqalar barcha yo'nalishlarda, jumladan, parlamentarizm, huquq – tartibot va Inson huquqlarini himoya qilish bo'yicha ham izchil rivojlanib borayotgani alohida ta'kidlandi. O'zbekiston Prezidenti I.A. Karimov rahnamoligida millatlararo totuvlikni ta'minlashga alohida e'tibor qaratayotgani, tili, dini, ijtimoiy kelib chiqishidan qat'iy nazar barcha millat va elatlar vakillarining ahil inoq yashayotgani, ularning huquqlari qonun bilan kafolatlangani qayd etildi.

O'zbekiston YEXHT bilan mintaqaviy xavfsizlik va barqarorligini mustahkamlash, fuqarolik jamiyati institutarini rivojlantirish, xalqaro iqtisodiy va gumanitar hamkorlikni kengaytirish, ekologiya kabi sohalarda hamkorlik qilib kelmoqda. Muzokarada O'zbekiston bilan YEXHT o'rtasida qonunchilik, sud huquq tizimi sohasidagi hamkorlikka oid masalalar, shuningdek, o'zaro munosabatlarning bugungi ahvoli va istiqboli yuzasidan fikr almashildi.

YEXHT bir necha yillardan buyon O'zbekiston bilan hamkorlikda ko'plab loyihalarni amalga oshirib kelmoqda, – dedi K.Vollebek. O'zbekiston Ombudsman institutining fuqarolar huquq va erkinliklarini himoya qilish borasida olib borayotgan ishlari bilan yaqindan tanishish imkoniyatiga ega bo'ldik. Maqsadimiz yurtimizda kamsonli millat vakillari huquqlarini ta'minlash, bu yo'nalishda olib borilayotgan ta'lim hamda ma'rifiy ishlar borasida fikr va tajriba almashishdan iborat. O'zaro hamkorligimiz yil sayin kengayib, mustahkamlanib boraverishiga ishonaman deydi K.Vollebek⁴⁷.

O'zbekistonning jahon hamjamiyati safidan munosib o'rin egallagani, dunyoga mustaqil davlat sifatida tanilgani hamda o'zining qator tinchlikparvar taklif, g'oya hamda tashabbuslari, faol tashqi siyosati endilikda juda yuksak minbarlarda e'tirof etilayotgani bor haqiqatdir.

Bundan roppa-rosa 20 yil avval – 1992 yilning 2 martida mustaqil O'zbekistonning davlat bayrog'i N'yu-Yorkdagi BMT bosh qarorgohi oldidagi dunyo mamlakatlari bayroqlari orasida hilpiray boshladi. Bu xalqimiz, ota-bobolarimizning asriy orzusi bo'lgan – O'zbekiston mustaqilligining xalqaro hamjamiyat tomonidan tan olinishining isboti edi. 1993 yilning avgust oyida esa poytaxtimizda BMTning vakolatxonasi o'z faoliyatini boshladi. Bu esa tashkilot va uning ixtisoslashgan muassasalari bilan amaliy aloqlarni yo'lga qo'yish hamda uni rivojlantirish uchun xizmat qilmoqda.

Birlashgan Millatlar Tashkiloti – tinchlikni va xalqaro xavfsizlikni qo'llab-quvvatlash, davlatlararo hamkorlikni rivojlantirish maqsadida tashkil etilgan universal tashkilotdir.

⁴⁶ ЕХХТ нинг инсонийлик мезонлари бўйича хужжатлари. Иккинчи наشري. Маъсул мухаррир ю.ф.д.А.Саидов. – Тошкент, 2005. – Б. 159.

⁴⁷ Халқ сўзи. 2011 йил 29 март.

BMT tuzilishining asosiy sabab va maqsadlari uning Ustavi “Muqaddima”sida quyidagicha ifodalangan:

– kelgusi avlodlarni bizning hayotimizga ikki marotaba insoniyat boshiga dahshatli kulfatlar solgan urushlardan qutqarish.

BMT ustavida uning 6 ta asosiy organlari ko`rsatilgan. Ular quyidagilar:

1. Bosh Assambleya.
2. Xavfsizlik Kengashi.
3. Iqtisodiy va Ijtimoiy Kengash (EKOSOS).
4. Vasiylik bo`yicha Kengash.
5. Kotibiyat.
6. Xalqaro Sud.

Bugun shuni qat`iy ishonch va g`urur bilan aytish mumkinki, o`tgan yillar mobaynida O`zbekiston butun dunyo ko`z o`ngida tashqi siyosiy va madaniy aloqalarning boy tarixiga ega, zamonaviy diplomatik aloqalarni olib borayotgan tinchlikparvar davlat sifatida namoyon bo`ldi.

Ma`lumki, dunyoda ikki yuzdan ziyod katta-kichik davlatlar bor. Ulardan 195 tasi BMT a`zosi. “Tinchlik uyi” a`zolari orasida rivojlanish darajasi, iqtisodiy taraqqiyot ko`rsatkichlari, harbiy salohiyati, hududi, aholisi soni jihatidan oldingi o`rinlarda bo`lgan va ularga tenglashishga intilayotgan mamlakatlar ko`p. Lekin, qanday bo`lishidan qat`iy nazar har bir mamlakatning o`z ichki va tashqi siyosati bor. Hamma gap ana shu ichki, ayniqsa, tashqi siyosatni qabul qilingan diplomatik qonun-qoidalar, me`yorlar asosida to`g`ri, aniq maqsadli, milliy va umumbashariy manfaatlariga mos ravishda olib borishga bog`liqligi kunday ayon. Agar masalaga ana shu tamoyildan kelib chiqib munosabat bildiradigan bo`lsak, O`zbekiston nisbatan yosh davlatlardan biri bo`lishiga qaramasdan o`tgan 20 yil mobaynida jahon siyosati, xalqaro munosabatlarning shunchaki kuzatuvchisi emas, balki ko`p tomonlama iqtisodiy hamkorlikni qo`llab-quvvatlovchi, mintaqa tinchligi va barqarorligiga xavf solayotgan xatarlarni aniqlab, ularni jahon hamjamiyati ishtirokida bartaraf etishga jiddiy bel bog`lagan va tinchlik hamda taraqqiyot uchun kurashchi davlat sifatida namoyon bo`lganligini ko`ramiz.

Bugungi kunda O`zbekiston Respublikasida BMT ning o`nga yaqin dasturlari faoliyat yuritmoqdalar. Toshkent BMTning Markaziy Osiyodagi forposti sifatida baholanmoqda⁴⁸.

Ma`lumki, BMT ning terrorizmning oldini olish va unga qarshi kurashga qaratilgan 13 ta hujjati (11 ta konventsia, 2 ta protokol) mavjud. Hozirgi kunda O`zbekiston 12 ta ana shunday xalqaro shartnomalarni ratifikatsiya qilgan⁴⁹.

Tashkil etilganidan hozirga qadar BMT jahon miqyosida xavfsizlik, tinchlik borasidagi kurashuvchi, urushlarni oldini oluvchi va osoyishtalikni ta`minlovchi, barqaror tinchlikni saqlovchi, xalqaro hamkorlikni olib boruvchi tashkilot hisoblanadi. Terrorizm, giyohvandlik, mintaqaviy mojarolar va global ekologik muammolarga qarshi kurashib, jahon siyosatida o`z obro`yi va mavqeini mustahkam holda saqlab kelmokda.

Ta`kidlash joizki, BMTga a`zo bo`lib kirish davlat mustaqilligining e`tirof etilishini anglatuvchi omillardan biriga aylandi.

BMTning O`zbekiston Respublikasidagi maxsus tuzilmalari byevosita antiterroristik faoliyat bilan shug`ullanmoqdalar. Jumladan, BMT ning giyohvandlik vositalarining noqonuniy aylanishiga qarshi kurash va jinoyatchilikning oldini olish bo`yicha Markaziy Osiyodagi mintaqaviy bo`linmasi tomonidan 2005 yil 5-6 aprel` kunlari terrorizmga qarshi kurashga oid xalqaro hujjatlarning implementatsiyasi bo`yicha maxsus anjuman o`tkazildi. Anjumanda bo`linma tomonidan terrorizmga qarshi kurash to`g`risidagi qonun namunasining loyihasi ustida

⁴⁸ Камаров А. Ўзбекистоннинг БМТ билан халқаро терроризмга қарши кураш соҳасидаги ҳамкорлиги // Ўзбекистон ва БМТ: тажриба ва ҳамкорлик истикболлари. Конференция материаллари. 2007 йил 16 март. – Тошкент, 2007. – Б. 177.

⁴⁹ Диний экстремизм ва терроризмга қарши курашнинг маънавий – маърифий асослари: Ўқув қўл./ Масъул муҳаррир А.С Очилдиевю – Тошкент, Тошкент ислом университети, 2008. – Б. 201.

ish olib borilayotgani, bo`linma mintaqada terrorchilik dinamikasi va uning oldini olishga qaratilgan chora – tadbirlar haqida hukumatlarga konsul'tativ yordam berishini, terrorizmga qarshi kurashga oid maxsus sharhlarni tayyorlayotganligi qayd etildi⁵⁰.

E'tiborga sazovorki, davlatlarning BMT tarkibida a`zo sifatida faoliyat ko`rsatishi mazkur Tashkilot nizomiga rioya etish bilan birga, mazkur tashkilot doirasida xalqaro huquq tartibot ta'minlanishiga hissa qo`shish, xalqaro va milliy xavfsizlikka tahdidlarga qarshi kurashda tashkilot salohiyatiga murojaat etish, tashkilotda ishtirok etish chog`ida xalqaro-huquqiy tashabbuskorlik ko`rsatish huquqini beradi.

Bugungi kunda terrorizmga qarshi kurashda davlatlar tomonidan xalqaro-huquqiy tashabbuskorlik ko`rsatish, antiterroristik amaliy faoliyatida BMT salohiyatidan foydalanish davr taqozosi bo`lib turibdi. O`zbekiston Respublikasi va BMT ning terrorizmga qarshi kurash borasidagi o`zaro hamkorligi mamlakatimizning mazkur tashkilot doirasida ilgari surilgan xalqaro-huquqiy tashabbuslarni ruyobga chiqarish bilan byevosita bog`liq.

BMT doirasida terrorizmga qarshi kurashda a`zo davlatlar tomonidan nafaqat xalqaro huquq normalari va BMT nizomi talablariga mos qonunchilikni qabul qilish, balki tashkilotning xalqaro-huquqiy antiterroristik hujjatlar talablarini bajarish muhim ahamiyat kasb etadi. O`zbekiston Respublikasi Xavfsizlik Kengashi tomonidan qabul qilingan 1267, 1373-sonli rezolyutsiyalar bo`yicha muntazam milliy hisobotlarni topshirib, terrorizmga qarshi kurashda ko`rilgan tadbirlar va ularning istiqbollari haqida belgilangan muddatlarda axborot berib kelmoqda⁵¹.

Mustaqillikning ilk yillaridanoq, O`zbekiston Prezidenti yuksak va nufuzli minbarlardan turib xalqaro tashkilotlar, dunyo mamlakatlari va xalqlari diqqat-e'tiborini Markaziy Osiyo mintaqasiga, bu erda va unga qo`shni bo`lgan hududlarda yuzaga kelgan vaziyatga qaratdi. Yurtboshimizning nufuzli anjumanlarda ilgari surgan tinchlikparvar g`oyalarga yo`g`rilgan taklif va tashabbuslari zamirida milliy manfaatlar qatorida mintaqa xalqlari, qolaversa, umuminsoniy manfaatlar mujassam ekanligini dunyoning "manaman" degan siyosatchilaru davlat arboblardan tortib, oddiy fuqarolargacha his etganligi bor haqiqat⁵².

O`zbekiston turkiy tilli davlatlarining` liderlari forumi deb ataluvchi xalqaro tashkilotning ham faol a`zosidir. Mazkur Forum doirasida O`zbekiston barcha turkiy tilli davlatlar bilan yaqin iqtisodiy, madaniy va gumanitar sohalarda hamkorlikni amalga oshiradi. Bugungi kunda barcha turkiy tilli davlatlar oldida, jumladan, O`zbekiston oldida ham bir qator muammolar ko`ndalang bo`lib turibdi. Xususan ular integratsion jarayonlarini yanada chuqurlashtirish uchun quyidagi sohalarda davlatlarning sa'y-harakatlarini bir-lashtirishni taqozo etadi:

- diniy ekstremizmga qarshi kurashda;
- Janubiy Osiyodaga qator davlatlar yadroviy qurolga ega bo`lishga ingilayotganligi sababli yuzaga kelaetg`an yadroviy taxdidning oldini olishda;
- barcha turkiy tilli davlatlarni bir-birlariga yaqinlashtirishda imkon beruvchi kommunikatsion loyihalarni amalga oshirishda;
- uyushgan jinoyatchilik, terrorizm, giyohvand moddalarni qonunga zid ravishda tarqatish va sotishga qarshi kurashishda;
- umumjahon muammosiga aylanib boraetgan Orol fojiasnning oldini olishda;
- milliy maorif tizimini isloh etish sohasidagi hamkorliklarni amalga oshirishda.

⁵⁰ Камаров А.. Ўзбекистоннинг БМТ билан халқаро терроризмга қарши кураш соҳасидаги ҳамкорлиги // Ўзбекистон ва БМТ: тажриба ва ҳамкорлик истиқболлари. Конференция материаллари. 2007 йил 16 март. – Тошкент.: 2007. – Б. 178.

⁵¹ Камаров А. Ўзбекистоннинг БМТ билан халқаро терроризмга қарши кураш соҳасидаги ҳамкорлиги... – Б. 178.

⁵² w.w.w.google.uz.

Xulosa qilib aytganda, O`zbekistonda tarixiy jihatdan qisqa bir davrda xalqaro munosabatlarni yo`lga qo`yish va rivojlantirish bobida bir necha o`n yilliklarga arziydigan ishlar amalga oshirildi. O`zbekiston o`zining tinchliksevar, yaxshi qo`shnichilik, o`zaro foydali hamkorlikka qaratilgan siyosati va faoliyati bilan butun dunyoga tanildi, jahon hamjamiyatida o`zining munosib o`rnini egalladi, uning mavqei yildan-yilga mustaqkamlanib bormoqda. Yuqori keltirilgan ma`lumotlar bir tarafdin albatta yangi respublika uchun qisqa vaqtda erishgan katta yutuqlardir. Lekin, masalaning ikkinchi tomoni o`rnatilgan bu hamkorliklarning hozirda rivoji va yurtimiz uchun foydasi qanday darajada ekanligidir. Asosan tuzilgan shartnomalar o`z faoliyatini yaxshi olib bormoqda, lekin, shu bilan bir qatorda muammolar qam yo`q emas.

2.2 O`zbekistonning mintaqaviy tashkilotlar bilan tinchlik yo`lidagi hamkorligi

Markaziy Osiyo mintaqasi bugungi kunda juda ko`p mamlakatlar e`tiborini tortayapti. Bu o`rinda manfaatlar to`knashuvi ham yuz bermoqda. Prezident I.A. Karimov O`zbekiston Respublikasi mintaqadagi tashqi siyosatining asosiy yo`nalishlarini shunday deb belgilagan: «Markaziy Osiyodagi tinchlik, barqarorlik va hamkorlik bizning tashqi siyosat sohasidagi ustuvor maqsadlarimizdir»⁵³. O`z fikrini davom ettirib O`zbekiston rahbari shunday ta`kidlagan: «Bizning shunga ishonchimiz komilki, Markaziy Osiyo nafaqat yadroviy, balki har qanday boshqa ommaviy qirg`in qurollari, chunonchi, biologik va kimyoviy qurollardan ham xoli hududga aylanishi lozim. Ayniqsa, xalqaro terrorizm bunday qurollarga ega bo`lishga intilayotgan bugungi kunda bu masala yanada dolzarb ahamiyat kasb etmoqda»⁵⁴. Darhaqiqat, dunyodagi o`ta muhim jug`rofiy-siyosiy mintaqalardan biri bo`lmish Yevroosiyoda tinchlik va barqarorlikni ta`minlash, ijtimoiy va iqtisodiy rivojlanish uchun shart-sharoitlar yaratish – bugungi kunda eng muhim vazifalaridir. Yevroosiyoda davlatlari, garchi ijtimoiy-siyosiy, etnik va madaniy jihatdan xilma-xil bo`lsa-da, birgalikda kuch-g`ayrat sarflab, xavfsizlikka tashqaridan tug`ilayotgan tahdidlarga qarshi turish uchun, butun mintaqani barqaror rivojlantirish uchun qulay muhitni yaratadi, amalda bu mintaqani xavfsizlik va barqarorlik mintaqasi sifatida shakllantiradi.

O`zbekiston mintaqaviy muammolarni hal qilishda o`ziga xos strategik mavqega ega. Bu quyidagi omillar bilan bog`liq:

- O`zbekiston geografik jihatdan qulay joyda joylashgan va u mintaqaning geosiyosiy yadrosi hisoblanadi;
- davlat xom ashyo va energetika jihatidan mustaqil, iste`mol bozori uchun zarur bo`lgan ko`plab xom ashyo resurslariga ega;
- mintaqada mavjud bo`lgan davlatlar bilan chegaradoshligi, bu o`z navbatida O`zbekistonda sodir bo`ladigan har qanday jarayonning chegaradosh hududlarga tez tarqalish imkoniyatining mavjudligi bilan bog`liqligiga;
- O`zbekiston harbiy-siyosiy jihatdan muhim strategik hudud hisoblanadi;
- madaniy-tarixiy jihatdan yurtimiz juda katta yutuqlarni qo`lga kiritganligi va ular mintaqada xalqlarini o`zaro yaqinlashtirishga xizmat qilishi;
- tarixiy davlatchilik tajribasi va qadimgi dehqonchilik madaniyatiga ega ekanligi;
- butun mintaqaga ta`sir o`tkazadigan kuchli ma`naviy markazlar mavjudligi;

⁵³ Karimov I. A. Maqsadimiz-tinchlik, barqarorlik, hamkorlik // Buningkorlik yulidan. T: 4. – T.: O`zbekiston, 1996. – B.349.

⁵⁴ Karimov I.A. Imperiya davrida bizni ikkinchi darajali odamlar, deb hisoblashar edi // O`zbek xalqi hech qachon, hech kimga qaram bo`lmaydi. T.13. – T.: O`zbekiston, 2005. – B.448.

– Tojikiston va Afg'onistonda bo'lib o'tgan tuqnashuvlarni bartaraf etishda O'zbekiston mintaqada harbiy-strategik jihatdan muhim ahamiyat kasb etib, kuchlar muvozanatini ta'minlashda katta rol o'ynadi va u bugungi kunda Afg'onistonda mavjud muammolarni hal qilishda etakchilik qilmoqda.

Geosiyosat nuqtai nazaridan O'zbekiston Markaziy Osiyoning markazini egallagan hamda muhim strategik mavqega ega bo'lgan davlat hisoblanadi. Siyosiy, iqtisodiy va ma'naviy salohiyati hamda demografik imkoniyatlari jihatidan mintaqadagi boshqa davlatlardan ajralib turadi. Qo'shni respublikalarning O'zbekistonga chegaradosh bo'lgan barcha ma'muriy hududlarida o'zbeklar mahalliy elatlar bilan birgalikda yashab keladi. Mustaqillik sharoitida respublikaning asosiy millati bo'lmish o'zbeklarning zimmasiga millatlararo tinchlikni saqlashdek katta mas'uliyat tushdi-ki, ular bu sinovdan sharaf bilan chiqdilar. Bu hol o'zbek xalqining, ularning qon-qoniga singib ketgan bag'rikenglikning natijasidir⁵⁵.

Yevroosiyo mamlakatlari mintaqaviy hamkorligining shakllanishi Yevroosiyo Osiyo hamkorlik tashkilotining mintaqada ko'p tomonlama aloqalarni amalga oshirishning muhim institutlaridan biri sifatidagi ahamiyati keskin oshib bormoqda. Yevroosiyo hamkorligi jarayonidagi geosiyosatning o'ziga xos shakllanish evolyutsiyasi mintaqa mamlakatlaridagi xavf soladigan xalqaro terroristik, ekstremistik va kuchlarning faollashayotgani ham qattiq tashvish uyg'otmay qolmaydi. Ayniqsa, mintaqada o'z ta'sirlarini o'tkazishga intilayotgan doiralar tomonidan diniy omildan foydalanishga urinishlar, islomni siyosatlashtirayotgan kuchlardan himoya qilish va buzg'unchi masjidlarining faoliyatidan asrash masalalari tobora dolzarb geosiyosiy masala bo'lib qolmoqda.

Shunga ko'ra, O'zbekiston rahbariyatining tashabbusi bilan Yevroosiyo hamkorligi tashkilotining Yevroosiyo iqtisodiy hamjamiyatiga qo'shilishga mintaqadagi integratsiya jarayonlari va iqtisodiy hamkorlikni chuqurlash tirishga ijobiy ta'sir ko'rsatmoqda. 2006 yilning 15 yanvarida Yevroosiyo iqtisodiy hamjamiyatining navbatdan tashqari davlatlararo kengashida ushbu tashkilotning tuzilishi to'g'risidagi bitimga O'zbekiston Respublikasining qo'shilishi to'g'risidagi protokol imzolandi. 2006 yil 9 mart kuni Prezident I.A.Karimov "Yevroosiyo iqtisodiy hamjamiyatini barpo etish to'g'risidagi bitimni ratifikatsiya qilish to'g'risida"gi Qonunga imzo chekkandan so'ng respublikamiz rasman ushbu tuzilmaning a'zosiga aylandi. Shubhasiz, bugungi kunda Yevroosiyo Osiyo hamkorlik tashkilotining faoliyati hamfikrlikka asoslanadi. Bu O'zbekiston, Qozog'iston, Tojikiston va Qirg'izistonning iqtisodiy, siyosiy, madaniy, gumanitar va boshqa sohalarida namoyon bo'layapti. Mustaqillikka tahdidning oldini olish, hududiy yaxlitlik va chegaralar daxlsizligini himoya qilish, terrorizm, giyohvandlik va boshqa jinoyatlarga qarshi kurash masalalarida o'zaro yordam berish hamda yaqin hamkorlik qilish uchun keng imkoniyatlar yaratilmoqda.

Shuningdek, Yevroosiyo Osiyo hamkorlik tashkilotining doirasida unga a'zo mamlakatlar o'rtasida iqtisodiy hamkorlikni tobora rivojlantirib, bosqichma-bosqich yagona iqtisodiy maydonni vujudga keltirish, transport, kommunikatsiya va energetika tarmoqlarida umumiy infratuzilma yaratish, chegara va bojxona nazorati sohalarida muvofiqlashtirilgan siyosat yuritish masalalari ko'rib chiqilmoqda. Chegaralar masalasida O'zbekiston va Qozog'iston o'rtasida kelishuvlarga erishilganligi, bu borada O'zbekiston bilan Tojikiston o'rtasida muvaffaqiyatli muzokara olib borilayotganligi ham Yevroosiyo Osiyo hamkorlik tashkilotining (YEOHT) doirasidagi hamkorlikning samarasidir. Umuman, qardosh va qo'shni davlatlar rahbarlarining uchrashuvida hamisha hamfikrlik hamda hamjihatlik muhiti hukm surmoqda. Hamkorlikning qamrovi keng va natijalarining samaradorligi shu muhit bilan belgilanmoqda. Bu faoliyat bilan Afg'onistonning ham qiziqtirish ehtimoldan holi emas. Albatta, Afg'onistonda oxirgi yillarda asta-sekinlik bilan o'zgarishlar amalga oshirilayapti va bu jarayonning o'zi bir ijobiy holatdir.

⁵⁵ Муртазаева Р.Х. Ўзбекистонда миллатлараро муносабатлар ва бағрикенглик.// Ўқув қўлланма – Тошкент: Университет, 2007 – Б. 130.

O`zbekiston ko`pgina mintaqaviy tashkilotlar, chunonchi, Yevropa Ittifoqi, NATO, EKO, Islom konferentsiyasi tashkiloti, qo`shilmaslik harakati va boshqalar bilan ham samarali hamkorlik qilmoqda.

1996 yil fevral` oyida O`zbekiston Yevropa Ittifoqi bilan hamkorlik o`rnatish bo`yicha muzokaralar boshladi. Shu yil iyul` oyida Florentsiya shahrida Yevropa Ittifoqi bilan O`zbekiston o`rtasida sherikchilik va hamkorlik to`g`risida bitim imzolandi. Bu hujjat O`zbekiston, Yevropa Ittifoqi va unga a`zo bo`lgan mamlakatlar o`rtasidagi o`zaro munosabatlarning huquqiy negizi bo`lib siyosiy, iqtisodiy, ilmiy texnikaviy, madaniy aloqalar uchun keng imkoniyatlar ochdi. Yevropa Ittifoqi bilan hamkorlik O`zbekistonning xavfsizligi va taraqqiyotini ta`minlovchi muhim omillardan biri bo`lib xizmat qiladi. O`zbekiston bilan Atlantika mamlakatlari Tashkiloti - NATO o`rtasida o`zaro hamkorlik mavjud. 1995 yil iyul` oyida O`zbekiston NATOning «Tinchlik yo`lida hamkorlik» dasturiga qo`shildi. O`zbekiston bu dasturdagi ishtirokiga o`z mustaqilligini mustahkamlash, hozirgi zamon harbiy-texnikaviy yutuqlaridan bahramand bo`lish, harbiy kadrlar tayyorlashda imkoniyatlarni kengaytirish nuqtai-nazaridan qaraydi. «Tinchlik yo`lida hamkorlik» dasturi tomonidan 1995 yilda AQShda, 1997 yili Qozog`iston va O`zbekistonda o`tkazilgan harbiy mashqlarda O`zbekiston harbiy qismlarining ishtiroki zobit va askarlarning harbiy-texnik tayyorgarligini yanada ko`tarishga xizmat qildi. 1996 yilning may oyida, Bishkek shahrida, davlat rahbarlari tomonidan «Tinchlik yo`lida hamkorlik» dasturi doirasida tinchlik o`rnatuvchi batal`onni shakllantirish va uni ta`minlash, harbiy qismlarning ishtirokida harbiy mashqlarni o`tkazish to`g`risida tadbirlar qarori qabul qilindi.⁵⁶

NATO bilan SEAP «Tinchlik yo`lida hamkorlik» dasturi doirasidagi hamkorlik respublika xavfsizligini o`rnatish va barqarorlikni ta`minlash, g`arbning etakchi davlatlari bilan harbiy-siyosiy hamkorlikni amalga oshirish manfaatlariga to`g`ri keladi.

O`zbekistonning NATO bilan «Tinchlik yo`lida hamkorlik» dasturi doirasida hamkorligining natijalari:

- NATO bilan aloqalar dunyo hamjamiyatiga milliy tashqari va ichki siyosatning tamoyillarini etkazadi, O`zbekistonning ichki va mintaqaviy xavfsizlikni ta`minlashga qaratilgan tashabbuslarni hayotga tatbiq etish qurolidir;

- NATO doirasidagi konferentsiya, seminarlar respublikaning ekspert-informatsion salohiyatini oshiradi. 1998 yilda NATO tadbirlarida 160 dan oshiq O`zbekiston vakillari ishtirok etdi;

- tinchlik o`rnatuvchi va gumanitar harbiy mashqlarda ishtirok (AQShda «Kooperativ Nagget-95 va 97» va «Kooperativ Osprey-96 va 98»; Norvegiyada «Kooperativ Banners-97»; Olmoniyada «Kombaynd endyevor-98»; O`zbekistonda AQShning harbiy qismlari ishtirokida «Balans Ultra-96 va 97») O`zbekistonning harbiy askarlarga NATOning tinchlik o`rnatuvchi rejalar ishlab chiqish jarayoni bilan, ularni tayyorlash, hamda hayotga tatbiq etish bilan tanishtirdi.

- NATO bilan hamkorlik rivojlangan davlatlar bilan harbiy mutaxassislarni tayyorlashda aloqalarni o`rnatishga yordam beradi.

- NATO harbiy mashg`ulotlarda ega bo`lgan bilimlar Sentrazbat 1997 va 1998 yil mashg`ulotlarida qo`llanilgan.

- 1999 yilda hamkorlikni individual tadbir doirasida O`zbekiston va NATO orasida 120 tadbir o`tkazilgan.

- Sentrazbat-2000 o`quv mashg`ulotlariga antiterroristik harakatlar elementi kiritilgan edi. Shunday qilib, mashg`ulotlar maksimal darajada mintaqadagi bo`lgan vaziyatga yaqin edi.

⁵⁶ Қозоғистон, Қирғизистон ва Ўзбекистон иқтисодий интеграция масалалари бўйича ҳужжатлар тўплами. – Олма-ота, 1996. – №6. – Б. 35-36.

Ma'lumki, O'zbekiston Shanxay Hamkorlik Tashkiloti va Markaziy Osiyo hamkorligi tashkilotining asoschilaridan va faol ishtirokchilaridan biridir. Bu tashkilotlar doirasidagi hamkorlik mintaqa muammolarini o'z vaqtida va bahamjihat hal etish imkonini bermoqda. Markaziy Osiyo poydevori 1994 yili qo'yilgan edi. O'shanda O'zbekiston, Qozog'iston va Qirg'iziston rahbarlari yagona iqtisodiy hudud barpo etish haqidagi shartnomaga imzo chekkan edilar. 1998 yili unga Tojikiston ham qo'shildi.

2004 yili 17-18 oktyabr' kunlari Dushanbeda o'tgan davlat rahbarlari kengashining majlisida Markaziy Osiyo Hamkorligi tashkilotiga safiga Rossiya Federatsiya teng huquqli a'zo bo'lib kirdi⁵⁷. Prezident Islom Karimov ta'biri bilan aytganda, «Rossiyaning MOHga a'zo bo'lishi tabiiy va qonuniy jarayondir»⁵⁸. Negaki, Markaziy Osiyoda tinchlik va barqarorlik bo'lishdan Rossiya manfaatdor. O'zbekiston, Qozog'iston, Qirg'iziston va Tojikiston o'rtasida 2002 yil 28 fevralda imzolangan «Markaziy Osiyohamkorligi» tashkilotini ta'sis etish to'g'risidagi shartnomaga, O'zbekistonning tashabbusi bilan, Rossiya Federatsiyasining ko'shilishiga oid qator qaror qabul qilindi. Bundan tashqari, Prezident Islom Karimovning 2005 yil 6-7 oktyabr' kunlari Rossiya Federatsiyasining Sankt-Peterburg shahriga tashrifi chog'ida O'zbekistonning mazkur Hamjamiyatga a'zo bo'lishi to'g'risida kelishib olingan edi. 2005 yili Rossiyaning ham a'zo bo'lishi bilan tashkilotning faoliyati va ta'sir doirasi yanada ortdi. endilikda mintaqadagi barqarorlik, siyosiy, iqtisodiy madaniy va ilmiy aloqalar rivoji mazkur tashkilotning samarali faoliyati bilan uzviy bog'liq. Shuningdek O'zbekistonning Rossiya bilan harbiy-siyosiy hamkorligi kengayishi va uning Kollektiv xavfsizlik shartnomasi tashkilotining harbiy tuzilmalariga qo'shilishi imkoniyatlari kuchayadi.

Bu o'rinda, Yevroosiyo iqtisodiy hamjamiyati va «Markaziy Osiyo hamkorligi» (MOHT) tashkilotining maqsad va vazifalari bir xil ekanligini ta'kidlash joiz. Yevroosiyo iqtisodiy hamjamiyati 2000 yil oktyabr' oyida Belarus', Qozog'iston, Qirg'iziston, Rossiya va Tojikiston rahbarlari imzolagan shartnoma asosida tuzilgan. Hozir u samarali faoliyat yuritayotgan tashkilotlar safidan joy olgan.

Shuni aytib o'tish joizki, O'zbekiston mustaqillikka erishganidan keyin hech qachon o'zining oldingi doimiy va yaqin hamkorlari bilan aloqani uzmagan. Dastlab bu aloqa MOH doirasida bo'lgan bo'lsa, 2006 yilda bu hamkorlik yangi bosqichga ko'chdi. Markaziy Osiyo Hamkorligi Tashkilotining Yevroosiyo iqtisodiy hamjamiyatiga integratsiyasi to'g'risidagi Bayonnoma O'zbekiston Respublikasi tomonidan 2007 yil 2 aprel'da ratifikatsiya qilindi⁵⁹.

Prezident Islom Karimov Yevroosiyo iqtisodiy hamjamiyatiga a'zo mamlakatlar rahbarlari Davlatlararo kengashining Sankt-Peterburg sammitida ishtirok etdi va O'zbekiston bu tashkilotga a'zo bo'ldi. Shubhasiz, O'zbekistonning YevrazESga a'zo bo'lishi bu tashkilotning salohiyatini yanada oshirdi. Integratsiya jarayonini takomillashtirib borishda, ayniqsa, Minsk va Sochidagi 2006 yilda o'tgan sammitlar katta ahamiyat kasb etdi. Ya'ni, YevrazESga a'zo davlatlarining Minskidagi uchrashuvida hamkorlikning yo'llari va yo'nalishlari, tartib-qoidalari, integratsiyaning boshqa jihatlari oydinlashtirildi.

Yevroosiyo iqtisodiy hamjamiyat doirasida Bojxona ittifoqini tashkil etish bilan bog'liq masalalar o'z yechimini topdi⁶⁰. Yevroosiyo iqtisodiy hamjamiyati faoliyatining samarasi sifatida fuqarolarning vizasiz bordi-keldi tizimi joriy qilingani, oliy o'quv yurtlariga to'siqlarsiz kirish imkoniyati yaratilgani, diplomlarni o'zaro tan olish tartibi mavjudligi kabi ko'plab ijtimoiy qulayliklarni ham keltirish mumkin. Darhaqiqat, O'zbekiston rahbariyatining tashqi siyosatini ishlab chiqishdagi asosiy omillardan biri bu – Hamdo'stlik mamlakatlarning hududiy yaqinligi va iqtisodiy jihatdan bog'langanligi hamda chuqur tarixiy ildizlar, madaniy va ma'naviy

⁵⁷ Бобоев А. Тинчлик, барқарорлик ва тараққиёт йўлида // Халқ сўзи. 2004 йил 19 октябрь.

⁵⁸ Бобоев А. Тинчлик, барқарорлик ва тараққиёт йўлида // Халқ сўзи. 2004 йил 19 октябрь.

⁵⁹ Халқ сўзи, 2007 йил 3 апрель.

⁶⁰ Тўраев А. Интеграцияни мустахкамлаш йўлида // Халқ сўзи. 2006 йил 18 январь.

aloqalar, katta tarixiy davr mobaynida xalqlarimizning taqdiri mushtarakligi asos qilib olinayotganligidir. Aynan shu omil nafaqat O`zbekiston tashqi siyosatidagi, balki butun Markaziy Osiyo mustaqil davlatlari tashqi siyosatidagi asosiy tayanchdir. Demak, mamlakatlarimiz o`rtasidagi xalqlarning yaqinlashuvi tabiiy kechayotgan jarayondir. Shuningdek, O`zbekiston Kollektiv Xavfsizlik Shartnomasi tashkilotidagi faoliyatini yana tiklashga qaror qildi⁶¹.

Mintaqada tinchlik, barqarorlik va xavfsizlikka taxdid soluvchi tashqi va ichki xatarlarning yoyilishiga yo`l qo`ymaslik, ularning oldini olish uchun Markaziy Osiyo mamlakatlarining sa`y-harakatlari, salohiyat va imkoniyatlarini muvofiklashtirish va birlashtirish, o`zaro hamjihatlikni mustahkamlash o`ta muhim ahamiyat kasb etadi⁶².

Markaziy Osiyoda kollektiv xavfsizlikni ta`minlash dasturi I.A.Karimov asarlarida teran va batafsil bayon etilgan.

Birinchidan, tinchlikka nisbatan tashqi taxdidlarga yo`l qo`ymaslik, ularni bartaraf etish, ushbu mintaqada yashovchi xalqlar-ning barqarorligini hamda xavfsizligini ta`minlash. Bu maqsadlarni amalga oshirish uchun kishilar ogoxligini oshirish, jamoatchilikning xavf-xatar va taxdidlarning oldini olish bo`yicha faolliklarini oshirish, xalqlar o`rtasidagi ma`naviy va madaniy aloqalarni mustahkamlash zarur bo`ladi.

Ikkinchidan, Markaziy Osiyo mintaqasida boy tabiiy resurslardan, energetika, transport kommunikatsiyalari va hokazolardan foydalanish bo`yicha aniq iqtisodiy loyihalarni shakllantirish va amalga oshirish kerak.

Uchinchidan, armiyani, chegara qo`shinlari va ichki qo`shinlarni qayta tashkil qilishning yagona davlat siyosati asosida mamlakatlarning tinchligi va osoyishtaligini ishonchli darajada qo`riqlash qobiliyatiga ega bo`lishiga erishish zarur.

To`rtinchidan, mamlakatning hududiy yaxlitligini, chegaralaridan qo`poruvchi terroristik guruxlarning va qo`poruvchi unusurlarning o`tib ketmasligini ta`minlash. Davlat chegaralarini yanada mustahkamlash va qayta jihozlash, O`zbekistonning iqtisodiy va boshqa manfaatlarini himoya qilish lozim.

Beshinchidan, O`zbekistonning terrorizmga qarshi Xalqaro Markaz tashkil etish bo`yicha tashabbusini amalga oshirish yo`lidagi sa`y-harakatlarini davom ettirish.

Bugungi kunda Shanxay Hamkorlik Tashkiloti xalqaro hamkorlikning qudratli institutiga, xavfsizlik va barqarorlikni ta`minlashning, xalqaro terrorchilik, separatizm va ekstremizm, giyohvand moddalar ishlab chiqarish va tashish kabi zamonning eng qaltis tahluka va tahdidlariga qarshi kurashning kuchli omiliga aylanmoqda.

Markaziy Osiyo hamkorligining shakllanishida Xitoy rahbariyati geosiyosatidagi o`zgarishlar alohida ahamiyatga ega. Markaziy Osiyodagi Xitoy omilini ko`p jihatdan Shanxay hamkorlik tashkilotiga a`zo davlatlar xavfsizligi kengashi faoliyati bilan ham bog`liqdir. Shanxay Hamkorligi Tashkiloti 1996 yili «Shanxay beshligi» nomi bilan jahon sahnasida yuzaga keldi. «Shanxay beshligi» 1996 yil 24 aprelda Rossiya, Xitoy, Qozog`iston, Qirg`iziston, Tojikiston kabi besh davlat ishtirokidagi birinchi uchrashuvda paydo bo`ldi⁶³. Ushbu tashkilotning tashabbuskori Xitoy davlati bo`lib, uning maqsadi o`ziga chegaradosh to`rtta davlat – Rossiya, Qozog`iston, Tojikiston bilan birgalikda mintaqaviy xavfsizlikni ta`minlashga qaratilgan. Ma`lumki, Buyuk ipak yo`lini tiklash mintaqada o`zaro munosabatlarni yanada rivojlantirishda muhim o`rin tutadi. Shu boisdan 1999 yil 24-25 avgustda Bishkekda o`tkazilgan navbatdagi uchrashuvda asosiy e`tibor Buyuk ipak yo`lini tiklashga qaratildi. Strategik hamkorlikning asosiy yo`nalishlari to`g`risida deklaratsiya imzolandi. 2001 yil 15 iyunda Shanxayda bo`lib o`tgan navbatdagi uchrashuvda O`zbekiston ishtirokida Shanxay Hamkorlik

⁶¹ Норматов И. Жаҳон билан бўйлашиб // Моҳият, 2006 йил 22 декабрь.

⁶² Каримов И.А. Ватан равнаки учун ҳар биримиз масъулмиз. Т. 9. – Т., 2001. – Б. 83-84.

⁶³ Jo`rayev N., Fayzullayev T. Mustaqil O`zbekiston Tarixi. 3-kitob. – Т.: G`afur G`ulom, 2009. – Б. 633.

Tashkiloti tashkil qilindi. Tashkilotga O`zbekiston shu yo`sinda teng huquqli ishtirokchi va ta`sischi sifatida kirdi⁶⁴.

SHHTning umumiy maydoni 30 million km², ya`ni Yevroosiyoning 60% hududini o`z ichiga oladi. Tashkilot demografik jihatdan dunyo aholisining 1/4 qismini o`zida birlashtiradi. Geosiyosiy jihatdan esa “hartland” (dunyo yuragi) deb nomlangan hududning asosiy qismini tashkil qiladi⁶⁵.

O`zbekistonning SHHT ga qo`shilishi tashkilot uchun katta hayotiy ehtiyojga aylangan edi. SHHTning O`zbekiston manfaatlari bilan hamohang yana bir jihati, uning xalqaro terrorizm, diniy ekstremizm va milliy ayirmachilik, narkotrafik va uyushgan jinoyatchilikka qarshi kurash faoliyatida namoyon bo`ladi. Bundan buyon ham ushbu yo`nalish SHHT faoliyatining eng muhim tarkibiy qismi bo`lib qoladi.

Ushbu tashkilotga a`zo davlat rahbarlari yilda bir marta yig`ilib turadilar. SHHTning bosh vazifalariga quyidagilar kiradi:

- xavfsizlikni ta`minlash;
- mintaqaviy barqarorlikni ta`minlash;
- ekologiya muammolarini birgalikda hal etish;

– ilmiy-texnikaviy, madaniy-ma`rifiy sohalaridagi munosabatlarni kengaytirish va boshqa hayotiy muhim yo`nalishlardan iborat. Bu vazifalarni bajarish borasida davlatlar o`rtasida aloqalar yaxshi rivojlanib bormoqda⁶⁶.

Shanxay Hamkorlik Tashkiloti o`zaro suverenitet, mustaqillik, hududiy yaxlitlikka hurmat bilan qarash, chegara daxlsizligi, ichki ishlarga aralashmaslik, kuch ishlatmaslik hamda barcha ishtirokchi davlatlar tengligi kabi tamoyillarga asoslanadi. Shanxay Hamkorlik Tashkiloti hozirgi faoliyat ko`rsatayotgan xartiya, shuningdek, Shanxay Hamkorlik Tashkiloti doirasida qabul qilingan boshqa xalqaro kelishuvlarga rioya qilinadigan mantaqadagi barcha davlatlar uchun ochiq. Xohlagan davlat tashkilotdan chiqib ketishi ham mumkin. SHuningdek, u xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlik sohasida ham keng qamrovli ish olib bormoqda. Shanxay Hamkorlik tashkiloti rahbarlari 2003 yil 6 martda BMT Xavfsizlik kengashining aksilterroristik ko`mitasi yig`ilishida, 2003 yil aprelda Venada YEXHTning hamkorlik bo`yicha a`zolari uchrashuvida, N`yu-Yorkda 2003 yil iyuida BMT va mintaqaviy tashkilotlar ishtirokida beshinchi yuqori darajali uchrashuvida va 2003 yil sentyabrda Lissabonda o`tkazilgan YEXHT doirasida terrorizmi yo`qotish va unga qarshi kurashish to`g`risidagi yig`ilishlarda ishtirok etdilar.

Shanxay Hamkorlik Tashkilotiga a`zo davlatlar Tashqi ishlar vazirlari kengashining navbatdan tashqari uchrashuvlardan biri 2003 yil 5 sentyabrda Toshkentda bo`lib o`tdi. Unda a`zo davlatlar Tashqi ishlar vazirlari 2004 yil 1 yanvaridan Pekinda Shanxay Hamkorlik Tashkilotining doimiy organi – Kotibiyatning va Toshkentda Mintaqaviy Aksilterror tuzilmasining faoliyat yuritishini bildirib o`tdilar. O`zbekistonning ushbu tashkilotda teng huquqli sub`yekt sifatida ishtiroki uning mavqeini jahon mamlakatlari oldida bir qarra oshirsa, ikkinchidan mintaqada tinchlik o`rnatishga, terrorizm, ekstremizmga qarshi kurashishga a`zo davlatlar bilan hamkorlikda faoliyat olib borish imkonini beradi.

Shanxay Hamkorlik Tashkilotiga a`zo barcha mamlakatlar uchun umumiy bo`lgan xavfsizlik va hamkorlik bo`yicha bir qator dolzarb masalalar mavjud bo`lib, ularni hal etishda mintaqa miqyosida korporativ faoliyatni yo`lga qo`yish o`ta muhim. Xususan, Rossiya Federatsiyasi Prezidenti V.Putinning ta`kidlashicha, «Markaziy Osiyo mintaqasidagi muhim siyosiy, harbiy va iqtisodiy muammolarni hal etishda O`zbekiston Respublikasi ishtirokisiz biror bir aniq natijaga erishib bo`lmaydi».

⁶⁴ Jo`rayev N., Fayzullayev T. Mustaqil O`zbekiston tarixi. 3-kitob. – T.: G`afur G`ulom, 2009. – B.635.

⁶⁵ Рахимов Д., Худайкулов А. [Минтақавий хавфсизликни таъминлаш йўлида](#) // Хуқук, 2009 йил 22 октябрь.

⁶⁶ Миллий истиқлол ғояси ва миллий хавфсизлик. – Тошкент: Академия, 2008. – Б. 100.

2002 yili 6-7 iyun' kunlari Sankt-Peterburg shahrida o'tkazilgan Sammitning asosiy natijasi tashkilotning Xartiyasi qabul qilindi⁶⁷. U xalqaro munosabatlar tizimida paydo bo'lgan yangi tashkilotning huquqiy poydyevori bo'ldi. Xartiya imzolanishi bilan Shanxay Hamkorlik Tashkiloti doirasidagi tashkiliy-huquqiy ishlar nihoyasiga etkazildi. Shanxay Hamkorlik Tashkilotini tuzishdan ko'zlangan asosiy maqsad qo'shni mamlakatlararo o'zaro ishonchni mustahkamlash, ularning iqtisodiy va ijtimoiy sohada hamkorligi takomillashtirish uchun qulay shart-sharoit yaratish va yangi imkoniyatlar ochishdan iboratdir. Xavfsizlik masalasida esa, hozirgi kunda xalqaro hamjamiyat bu borada yangicha yondashuvga ehtiyoj sezayotganini ilg'ash qiyin emas. Bunda o'zaro ishonch va manfaatdorlik, tenglik va hamjihatlik tamoyillarga tayanishi zarur. Shanxay Hamkorlik Tashkiloti ning tashkil qilinishi xavfsizlikning yangi kontsepsiyasini yaratishida muhim qadam bo'ldi. 2001 yili 15 iyun' kuni imzolangan Terrorchilik, ayirmachilik va ekstremizmga qarshi kurash to'g'risidagi Shanxay konventsiyasi qatoriga Mintaqaviy aksiterror (MATT) tuzilmasi to'g'risidagi bitim qo'shildi.

2004 yil iyun' oyida Toshkentda Shanxay Hamkorlik Tashkiloti Sammitida Afg'oniston rahbari Hamid Karzay va Mo'g'uliston prezidentning vakili, mamlakat tashqi ishlar vaziri Luvsangiyn erdenechulun ishtirok etdi⁶⁸. Mo'g'uliston tomoni Sammitda kuzatuvchi sifatida qatnashgan bo'lsa, Prezident Islom Karimov tashabbusi bilan Afg'oniston muvaqqatma'muriyati rahbari Hamid Karzay mehmon sifatida ishtirok etdi⁶⁹. 2006 yil iyun' oyida Shanxayda tashkilotning YUbley sammiti bo'lib o'tdi. Sammitda tashkilotning Toshkentdagi Mintaqaviy aksiterror tuzilmasi faoliyatiga tegishli baho berildi, Qotibiyat va Ishbilarmonlar kengashi faoliyatlarini takomillashtirish yuzasidan takliflar kiritildi. Shuningdek, a'zo davlatlar o'rtasida siyosiy, savdo-iqtisodiy, ijtimoiy-madaniy aloqalarni kengaytirishga doir dolzarb masalalar ko'rib chiqildi. Sammit ishida kuzatuvchi maqomiga ega bo'lgan eron, Pokiston, Afg'oniston, Mo'g'oliston prezidentlari hamda Hindiston vakili ishtirok etishdi⁷⁰.

Yuqorida aytilganidek, SHHT faoliyatida xavfsizlik masalasiga alohida e'tibor qaratishining o'ziga xos sabablari bor. O'zbekistonda o'tgan yillar mobaynida sodir etilgan terrorchilik harakatlari bu balo-qazoga qarshi kurashda sustkashlikka yo'l qo'yib bo'lmasligini ko'rsatdi. Bu boradagi hamkorlikni muvofiqlashtirish, axborot almashish, chegara va bojxona qo'mitalarning, maxsus xizmatlarning o'zaro hamkorligini rivojlantirish masalalari ko'p jihatdan Toshkentda faoliyatini boshlagan mintaqaviy aksiterror tuzilmasining nechog'li samarali ish yuritishga bog'liqdir. Toshkentda o'tkazilgan uchrashuvda Prezident Islom Karimov Markaziy Osiyoda umumiy bozor yaratish taklifini yana bir bor ilgari surdi. Uning amalga oshishidan a'zo davlatlar manfaatdordir. Shuningdek, SHHT mamlakatlari o'rtasida qit'alararo transport yo'laklarini barpo etish haqida ham muzokaralar olib borilgan.

SHHTga a'zo davlatlar aholisi dunyo xalqining to'rtidan bir, Yevroosiyo qit'asining uchdan ikki qismini tashkil etishi mazkur hudud juda katta salohiyatga egaligidan dalolat beradi. Shuningdek, SHHTning dunyodagi obruyi oshayotdi, shu tufayli bu tashkilotga barcha mamlakatlarning dikkati kuchayib borayotgani uning dunyodagi mavqeini o'sayotganligini ko'rsatadi.

Darhaqiqat, Shanxay hamkorlik tashkilotining keyingi davrlardagi muvaffaqiyatlariga ikkita qo'shma harbiy mashqlar o'tkazilishi, O'zbekiston poytaxti Toshkentda Aksiterror markazining ochilishi, chegara masalalarida, huquq-tartibotni mustahkamlash va iqtisodiy sohadagi hamkorlik takomillashtirish bilan bog'liq shartnomalar kiradi. Buning hammasi, albatta, mintaqa davlatlarining muvaffaqiyatlaridan va Markaziy Osiyoda xavfsizlik va barqarorlikni ta'minlashga hissa qo'shilayotganidan dalolat beradi. SHHT tashkil qilingan davrdan boshlab xalqaro maydonda katta salohiyatga aks ega bo'lgan tashkilot keyingi paytda a'zo davlatlar

⁶⁷ Jo'rayev N., Fayzullayev T. Mustaqil O'zbekiston Tarixi. 3-kitob. – T.: G'afur G'ulom, 2009. – B.635.

⁶⁸ Бобоев А. Хавфсизлик ва ҳамкорликни мустаҳкамлаш йўлида.....

⁶⁹ Бобоев А. Хавфсизлик ва ҳамкорликни мустаҳкамлаш йўлида.....

⁷⁰ Халқ сўзи, 2006 йил 16 июнь.

o`rtasida o`zaro iqtisodiy hamkorlikni kuchaytirishga ham alohida e`tibor qaratmoqda. Markaziy Osiyo, Rossiya va yaqin Sharq masalalari bo`yicha yirik tadqiqotchi Pan Guan SHHT tamoyillarini shunday sharhlaydi: «Tinchlik uchun hamkorlikning tamoyillari quyidagilardir: o`zaro hujum qilmaslik, ichki ishlarga aralashmaslik, suverenitetni va hududiy yaxlitlikni hurmat qilish» kabilardir⁷¹. Darhqiqat, Shanxay hamkorlik tashkiloti Markaziy Osiyoda va Xitoyning g`arbiy chegaralarida terrorizm, ekstremizm va ayirmachilikni bartaraf etishda katta yordam ko`rsatmoqda. Xususan, so`nggi yillarda SHHT doirasida uchta ko`shma aksilterror harbiy mashqlar o`tkazildi⁷². Bu haqda Prezident I.A.Karimov shunday degan: «Shu munosabat geosiyosiy jarayonlar shiddat bilan rivojlanayotgan, iqtisodiyot va ahborot sohallari globallashib borayotgan hozirdagi sharoitda SHHT mexanizmlarini hamkorlikning yanada yuqori darajasiga mos pog`onaga ko`tarish tabiiy vazifa ekanini ta`kidlamoqchiman. Bu – davr talabi»⁷³. Yuqorida aytilganidek, SHHTga a`zo davlatlar terrorizmga qarshi birgalikda kurashishni o`zlarining asosiy maqsadlaridan biri sifatida belgilagan. SHHTning Toshkentda faoliyat yuritayotgan Mintaqaviy aksilterror tuzilmasi bu boradagi ishlarni muvofiqlashtiradi. Shu bois ham Shanxay hamkorlik tashkilotining bosh maqsadlaridan biri aloqa va yo`llar masalasi, ayniqsa, O`zbekistonning geosiyosiy joylashuvi naqadar muhim ekanligi dunyoga ayondir. Albatta, Shanxay hamkorlik tashkilotini tuzishdan asosiy maqsad qo`shni mamlakatlar o`rtasida o`zaro ishonchni mustahkamlash, ularning xavfsizlik sohasida, iqtisodiy va ijtimoiy jabxalardagi hamkorligi ravnak topishi uchun qulay shart-sharoit yaratish va yangi imnoniyatlar ochishdan iborat. Bugungi kunda SHHT doirasidagi ko`p tomonlama hamkorlikning asosiy yo`nalishlarini xavfsizlik va iqtisodiy masalalar tashkil etmoqda. Zotan, bu ikki omil bir-biri bilan uzviy bog`langan. SHHT ta`sis etilganidan buyon dunyo hamjamiyati o`z taraqqiyotining favkulodda murakkab va mas`suliyatli davrini boshdan kechirdi. Bu davrdagi fundamental muammolar va xalqaro xavfsizlikka tahdid, birinchi galda, sayyoramizdagi tinchlik va barqarorlikka eng ko`p darajada xavf solayotgan xalqaro terrorchilik tahdidiga to`knash kelayotgan sifat jihatdan yangi dunyo tartibotini ko`zda tutadi. Hozirgi kundagi voqealar va dalillar quyidagi haqiqatni namoyon qilmoqda: nechog`lik mukammal qurol yoki kudratli va zamonaviy yadro-raketa vositalariga ega bo`lmasin, dunyoning hech bir mamlakati bugungi kunda o`zini ushbu dahshatli tahdiddan xoli deb hisoblay olmaydi. Faqat birgalikdagi sa`yi-harakatlar bilangina xalqaro hamjamiyat insoniyatga xavf soluvchi tobora kuchayib borayotgan tahdiddan xalos bo`la oladi.

SHHTning asosiy xujjatlari bo`lgan Xartiya va Deklaratsiyada e`lon kilingan hamda mintaqada xavfsizlik, tinchlik va barqarorlikni ta`minlashga, xalqaro terrorchilik, ayirmachilik va ekstremizmning barcha ko`rinishlariga, shuningdek, narkotrafik va ommaviy qirg`in qurollarini tarkalishiga yo`natirilgan asosiy maqsadi, gumanitar sohada, ijtimoiy va madaniy taraqqiyot sohalardagi ko`p tomonlama, o`zaro foydali iqtisodiy hamkorlik rivojlantirilishini qullab-quvvatlaydi⁷⁴. Hech shubhasiz, SHHTning ushbu va boshqa muhim maksad va tamoyillarining amalga oshirilishi barcha ishtirokchi davlatlar manfaatlariga birdek mos keladi.

SHHTning blok yoki yopik turdagi birlashma emasligi, uning ochiqqligi, dunyoning barcha davlatlari va xalqaro tashkilotlar bilan BMT Nizomi, xalqaro huquq me`yorlariga muvofiq keng kulamli amaliy muloqot va hamkorlikka tayyorligi ko`zda tutilishi nihoyatda muhim ahamiyat kasb etadi. O`zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimov ta`kidlaganidek, «biz har bir davlatning va butun Markaziy Osiyo mintaqasining olg`a intiluvchi

⁷¹ Пан Гуан. Шанхайская организация сотрудничества в контексте международной антитеррористической кампании // Центральная Азия и Кавказ. – Ташкент, 2003. – №3 (27). – С.58.

⁷²ХХР Раиси Ху Цзиньтао: ШХТнинг тинчлик, тараққиёт ва ҳамкорлик байроғини кўтариб борувчи ташкилотга айлантирайлик // Халқ сўзи, 2006 йил 7 июнь.

⁷³Каримов И. А. ШХТ ҳамкорликнинг улкан салоҳиятини намойиш этмоқда // Инсон, унинг ҳуқуқ ва эркинликлари – олий кадрият. Т.14. – Т.: Ўзбекистон, 2006. – Б. 238- 239.

⁷⁴ Мухаметшин Ф. Угрозы и вызовы XXI века // «Труд», 9 ноября 2005 г.

va barqaror taraqqiyotini qo'llab-quvvatlovchi barcha davlatlar bilan hamkorlik qilishdan manfaaatdor bo'lishimiz, bu erda geosiyosiy raqobat va ziddiyatlar paydo bo'lishiga yo'l qo'ymasligimiz kerak»⁷⁵.

Shuni alohida ta'kidlash lozimki, SHHT tuzilgan davrda bajarilgan jami ishlar SHHT mamlakatlari, birinchi galda Rossiya va Xitoy xukumatlarining SHanxay hamkorlik tashkilotini o'z zimmasiga shu mintaqada yashovchi xalqlar xavfsizligi va barqarorligi hamda farovonligini ta'minlash mas'uliyatini olishga qodir bo'lgan nufuzli xalqaro tashkilotga aylantirishga qaratilgan qat'iy irodasi va azmu shijoati tufayli amalga oshirildi. SHHT faoliyati istiqboli va samaradorligi ko'p jihatdan BMT Xavfsizlik kengashining doimiy a'zolari bo'lmish ana shu ikki etakchi davlat – Rossiya Federatsiyasi va Xitoy Xalq Respublikasining faol ishtiroki va hamkorlikdagi harakatlariga bog'liqdir.

O'zbekiston mazkur tashkilot ishida faol ishtirok etib, avvalo, dunyodagi yetakchi kuchlar o'rtasidagi ziddiyatlar qanday tus olishidan qat'iy nazar, Markaziy Osiyoni siyosiy «o'yin va musobaqalar» maydoniga aylantirishga yo'l qo'ymaslik; ikkinchidan, terrorizm, diniy ekstremizm kabi tajovuzkor yovuz kuchlarning tub ildizlariga barham berish, uchinchidan, iqtisodiy hamkorlikni rivojlantirish, birinchi galda o'zaro integratsiyalashuvda muhim ahamiyatga ega bo'lgan Buyuk Ipak yo'li kabi ko'p asrlar Osiyo xalqlari aloqalari ramzi bo'lib kelgan karvon yo'liga hayot baxsh etish kabi nihoyatda dolzarb vazifalarni ilgari surmoqda, va bu niyatlarning amalga oshishida SHHT faoliyati muhim ahamiyat kasb etadi⁷⁶. Muayyan munozarali masalalar borasida o'zaro murosali qarorlar qabul qilish mexanizmini yaratish nihoyatda muhim maqsad bo'lib kelyapti. SHHT ishida bu mexanizmning amal qilishi har bir ishtirokchi davlatning manfaatlari inobatga olinishi va muayyan qaror bir ishtirokchi xohish-istagiga qarab emas, balki konsensus asosida qabul qilinishing kafilidir. SHu boisdan ham, Afg'oniston va Mo'g'o'liston 2004 yilda Toshkent Sammitida kuzatuvchi sifatida qatnashgan, hamda hozirgi kunda eron, Pokiston va Hindiston ham ushbu tashkilotga alohida qiziqish bilan qaramoqda⁷⁷.

Shu o'rinda shuni aytib o'tish joizki, SHHTning tashkil etilishini dunyodagi yangi bir siyosiy-harbiy blokning paydo bo'lishi sifatida baholayotganlar ham oz emas. Bu kabi qarashlarning vujudga kelishiga, shubhasiz, hozirgi ko'pqtibli dunyoda davlatlar o'rtasida gegemonlikka intilishning kuchayib borayotgani sabab bo'layotgani sir emas. Biroq SHHT o'z faoliyatida e'tiborni dunyo xaritasiga «blok» so'zi ko'zi bilan qarashga emas, avvalo o'z doirasida bo'lgan davlatlar va xalqlar boshini qotirayotgan masala va muammolar echimiga qaratganida o'z oldiga qo'ygan maqsadlarga erishishi muqarrar⁷⁸.

SHHT ga a'zo davlatlar rahbarlarining 2009 yil 15-16 iyun' kunlari Ekaterinburg shahrida bo'lib o'tgan yig'ilishida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A. Karimov shunday degan edi: «Shuni ishonch bilan aytish mumkinki, SHHTning mintaqada hamda dunyoda xavfsizlikni ta'minlash, xalqaro terrorizmga, separatizmga, ekstremizmga va giyohvand moddalar savdosiga qarshi kurashish hamda Markaziy Osiyodek strategik jihatdan muhim mintaqada xavfsizlikning boshqa tahdidlariga qarshi kurash borasidagi o'rni va ahamiyati yildan-yilga o'sib bormoqda»⁷⁹.

SHHTning Hozirgi va istiqboldagi maqsadi, vazifasi hamda harakat dasturining mazmun mohiyati hususida Prezident I.A. Karimov quyidagi fikrlarini bildirib o'tadi: «Shubhasiz, «uch yovuz kuch»ga qarshi, shuningdek transchegaraviy narkotijorat va uyushgan jinoyatchilikka qarshi kurash SHHTning muhim vazifalaridan biridir. Shuningdek, terrorchilar va qotillar

⁷⁵ Президент И.Каримов ШХТ давлатлари раҳбарларининг Санкт-Петербургда ўтказилган Саммитида сўзлаган нуткидан // «Халқ сўзи», 2002 йил 11 июнь.

⁷⁶ Алимов Р.М. Центральная Азия: Общность интересов. – Т.: Шарқ, 2005. – С.464.

⁷⁷ Нажмиддинов К. Шанхайдан бошланган эзгу йўл // Халқ сўзи, 2004 йил 15 июнь.

⁷⁸ Сафаров М. ШХТ– хотиржамлик ва фаровон ҳаёт шарти // Инсон ва қонун, 2004 йил 8 июнь.

⁷⁹ Рахимов Д., Худайкулов А. Минтақавий хавфсизликни таъминлаш йўлида //Хуқук. 2009 йил 22 октябрь.

tayyorlash manbai bo'lgan radikal diniy ekstremizm mafkurasiga qarshi zarba berish masalasi ham muhim ahamiyat kasb etmoqda⁸⁰».

2012 yilning 6-7 iyun kunlari Xitoy Xalq Respublikasida SHHTning navbatdagi sammit yig'lishi bo'ldi. Sammitda mintaqada xavfsizlik masalasi bo'yicha a'zo mamlakatlar bir qator masalalarni hal etdilar. Jumladan insoniyatga rahna solib turgan "uch yovuz kuch" terrorism, aqidaparastlik, ayirmachilikka qarshi kurash bo'yicha rejalar ishlab chiqildi⁸¹.

Xullas, fikrimizcha, Shanxay hamkorlik tashkilotiga a'zo davlatlar xalqaro terrorchilik va ayirmachilikka, terrorism va aqidaparastlik g'oyalari qarshi kurashda SHHTga a'zo mamlakat huquq-tartibot organlari, maxsus xizmatlari va boshqa tuzilmalarning faoliyatini muvoffiqlashtiruvchi qo'shma dasturlarni ishlab chiqish zarur.

O'zbekistonning Markaziy Osiyo mintaqasi mamlakatlari bilan siyosiy hamkorlipshing muhim yo'nalishlaridan biri Markaziy Osiyoni yadro qurolidan xoli zonaga aylantirishdan iboratdir.

Bugungi dunyo shunisi bilan xarakterlanadiki, unda davlatlar barcha sohalarda bir-birlari bilan izchilroq hamda mustahkamroq bog'lanib bormokda. bugunga kun muammolari uta globallashib bor-moqda. Ayniqsa, harbiy-siyosii muaimolar xalqaro hamjamiyat a'zolaridan insoniyatning yashab qolishini ta'minlash uchun kelishilgan kollektiv sa'y-harakatlarni talab etadi. Shu bois, bugunga kunda insoniyat sivilizatsiyasi oldida turgan eng dolzarb vazifalardan biri yadro quroli bundan keyin tarkapishining oldini olishdan iborat. Qudratli davlatlar tomonidan shu kunga qadar to'plangan yadroviy zahiralarning atigi 5%ning o'ziyoq sayyoramizga tuzatib bo'lmas ekologik halokatlar keltirishi mumkin, shuning o'ziyoq bu muammoning qay darajada muhimligidan dalolat beradi.

Mamlakat Prezidenti I.A.Karimov 1993 yilda bo'lib o'tgan BMT Bosh Assambleyasining 48-sessiyasida Markaziy Osiyo mintaqasini yadro qurolidan xoli zona deb e'lon qilish tashabbusi bilan, shuningdek, kimyoviy va baktireologik qurollarning tarqatilishini xalqaro miqyosda nazorat qilishni yo'lga qo'yish talabi bilan chiqqsh edi⁸².

Prezident I.A. Karimov 1997 yilning 15 sentyabrida Toshkentda bo'lib o'tgan "Markaziy Osiyo - yadro qurolidan xoli zona" mavzusidagi Xalqaro Konferentsiyada so'zlagan nutqida Markaziy Osiyoni yadroviy qurollardan xoli zona deb e'lon etishning dolzarb tashabbus ekanligani isbotlab beruvchi bir qator kontseptual qoida va omillarni bayon qilib berdi. Ular quyidagilardan iborat:

- Markaziy Osiyo dunyoda aholisi eng zich joylashgan mintaq bo'lib, bu yerda aholi tabiiy shart-sharoitlarga ko'ra, shusiz ham turli-tuman tabiiy falokatlar, xavf-xatarlar sharoitida yashayotganligi;

- boy tabiiy, minerap, energetik, aholi va boshqa resurslarga ega Markaziy Osiyoning o'ziga xos geostrategik mavkega egaligidan tashqari, bu yerda jahondaga ko'plab yirik mamlakatlarning geo-siyosiy va strategik manfaatlari to'qnash kelishidagi o'ziga xoslik;

- Markaziy Osiyo mintaqasining dunyoviy xo'jalik aloqalari tizimiga, dunyoviy iqtisodiy va informatsion makonga faol kirib borishi, jahonning etakchi davlatlari va xalqaro institutlar bilan siyosiy hamkorlikning mustahkamlanishi, mintaqa davlatlarining xalqaro xavfsizlik global tizimiga integratsiyalashuvining zarurligi⁸³.

O'zbekistonning bu tashabbusi Qozog'iston, Qirg'iziston, Tojikiston, Turkmaniston Rsspublikalari tomonidan to'la qo'llab-quvvatlandi hamda 1997 yilning fyevral' oyida qabul qilingan Almati Deklaratsiyasida o'z ifodasini topdi. BMTda mazkur Deklaratsiyaning taqdimoti bo'lib o'tdi.

⁸⁰ Каримов И.А. Ўзбек халқи ҳеч қачон, ҳеч кимга қарам бўлмайди. Т. 13. – Т.: Ўзбекистон, 2005. – Б.432.

⁸¹ Халқ сўзи.2012й 8июнь.

⁸² Каримов И. А. Биздан озод ва обод Ватан қолсин. Т.2. – Т.; 1996. – Б. 55.

⁸³ Каримов И.А. Хавфсизлик ва барқарор тараққиёт йўлида. Т.6. – Т.; 1998. – Б. 355-360.

Prezident I.A.Karimov ta'kidlab ko'rsatayotganidek, yadroviy xavfsizlik masalasiga umumiy xavfsizlik, insoniyatning yashab qolishi masalasining ajralmas bir qismi sifatida qaralishi kerak. Bunda zonaning butunlay yadroviy qurollardan xoli etilishi va bunda ishtirokchi davlatlarnigina emas, balki manfaatdor mamlakatlarning ishtirokini ta'minlash printsiplariga amal qilish kerak. SHuningtsek, yadro kurolidan xoli zonaning barpo etilishi xaqidagi bitimlar kelishilgan majburiyatlarga rioya qilishni ta'minlovchi samarali nazorat tizimini uz ichiga olishi lozim. Nazorat MAGATE va BMTning Xavfsizlik Kengashi kafolati ostida olib borilishi lozim. Markaziy Osiyoda yadro qurolidan xoli zonaning barpo etilishi va uning faoliyat ko'rsatishi yadro qurolini tarqatmaslik Haqidaga shartnoma doirasida belgilab berilgan dunyo miqyosidagi yadro xavfsizligi tizimining ajralmas qismidir. Bu amalda Markaziy Osiyo mintaqasi davlatlari yadro qurolini tarqatmaslik va qurolsizlanishning umumiy tartibga faollik bilan qo'shilajagini bildiradi. Ushbu tartibga yangi mustaqil davlatlar orasida birinchi bo'lib O'zbekiston qo'shildi. Markaziy Osiyoni yadroviy quroldan xoli zona deb e'lon etishning o'zigina asosiy vazifa emas, balki xavfsizlikni va izchil, barqaror rivojlanishni ta'minlashning bir vositasidir⁸⁴.

O'zbekiston tomonidan yadrosiz hudud barpo etish tashabbusi ham Markaziy Osiyo mamlakatlari mintaqa aholisining kelajagi uchun nihoyatda muhim. Prezident Islom Karimov 2000 yil sentyabr' BMT Bosh Assambleyasida so'zlangan nutqida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti shunday dedi: «O'zbekiston yadro qurolini tarqatmaslik va qurolsizlanishga doir xalqaro tartibga barcha davlatlar qat'iy va so'zsiz rioya qilishi tarafdoridir. Busiz global miqyosda ham, mintaqaviy miqyosda ham strategik barqarorlikka erishib bo'lmaydi. Bularning barchasi O'zbekistonning Markaziy Osiyoda yadro qurolidan xoli hudud barpo etish to'g'risidagi tashabbusi ahamiyatini yanada oshiradi va uni tezda xalqaro-huquqiy jihatdan qonunlashtirish zaruratini ilgari suradi»⁸⁵.

Shu tariqa bu mintaqa davlatlari butun dunyo ko'lamida tinchlik va barqarorlikni mustahkamlashga munosib hissa qo'shadi. Birinchi navbatda, Markaziy Osiyoda yadro qurolidan xoli zonaning barpo etilishi va uning faoliyat ko'rsatishi – yadro qurolini tarqatmaslik haqidagi shartnoma doirasida belgilab berilgan dunyo miqyosidagi yadro xavfsizligi tizimining ajralmas qismidir. Markaziy Osiyoda yadro qurolidan xoli zonani barpo etish g'oyasi mintaqaviy xavfsizlikni ta'minlash bo'yicha amalga oshirilayotgan tadbirlarga to'la mos keladi. 2006 yil oxirida BMT Bosh Assambleyasi Markaziy Osiyo davlatlari nomidan O'zbekiston delegatsiyasi tomonidan taqdim etilgan «Markaziy Osiyoda yadro qurolidan xoli hududni yaratish» rezolyutsiyani ma'qulladi. O'zbekiston Respublikasi tomonidan «Markaziy Osiyoda yadro qurolidan xoli zona to'g'risidagi Shartnomani 2006 yil 2 aprel'da ratifikatsiya qilinishi ham katta ahamiyatga ega bo'ldi.

O'zbekiston 1996 yilda tashkil etilgan GUUAM (Gruziya, Ukraina, O'zbekiston, Ozarbayjon, Moldova) kabi xalqaro tashkilotnigag ham a'zositir. Mazkur tashkilot Markaziy Osiyo mintaqasining muammolarini hal etishda nihoyatda muhim rol' o'ynaydi. Uning asosiy vazifasi – Osiyo – Kavkaz – Yevropa transport koridori doirasidaga hamkorlikni tashkil etish va iqtisodii aloqalarni yo'lga qo'yishdan iborat⁸⁶. Iqtisodiy aloqalarni o'rnatish uchun esa mamlakatlar o'rtasida izchil savdo-sotiqnn yo'lga qo'yish lozim bo'ladi. Buning uchun o'z navbatida, Janub, G'arb va SHarq tomonga yo'naltirilgan transport magastrshixarini yotqizimoklik talab etiladi.

Bundan tashqari GUUAM orqali savdo-iqtisodiy aloqalarni o'rnatish, Buyuk Ipak yo'lini tiklash uchun nihoyatda zarur bo'lgan Xalqaro tashkilotlar tomonidan ajratiladagin moddiy yordamlar hajmini oshirish imkoniyatiga ham ega bo'linadi. TRASEKA loyihasi bo'yicha Buyuk Ipak yo'lini qayta tiklashni Yevropa igtifoqi ham qo'llab-quvvatlamogda.

⁸⁴ Каримов И.А. Хавфсизлик ва барқарор тараққиёт йўлида... – Б. 358.

⁸⁵ Каримов И. А. БМТ Бош Ассамблеясида сўзлаган нутқ, 2000 йил сентябрь // Ватан равнақи учун ҳар биримиз масъулмиз... – Б. 326.

⁸⁶ Усмонов Қ. Ўзбекистоннинг жаҳон ҳамжамиятига интеграциялашуви. –Т.: Молия, 2003. –Б. 20-21.

Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi (MDH) mintaqaviy tashkiloti sobiq SSSRning ayrim respublikalari tomonidan tuzilgan edi. Uni ta'sis etuvchi hujjatlar 1991 yil 8 dekabrda Minskda Belorusiya, Rossiya va Ukraina tomonidan imzolangan Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligini tuzish to'g'risidagi bitim, 1991 yil 21 dekabrda (Boltiq Bo'yi respublikalari va Gruziyadan tashqari) 11 ta sobiq Ittifoq respublikalari tomonidan Olmaotada imzolangan Bitimga Bayon va 1991 yil 21 dekabrda imzolangan Olmaota Deklaratsiyalari hisoblanadi. 1993 yil 22 yanvarda Minskda bo'lib o'tgan Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi davlat boshliqlari Kengashida MDH ining Nizomi qabul qilindi⁸⁷.

1992 yil kuzida Tojikiston hukumatining murojaatiga binoan MDH davlatlari insonparvarlik yordami ko'rsata boshladilar. 1992 yil noyabr oyida Tojikiston Oliy Kengashi MDHga a'zo mamlakatlar parlamentlariga murojaat qilib, ichki siyosiy vaziyatni izga solishda ko'mak berishni iltimos qildi. Bu haqda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A. Karimov quyidagilarni ta'kidlagan edi: "Yordam to'g'risida gapiradigan bo'lsak, Tojikistonning qonuniy yo'l bilan saylangan hukumati madad berishni so'rab, barcha MDH mamlakatlariga murojaat qildi. O'rta Osiyodagi to'rt davlat rahbarlarining Rossiya tashqi ishlar vaziri ham ishtirok etgan Olmaotadagi kengashida Tojikistonga ana shunday yordam berish to'g'risida qaror qabul qilingan edi. 1992 yil may oyida Toshkentda kollektiv xavfsizlik to'g'risidagi shartnoma imzolandi. Bu shartnomaga muvofiq uni imzolagan etti mamlakatning har biri zarur bo'lgan taqdirda bir-biriga yordam berishi shart. Tojikistonda tartib o'rnatilishi uchun unga xalqaro madad ham zarur"⁸⁸.

Mintaqaviy xavfsizlikni ta'minlash sohasidagi yirik amaliy tadbirlardan biri Davlatlararo Kengashning BMT rahnamoligida tinchlik o'rnatish mashqlarida qatnashishga mo'ljallangan Qozog'iston, Qirg'iziston va O'zbekiston Respublikalarining tinchlik o'rnatuvchi batal'oni (TSentrazbat) tashkil etish, moddiy – texnik jihatdan ta'minlash va uning faoliyatiga doir maxsus Nizomni tasdiqlash to'g'risidagi qarori bo'ldi.

O'zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishganining dastlabki kunlaridanoq Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligiga a'zo davlatlar bilan harbiy sohada hamkorlikka muhim ahamiyat bera boshladi. "O'zbekiston ayni shu sababli mintaqada va sobiq Ittifoq hududida kollektiv xavfsizlik tizimini barpo etish tashabbuskorlaridan biri bo'ldi. MDH mamlakatlari o'rtasida tuzilgan kollektiv xavfsizlik to'g'risidagi shartnomalarning dastlabkilaridan biri 1992 yil may oyida aynan Toshkentda imzolangan ham tasodif emas"⁸⁹.

MDH ga a'zo davlatlar xavfsizlik va barqarorlikni saqlash borasida bir qator bitimlarni imzolaganlar. Jumladan, MDH davlatlari ichki ishlar vazirliklarining Jinoyatchilikka qarshi kurash doirasidagi o'zaro harakati haqida bitim (1992 yil), Giyohvand vositalar va psixotrop narsalarning noqonuniy oboroti bilan kurashda hamkorlik haqida bitim (1992), uyushgan jinoyatchilik bilan kurash doirasidagi o'zaro harakat haqida bitim (1994), yansportdagi jinoyatchilik bilan kurashdagi hamkorlik haqida bitim va boshqalar idoralararo bitimlar toifasiga kiradi. Bu turdagi shartnomalar, odatda, tilga olingan jinoyatlarni sodir etgan shaxslar haqida ma'lumotlarni ayirboshlash, tayyorlanayotgan va sodir etilgan jinoyatlar, shuningdek, ularni sodir etish usullari haqidagi ma'lumotlarni ayirboshlash, tegishli mutaxassislar va texnologiyalarni ayirboshlash va hokazolar bo'yicha hamkorlikni nazarda tutadi⁹⁰.

2000 yil 21 iyunda Moskvada bo'lib o'tgan MDH davlat rahbarlarining sammitida

⁸⁷ Ўзбекистон жамиятни демократлаштириш ва янгилаш, мамлакатни модернизация ва ислох килиш йўлида.– Тошкент.: Академия, 2005. – Б. 278.

⁸⁸ Каримов И.А. Ўзбекистоннинг келажаги буюклигига ишончим комил! // Ўзбекистон: миллий истиқлол, иқтисод, сиёсат, мафкура. 1-жилд. – Тошкент: Ўзбекистон, 1996. – Б. 81.

⁸⁹ Каримов И. А. Ислохотимиз тамойиллари // Ватан саждагоҳ каби мукаддасдир. 3-жилд. – Тошкент: Ўзбекистон, 1996. – Б. 81.

⁹⁰ Абдисатгаров А. Халқаро терроризмга қарши курашда стратегик ҳамкорликнинг ҳуқуқий асослари.// Демократлаштириш ва инсон ҳуқуқлари. – Т.; 2006. – №6. – Б. 47.

terrorchilikka qarshi kurash markazini tuzishga qaror qilindi. 2001 yil iyun' oyi boshlarida Minsk shahrida bo'lib o'tgan MDH davlat boshliqlarining sammitida jinoyatchilik, terrorchilik va ekstremizmning turli ko'rinishlariga qarshi birgalikda kurashish masalasi muhokama qilindi⁹¹.

Xulosa o'rnida shularni ta'kidlash mumkinki, Markaziy Osiyo mintaqasida umumiy xavfsizlikni ta'minlash borasida bir qator xalqaro tashkilotlar faoliyat olib bormoqda. Birlashgan Millatlar Tashkiloti, Yevropada Xavfsizlik va Hamkorlik Tashkiloti, Shanxay Hamkorlik Tashkiloti, Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi va boshqa tashkilotlar bilan Markaziy Osiyo davlatlarining hamkorligi mintaqada xavfsizlik, tinchlik va barqaror rivojlanishni ta'minlashning muhim sharti hisoblanadi. O'zbekiston ushbu tashkilotlar bilan ko'p tomonlama samarali hamkorlik qilish zarurligiga har doim alohida urg'u berib kelgan.

XULOSA

O'zbekiston mustaqillikni qo'lga kiritgandan keyin xalqaro munosabatlarning teng huquqli a'zosiga aylanib, mustaqil tashqi siyosat yuritmoqda. Mamlakatimiz tashqi siyosatining eng muhim yo'nalishlaridan biri - uning dunyo mamlakatlari bilan do'stlik va hamkorlik munosabatlarini o'rnatishdan iboratdir.

Mamlakatimiz o'zining tashqi siyosatini davlatning ichki siyosatiga munosib bo'lishiga ahamiyat beradi. Shuning uchun ham davlatning o'z ichki siyosati oldiga qo'ygan maqsad va vazifalarining muvaffaqiyatli amalga oshirilishi uning tashqi siyosatining ham asosiy yo'nalishlaridan biri sanaladi.

Bugungi kunda jaqon miqyosida globallashuv jarayoni hukm surayotgan bir paytda mintaqa xavfsizligi va barqarorligini ta'minlash masalasi nihoyatda dolzarb masalalardan biriga aylandi. Shu bois ham jahonda va mintaqa miqyosida xavfsizlik va barqarorlikni ta'minlash yo'lida amalga oshirilayotgan xatti-xarakatlarni tarixiy nuqtai nazardan o'rganish va tahlil etish bugungi kunning dolzarb masalalaridan biri hisoblanadi. Shu asosda Markaziy Osiyo mintaqasida xavfsizlik va barqarorlikni ta'minlashda xalqaro tashkilotlarning rolini kuzatishga, aniqlashga va taxlil etishga bag'ishlab olib borgan tadqiqot natijasida quyidagi asosiy xulosalarga kelindi:

1. Markaziy Osiyo mamlakatlari mustaqillikning dastlabki kunlaridanoq o'zlarining tashqi siyosiy faoliyatini belgilovchi strategiya, tamoyillar va ustivor yo'nalishlarini ishlab chiqdilar. Tashqi siyosiy faoliyat olib borish yo'lida eng dolzarb va ustivor yo'nalishlardan biri sifatida esa mamlakat ichida hamda mintaqa miqyosida xavfsizlikni va barqarorlikni ta'minlash masalasi belgilandi.

Mintaqa xavfsizligi va barqarorligiga taxdid soluvchi omillarga qarshi kurashish yo'lida Markaziy Osiy davlatlari eng avvalo jahon hamjamiyatining nufuzli xalqaro tashkilotlari bilan yaqindan hamkorlik aloqalarini o'rnatish va ularning faoliyatidan unumli foydalanishni o'z oldilariga maqsad qilib qo'ydilar.

2. Dunyo miqyosida xavfsizlik va barqarorligiga taxdid soluvchi omillarga qarshi kurashish yo'lida ushbu mintaqada o'zining geopolitik va etakchilik mavqei bilan ajralib turuvchi O'zbekiston Respublikasining o'ni alohida ahamiyat kasb etmoqda.

O'zbekiston Respublikasi geografik nuqtai nazardan Markaziy Osiyoning markazida joylashuvi va mintaqa davlatlari bilan chegaradoshligi ushbu hududda xavfsizlik va barqarorlikni ta'minlash yo'lida etakchi rol o'ynashligini yana bir bor namoyish etmoqda. Shu bilan birga O'zbekiston Respublikasi mintaqada osoyishtalik sharoiti xukm surishligi yo'lida xalqaro tashkilotlar bilan faol ish olib bormoqda. Jumladan BMT, YEXHT, MDH va SHHTlarining

⁹¹ Истиклол, демократия ва фуқаролик жамияти. – Тошкент: Шарқ, 2003. – Б. 28.

yiqilishlarida O'zbekiston rahbari yangi tashabbuslar bilan chiqib jahon xamjamiyati etiborini Markaziy Osiyo hududidagi muammolarga jalb etib kelayotganini kuzatish mumkin.

3. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, Markaziy Osiyo mintaqasiga nisbatan mavjud bo'lgan taxdidlar asosan janubda joylashgan qo'shni davlat Afg'onistondan esmoqda. XXI asr bo'sag'asida ushbu davlatning xalqaro terrorizm markaziga aylanishi nafaqat Markaziy Osiyo mamlakatlariga, balki jahon hamjamiyatiga qam taxdid solayotganligiga butun dunyo axli guvoh bo'lmoqda.

Ushbu achchiq haqiqatni his etgan Markaziy Osiyo davlatlari, shu jumladan, O'zbekiston Respublikasi ham o'zining bor imkoniyatlaridan foydalangan hamda xalqaro tashkilotlarni jalb etgan qolda Afg'onistonda tinch yo'l bilan ichki muammolar echimini topish uchun o'z hissalarini qo'shmoqdalar. Afg'onistonda tinchlik va osoyishtalik holati hukm surishi birinchi navbatda afg'on xalqi uchun zarur. Ko'p yillar davom etib kelayotgan urush girdobiga chalinib qolgan afg'on xalqini zamonaviy taraqqiyot yo'lga qadam bosishidan butun Markaziy Osiyo mamlakatlari manfaatdor. Ikkinchi tomondan, Afg'onistonda tinchlik va barqarorlikning hukm surishi Markaziy Osiyo mamlakatlarining iqtisodiy manfaatlariga to'qri kelishi bilan belgilanadi. Asos sifatida shuni ta'kidlash joizki, bugungi kunda mintaqada davlatlari Afg'oniston hududi orqali Pokiston va qindistonga neft va gaz quvurlari o'tkazish imkoniga ega bo'lgan bo'lar edi. Ushbu loyihalarning amalga oshirilishi millionlab afg'onlarga tinch meqnat bilan shug'ullanish, mintaqadagi barcha davlatlarga esa yangi, nisbatan qisqaroq kommunikatsiyalarni ishga solish hamda savdo, iqtisodiy aloqalarni yo'lga qo'yish imkonini ochib bergan bo'lur edi. Bunday holat esa o'z navbatida, butun Markaziy Osiyo mintaqasida va uning janubidagi qo'shni mamlakatlarda keskinlik vaziyatini hamda geosiyosiy holatlarni tubdan o'zgarishiga sabab bo'ladi.

4. Markaziy Osiy mintaqasida mavjud bo'lgan dolzarb muammolardan biri sifatida bu hududda yadro va yalpi qirg'in qurollarini saqlamaslik, sinovdan o'tkazmaslik bilan bog'liq masalalar qisoblanadi. Bu sohadagi yutuq va kashfiyotlarni sinab ko'rish davom etayotganligi mintaqada davlatlari mustaqilligi va barqarorligiga xavf solmoqda. Shu sababga ko'ra O'zbekiston Respublikasi BMT bilan hamkorlikda, yadro qurolini batamom yo'qotishni, yadro qurolini tarqatmaslik to'qrisidagi shartnoma samarali amal qilishini va muddatsiz uzaytirilishini yoqlab chiqmoqda. Shu bilan birga O'zbekiston Respublikasi Markaziy Osiyo mintaqasini yadro qurolidan xoli zona deb e'lon qilinishiga o'zining katta hissasini qo'shganligini ko'rish mumkin. Bundan tashqari, O'zbekiston rahbariyati xalqaro tashkilotlar raxnamoligida Markaziy Osiyo mintaqasida kimyoviy va bakteriologik qurolni ta'qiqlashni va ularning ustidan xalqaro nazorat o'rnatish zarurligini qat'iy yoqlab chiqayotganligining guvohi bo'lish mumkin.

5. Mamlakatimiz mustaqillikka erishgach, o'z oldiga rivojlangan mamlakatlar tajribasiga tayanib, dunyoviy demokratik davlat qurish yo'lini tanladi. Shu sababga ko'ra bugungi kunda davlatlatimizda bir vaqtning o'zida demokratik o'zgarishlar amalga oshirib kelinmoqda. Demokratiya prinsiplariga rioya qilish va inson huquqlari himoyasini ta'minlash masalalarida, Birlashgan Millatlar Tashkiloti hamda Yevropada Xavfsizlik va hamkorlik tashkilotining faol ishtiroki yaqqol ko'zga tashlanadi. Ushbu tashkilotlarning ko'magi asosida O'zbekiston Respublikasida Oliy Majlisning Inson ququqlari bo'yicha Vakili (Ombudsman, 1995 yil); O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi amaldagi qonun hujjatlari monitoringi instituti (1996 yil); Inson huquqlari bo'yicha Respublika Milliy markazi (1996 yil); Jamoatchilik fikrini o'rganish markazi (1997 yil) tashkil topganligining guvoqi bo'lish mumkin.

6. Tarixdan ma'lumki Markaziy Osiyo mintaqasida joylashgan xalqlarning tarixiy ildizi, dini, madaniyati, urf odatlari va qadriyatlarini bir biriga yaqindir. Ammo shunga qaramasdan tashqi omillar ta'siri ostida mintaqada xalqlari o'rtasidagi nizolarni chiqarib, Markaziy Osiyo davlatlari o'rtasida siyosiy va millatlararo to'qnashuvlarni keltirib chiqarishga qaratilgan xarakatlar yuz berdi. Bunday holatni Qirg'iziston Respublikasining O'sh viloyatida sodir bo'lgan voqealarda ko'rish mumkin. Bunday qolatni oldini olish, mintaqadagi barqarorlikni taminlashda

xalqaro tashkilotlar tomonidan beg'araz gumanitar yordam qo`li uzatilganligi ko`plab misollarda o`z tasdiqini topdi.

Shunday qilib, Markaziy Osiyoda xavfsizlik va barqarorlik holatini ta`minlashda BMT, YEXHT, MDH va SHHTlari aloqida o`rin tutadi va ularning har biri bilan mintaqadagi barcha mamlakatlar yaqin aloqalarni amalga oshirib kelmoqdalar va kelgusida bunday aloqalarni yanada rivojlantirish siyosatini olib bormoqdalar.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO`YXATI

I. Rasmiy adabiyotlar

- 1.1. Ўзбекистон Республикаси Конституцияси. –Т.: Ўзбекистон, 2008. -40 б.
- 1.2. Каримов И. А. Истиқлол йўли: муаммо ва режалар. –Т.: Ўзбекистон, 1992. –31 б.
- 1.3. Каримов И. А. Ўзбекистон: миллий истиқлол, иқтисод, сиёсат, мафкура. –Т.: Ўзбекистон, 1993. –262 б.
- 1.4. Каримов И. А. Ватан саждагоҳ каби мукаддасдир. –Т.: Ўзбекистон, 1995. –275 б.
- 1.5. Каримов И.А. Ўзбекистон: миллий истиқлол, иқтисод, сиёсат, мафкура. 1-жилд. – Т.: Ўзбекистон, 1996. -364 б.
- 1.6. Каримов И. А. Биздан озод ва обод Ватан қолсин. –Т. 2. –Т.: Ўзбекистон, 1996. – 380 б.
- 1.7. Каримов И. А. Ўзбекистон XXI аср бўсағасида: хавфсизликка таҳдид барқарорлик шартлари ва тараққиёт кафолатлари. –Т.: Ўзбекистон, 1997. – 326 б.
- 1.8. Каримов И.А. Жамятимиз мафкуриси халқни халқ, миллатни миллат қилишга хизмат этсин. – Т.: Ўзбекистон, 1998. -18 б.
- 1.9. Каримов И. А. Тарихий хотирасиз келажак йўқ. –Т.: Шарқ, 1998. – 31 б.
- 1.10. Каримов И. А. Ўзбекистон буюк келажак сари. –Т.: Ўзбекистон, 1998. – 686 б.
- 1.11. Каримов И.А. “Туркистон” газетаси мухбирларининг берган саволларига жавоблари // “Туркистон”, 1999 йил 2 феврал.
- 1.12. Каримов И.А. Биз ўз келажакимизни ўз қўлимиз билан қурамыз Т.7. –Т.: Ўзбекистон, 1999. – 410 б.
- 1.13. Каримов И. А. Ўзбекистон XXI асрга интилмоқда. –Т.: Ўзбекистон, 1999. – 352 б

1.14. Каримов И.А. Озод ва обод ватан, эркин ва фаровон ҳаёт-пировард мақсадимиз. 8-жилд. –Т.: Ўзбекистон, 2000. -526 б.

1.15. Karimov I. A. O'zbekiston demokratik taraqqiyotning yangi bosqichida. –Т.: O'zbekiston, 2005. –127 б.

1.16. Каримов И.А. Ўзбек халқи ҳеч қачон, ҳеч кимга қарам бўлмайди. –Т.: Ўзбекистон, 2005. –160 б.

1.17. Каримов И.А. Инсон манфаатларини таъминлаш, ижтимоий ҳимоя тизимини такомиллаштириш – устувор вазифамиздир. – Т.: Ўзбекистон, 2007.

1.18. Karimov I.A. Yuksak mana'viyat yengilmas kuch. –Т.: Mana'viyat, 2008. – 174 б.

1.19. Каримов И.А. Мамлакатимизни модернизация қилиш йўлини изчил давом эттириш – тараққиётимизнинг муҳим омилидир // Президент И.А Каримовнинг Ўзбекистон Республикаси Конституцияси қабул қилинганнинг 18 йиллигига бағишланган тантанали маросимдаги нутқи. Ishonch. 2010 yil 8 dekabr

1.20. Каримов И.А. Ўзбекистон мустақилликка эришиш остонасида. –Т.: Ўзбекистон, 2011. –439 б.

II. Adabiyotlar:

2.1. Аҳмедов Э., Сайдаминов З. Ўзбекистон Республикаси: қисқача маълумотнома. – Т.: Ўзбекистон, 1998.

2.2. Абдисаттаров А. Халқаро терроризмга қарши курашда стратегик ҳамкорликнинг ҳуқуқий асослари.// Демократлаштириш ва инсон ҳуқуқлари. – Т.; 2006. – №6. – Б. 47.

2.3. Гафарли М. С., Касаев А.Ч. Ривожланишнинг ўзбек модели: тинчлик ва барқарорлик – тараққиёт асоси. – Т.: Ўзбекистон, 2001.

2.4. Диний экстремизм ва терроризмга қарши курашнинг маънавий – маърифий асослари: Ўқув қўл./ Масъул муҳаррир А.С Очилдиевю – Тошкент, Тошкент ислом университети, 2008. – 310 б.

2.5. ЕХХТ нинг инсонийлик мезонлари бўйича ҳужжатлари. Иккинчи нашри. Масъул муҳаррир ю.ф.д.А.Саидов. – Тошкент, 2005.

2.6. Jo'rayev N., Fayzullayev T. Mustaqil O'zbekiston tarixi. O'zbekistonning yangi tarixi, 3-kitob. –Т.: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2009. – 664 б.

2.7. Жўраев Нарзулла. Агар огоҳ сен... –Т.: Ёзувчи, 1998. -272 б.

2.8. Жаҳон мамлакатлари. –Т.: Шарқ, 2009. -596 б.

2.9. Истиқлол, демократия ва фуқаролик жамияти. – Тошкент: Шарқ, 2003.

2.10. Камаров А.. Ўзбекистоннинг БМТ билан халқаро терроризмга қарши кураш соҳасидаги ҳамкорлиги // Ўзбекистон ва БМТ: тажриба ва ҳамкорлик истиқболлари. Конференция материаллари. 2007 йил 16 март. – Тошкент.: 2007.

2.11. Камаров А. Ўзбекистоннинг БМТ билан халқаро терроризмга қарши кураш соҳасидаги ҳамкорлиги // Ўзбекистон ва БМТ: тажриба ва ҳамкорлик истиқболлари. Конференция материаллари. 2007 йил 16 март. –Тошкент, 2007.

- 2.12. Муродов Х, Муҳаммадиев Н, Жамолов Ғ. Ўзбекистон жаҳон ҳамжамияти сафида. –Т.: Гофур Гулом номидаги адабиёт ва санъат нашриёти, 2000. – 48 б.
- 2.13. Муртазаева Р.Ҳ. Ўзбекистонда миллатлараро муносабатлар ва бағрикенглик.// Ўқув қўлланма – Тошкент: Университет, 2007
- 2.14. Миллий истиқлол ғояси ва миллий хавфсизлик. – Тошкент: Академия, 2008.
- 2.15. Саидов А. Халқаро ҳуқуқ. –Т.: Адолат, 2001. – 383б.
- 2.16. Саидов А., Таджиханов У., Одилқориев Х. Давлат ва ҳуқуқ асослари. – Т.: Шарқ, 2002.
- 2.17. Туляганов А. Ўзбекистон республикаси замонавий халқаро муносабатларининг ўзига хос хусусиятлари. // Ижтимоий фикр. Инсон ҳуқуқлари. – 2007. № 2. – С. 27-35.
- 2.18. Усмонов Қ. Ўзбекистоннинг жаҳон ҳамжамиятига интеграциялашуви. –Т.: Молия, 2003.
- 2.19. Ўзбекистон жамиятни демократлаштириш ва янгилаш, мамлакатни модернизация ва ислох қилиш йўлида.– Тошкент.: Академия, 2005.
- 2.20. Ўзбекистон Республикаси. Энциклопедия. – Т.: Қомуслар Бош таҳририяти, 1997.
- 2.21. Shamsutdinov R., Karimov Sh. Vatan tarixi. 3-kitob. –Т.: Sharq, 2010. -496 б.
- 2.22. Қирғизбоев А.К. Ўзбекистон Республикасининг Осиё мамлакатлари билан халқаро ҳамкорлиги. – Тошкент: Фан, 2004. – 280 б.

III. Davriy matbuot nashrlari

- 3.1. Абдуллаев О. Ўзбекистон – Европада Хавфсизлик ва Ҳамкорлик Ташкилоти. // Илм сарчашмалари. – Урганч, 2004. – №1.
- 3.2. Бобоев А. Тинчлик, барқарорлик ва тараққиёт йўлида // Халқ сўзи. 2004 йил 19 октябрь.
- 3.3. Жўраев Н. Мустақиллик маърифати // Мулоқот, 1992. –№ 9-10. –Б. 13.
- 3.4. Жўраев Н., Файзуллаев Т. Тараққиётнинг ўзбек модели // Жамият ва бошқарув. 1998. –№1. –Б. 4-7.
- 3.5. Каримов И. А. ШҲТ ҳамкорлигининг улкан салоҳиятини намойиш этмоқда // Инсон, унинг ҳуқуқ ва эркинликлари – олий кадрیات. Т.14. – Т.: Ўзбекистон, 2006.
- 3.6. Нажмиддинов К. Шанхайдан бошланган эзгу йўл // Халқ сўзи, 2004 йил 15 июнь.
- 3.7. Норматов И. Жаҳон билан бўйлашиб // Моҳият, 2006 йил 22 декабрь.
- 3.8. Президент И.Каримов ШҲТ давлатлари раҳбарларининг Санкт-Петербургда ўтказилган Саммитида сўзлаган нутқидан // «Халқ сўзи», 2002 йил 11 июнь.
- 3.9. Рахимов Д., Худайкулов А. Минтақавий хавфсизликни таъминлаш йўлида // Ҳуқуқ. 2009 йил 22 октябрь.
- 3.10. Сафаров М. ШҲТ– хотиржамлик ва фаровон ҳаёт шарти // Инсон ва қонун, 2004 йил 8 июнь.
- 3.11. Тўраев А. Интеграцияни мустаҳкамлаш йўлида // Халқ сўзи. 2006 йил 18 январь.
- 3.12. Файзуллаев Т. Мустақиллик ғояси: генезиси ва ривожланиши // Жамият ва бошқарув., 1998. -№3. –Б. 27-30

3.13. Худойкулов А., Нуруллаев Н. Ўзбекистон – Хитой ҳамкорликнинг янги босқичи. // Илм сарчашмалари//. 2006. №2.-Б. 20-22 .

IV. Internet saytlari.

- 4.1. www.gov.uz
- 4.2. www.uza.uz/news/
- 4.3. www.google.uz
- 4.4. www.referat.uz
- 4.5. www.e-tarix.uz
- 4.6. www.ziyonet.uz/library